

P.P.Shabaratov



LAKLI
MINIATYURA

KOMPOZITSIYA





ISBN 978-9943-08-170-3



9 789943 081703

Kitob quyidagi ko'rsatilgan
muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar miqdori

67 4.06.11 ✓
Ходирев 60911/р
373-15.10.11 келг

дизайн институт
«Тасвир
ишлари
№1 сонли
асдикланган.
— услубий
С. Абдуллаев
Инл
РИЙ САНЪАТДА БАДИИЙ МА
Фанининг ишчи дастури

и: 200 000 – Гуманитар фанла
и: 210 000 – Санъат.
и: 5210801 – Дастгохли ранг

02
455.3
3h 13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

PATXIDDIN SHABARATOV

KOMPOZITSIYA

*Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

K. Behzod nomidagi
Milliy Resonmlik
va Dizayn Instituti

AXBOROT RESURS

N^o 28224

Toshkent
Yangi asr avlodi
2007

KIRISH

1997-yil 23-yanvar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1701 «O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida»gi Farmoni, 1997-yil 11-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 131-qaroriga binoan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mavjud san'at maktablari negizida bittadan tasviriy va amaliy san'at litseylari o'z faoliyatini boshladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda nafaqat ta'lim, savdo-sotiq, fan va texnika, balki tasviriy va amaliy san'atda ham samarali yutuqlarga erishildi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemsil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek tasviriy va amaliy san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning o'tmish tarixiga, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, buyumlarga badiiy ishlov berish usuli va buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda. Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi badiiy-ijodiy faoliyat insonning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar, voqea va hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakllarda qaytadan aks ettirishga havas uyg'otadi. Shakl hamda ranglarning mavjud hamda soddalashtirilgan, ramzlashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi. U o'z navbatida odamlarning kundalik turmushlaridan o'rin ola boshladi. Natijada bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo'ldi.

LAKLI MINIATURA SAN'ATI

O'zbek xalqining eng nafis ijod turlaridan biridir. Manbalarga ko'ra, surat solingan lakli qutichalar dastlab XVI asrda Buxoroda yasalgan ekan. Bu davrdagi lakli miniatura namunalari bizgacha yetib kelmagan, hunarmandchilikning bu turiga xos bo'lgan ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari esa unutilib ketgan. 1970-yillarda O'zbekistonning bir qator rassomlari va xalq ustalari ushbu ajoyib san'at turini qayta tiklashga bel bog'ladilar. Ular orasida taniqli o'zbek musavviri Chingiz Axmarov, o'sha paytda yosh, navqiron san'atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, Hayrat Kamolov, Munira Sotiboldiyeva va boshqalar bor edi. Ijodiy ustaxona tashkil etilib, unga o'z asarlarida Sharq miniatyrasining ko'p asrlik an'analarini izchillik bilan rivojlantirib kelayotgan rassom Chingiz Axmarov rahbarlik qildi. Mutaxassislarining aniqlashicha, Sharqdagi tosh qog'ozdan ishlangan buyumlarga naqsh solish usuli Fedoskino, Palex, Mstera, Xoluy markazlariga mansub lakli miniatura san'atiga o'xshab ketar ekan. Sanamnavislik usullarini meros qilib olgan rus miniatura ustalari qo'llaydigan badiiy ifodalash vositalarining negizi sifatidagi jo'shqin rangtasvir usuli ko'p jihatdan Sharqning o'rta asrlardagi miniatyrachilari tajribasini eslatadi. Lakli miniatura san'atining butun jahonga mashhur asosiy markazlaridan biri Palex bilan tuzilgan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga binoan, 1982-yilda O'zbekiston tajriba ustaxonasi rassomlaridan iborat ijodiy guruh ushbu shaharga yo'llandi. Ularni toshqog'ozdan (pape-mashe) yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, tuxumning sarig'i asosida kukunsifat pigmentlardan bo'yoqlarning kerakli tarkibini olish, mahsulotlarni ishlashdagi issiqlik rejimi, yupqa zarvaraqlardan foydalanish, maxsus mo'yoqalamlarni tayyorlash usuli bilan tanishtirishdi. Palex naqshlari bilan tanishish o'zbekistonlik ustalarni O'rta Sharq miniatyrasining mumtoz namunalariga murojaat etishga undadi. Miniatura

rangtasvirining an'anaviy lak bilan naqsh solish san'atiga kirib kelishi, O'zbekiston rassomlarining ijodiy amaliyotida san'atning yangi turi – lakli miniaturaning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Lakli miniatura san'atining shakllanish jarayoni murakkab kechdi. O'tgan 20 yil mobaynida ijodning ushbu turi rivojida ikkita tamoyil ayon bo'ldi. Birinchisi – miniatura rangtasviri badiiy merosiga ijodiy yondashgan holda va naqshin sujetda zamonaviy voqelikni aks ettirish bo'lsa, ikkinchisi – mumtoz miniaturaning badiiy qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilishdan iborat.

Shomahmud Muhammadjonov ijodi lakli miniatura bilan shug'ullanadigan ilk rassomlar avlodi uchun ibrat bo'ldi. O'rta asr Sharq miniaturasi, uning texnologik usullariga oid chuqur bilim va ayni chog'da akademik dastgohli rangtasvir malakalari Shomahmud Muhammadjonovda o'ziga xos badiiy uslubning shakllanishiga zamin bo'ldi. U naqshlarda o'rta asrlar miniaturasi qonunlariga amal qiladi. Rassom qahramonlari ruhiy holatini qiyofa, vaziyat, imo-ishoralar, ranglarning ramziy ma'nolari orqali aks ettiradi. Biroq Shomahmud Muhammadjonov o'rta asrlardagi ustalardan farqli ravishda, miniatura san'atining an'anaviy tizimiga zamonaviy muallifning o'ziga xos badiiy tafakkurini ham singdirishga harakat qiladi. U O'zbekiston tasviriy san'atida an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvidan iborat o'ziga xos yo'nalishning asoschilaridan biriga aylandi.

Niyozali Xolmatov monumental naqshlar va zargarlik buyumlarini yaratish sohasidagi ijodini miniatura san'ati bilan birga qo'shib olib borayotgan iste'dodli musavvir. Uning O'zbekiston lakli miniaturasi rivojiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Badiiy hunarmandchilikning bir necha turlari bilan shug'ullanish rassomning miniatura rangtasviri olamidagi ijodiy izlanishlarini yanada boyitdi. Xususan, uning minimalaridagi yorqin bezakli bo'yoqlar qabarib turgan sirli halqachalarni eslatadi. Niyozali Xolmatovning asarlari suratning mutanosibligi, kompozitsiyaning lo'ndaligi, xatning sipoligi bilan farqlanib turadi.

G'ayrat Kamolov pape-mashedan ishlangan qutichalar, upadonlar, bezakli taxtachalarni bevosita miniatura bilan bezaydi. Rassom mavzu tanlashda ko'proq folklor ohanglariyu Navoiy dostonlariga murojaat qiladi. G'ayrat Kamolov ijodi rang-barang bo'lib, miniatura an'alarining Ovro'po realistik rangtasvir usullari bilan birga qo'shib olib borilishi bilan ajralib turadi.

Toir Boltaboyev miniaturalari mavzusi ham xalq rivoyatlari, afsonalari, o'zbek mumtoz she'riyatidan olingan. His-tuyg'ularga tayanish va romantik obrazli-hissiy kayfiyat uning ijodiga xosdir. Toir Boltaboyev asarlarining o'ziga xosligi ularning kompozitsiya qurilishida ko'zga tashlanadi. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalar va personajlar ko'pincha miniaturaning shartli olamiga sig'masdan, uning doirasini yorib chiqadi. Sarg'ish, zarrin, och yashil, ko'k, qizil ranglar Toir Boltaboyev asarlarida o'ziga xos jilva qiladi. Ayrim kompozitsiyalarda rassom o'z ustози Chingiz Axmarov asarlaridan olingan «ko'chirmalar»dan ijodiy foydalangan. Toir Boltaboyevning bugungi izlanishlari qog'ozdagi miniatura bilan ishlay boshlagan 1990-yillardan sezilarli farq qiladi. Zero, rassomning bugun yaratayotgan asarlarida ranglar yanada boyib, kompozitsiyalar ham ancha erkin tus olgan.

Xurshid Nazirovning pape-mashedan ishlagan buyumlaridagi naqshin mavzular Sharq mumtoz she'riyati vakillari – Lutfiy, Hofiz Xorazmiy g'azallaridagi sujetlardan ilhomlanish samarasi o'laroq vujudga kelgan. Xurshid Nazirovning lakli miniaturasi uchun bezaklarning mo'lligi, voqealarning ko'tarinkiligi xarakterli bo'lib, ular o'ziga xos kompozitsiya va rangin vositalar orqali aks ettiriladi. Shunisi qiziqki, rassom naqshlaridagi qora rang obrazlar mazmunini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, ayni paytda Palex miniaturasi an'analariga ehtirom ma'nosini bildiradi.

Abduhakim Karimov mahobatli devoriy suratni yaratishdagi ijodiy jarayonini miniatura san'ati bilan uyg'unlikda olib borayotgan iste'dodli musavviridir. Ijoddagi ushbu mushtaraklik musavvirning miniatura rangtasviri olamidagi ijodiy izlanishlari doirasini yanada kengaytirdi. Abduhakim Karimovning miniatura asarlari mavzusi Sharq mumtoz she'riyati namoyondalari Navoiy, Nizomiy, Pahlavon Mahmud, Jomiy, Lutfiy, Furqat g'azallaridan ilhomlanish samarasi sifatida vujudga kelgan. His-tuyg'ular, lirik obrazlilik ruhiy-hissiy ijodiy kayfiyat uning uslubiyatini belgilaydi.

Lakli miniatura san'ati g'oyat ulkan qunt, mahorat, bilim, nozik hissiyot talab qiladigan ijod turidir. Hozirgi miniatura ustasi Sharq mumtoz miniaturasining yuksak cho'qqilariga biroz bo'lsa-da yaqinlashishga intiladi. Rassomlarning navqiron avlodiga mansub yoshlar o'z ijodlarida avvalo miniatura san'atining an'anaviy qonun-qoidalariga amal qilmoqdalar. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Respublika rassomlik kollejining lakli miniatura bo'limining bitiruvchilari Anvar Isroilov, Jaloliddin Ashrapov, Shoilhom

Shoyoqubov, Rasul Po'latov, Abdulla Nazirov, Shorasul Shoahmedov, Kamoliddin Mirzayevlar shular jumlasidandir. Ularning ayrimlari «Usto» ijodiy birlashmasida, boshqalari «Hunarmand» uyushmasida mehnat qilishadi, yana birovlari erkin ijod bilan mashg'ul. Ijodkorlarning Abulqosim madrasasida joylashgan hujralari shinamligi, ularda saf tortib turgan tayyor qutichalar, qadimgi qog'ozlarga solingan chizmalar, kitoblar, badiiy materiallar diqqat-e'tiborni tortadi. Ehtimol, qo'lyozma kitoblar ustida ko'z nurini to'kkan o'rta asrlardagi musavvir ustalarni ham ana shunga o'xshagan ijodiy muhit o'rab turgan bo'lsa, ne ajab: bu yerda nihoyatda sokin va osoyishta ruhiyat hamda orzu-niyatlar hukm suradi. Bu rassomlar hali yosh bo'lishlariga qaramay, ularning har biri o'z shogirdlariga ega. Badiiy an'analarning davomiyligi, Sharqdagi ta'lim shakllaridan birining o'ziga xos xususiyatlari ham ana shunda namoyon bo'ladi. Yosh miniaturachilar asarlarida Sharq miniatyrasining badiiy-uslubiy o'ziga xos xususiyatlari: tasvirning majoziyligi, ranglarning bezakbopligi, suratlardagi nafosat, ijroning puxtaligi saqlab kelinmoqda. Yosh ustalar toshqog'ozni tayyorlashning qadimiy uslubini saqlab qolgan holda, faqat tabiiy bo'yoq kukunlarga tuxum sarig'ini qo'shib ishlatishmoqda. O'rta asrlardagi miniaturachi rassomlar ko'pincha qoliplardan foydalanishgan, vaqti kelib o'z kompozitsiyalarini yaratish maqsadida uzoq vaqt davomida mashhur ustalarning rasmlaridagi ayrim unsurlardan nusxa olishgan. Lakli miniatura janrida ishlayotgan hozirgi yosh rassomlar ham o'z amaliyotlarida ana shu tamoyilni qo'llashmoqda. Ular miniatyraning badiiy qonun-qoidalarini avaylab saqlagan holda tarixiy va zamonaviy mavzularda mualliflik kompozitsiyalarini yaratishmoqda. Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiyniing «Xamsa», Jomiyning «Yusuf va Zulayho», Navoiyniing «Xamsa» dostonlari va boshqa tarixiy-adabiy manbalar qahramonlari yosh ustalarning lakli naqshlarida yana qayta gavdalanmoqda. O'zbekistonning hozirgi san'atida miniatura oddiy bir tur bo'lmay, balki lakli miniatura, devoriy naqshlar, mato va charmdagi miniatyrani o'z ichiga oladigan keng qamrovli badiiy-uslubiy yo'nalishdir. Bugungi kunda miniatura san'ati aynan ravnaq pallasidadir, miniatyrachi rassomlar doirasi kengayib, asarlarida badiiylik yuksalib bormoqda.

ODDIY NAQSH NAMUNALARINI QALAMDA VA RANGDA ISHLASH

Oddiy naqsh namunalarini qalamda va rangda ishlashdan oldin o'quvchilarni naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom ashyolar bilan tanishtiriladi. Ustaxonalarni tashkil etish, jihozlash, ish qurollari, qadimiy va zamonaviy ashyolar bilan ishlash uslubi haqida tushunchalar beriladi. Qog'oz turlari, vatman, yarim vatman, qizil, ko'k va oq o'chirg'ichlar, qalam turlari, chizg'ichlar, pargor va mo'yqalamlar, bo'yoqlar, politra, ish korjomasi va boshqalar bilan tanishtiriladi. Qalamni to'g'ri ochish va katak daftarda har xil qalinlikda to'g'ri chiziqlar chizish mashqlari bajariladi. O'simliksimon va ramziy naqsh belgilarini chizish geometriyasi, naqsh va uning turlari haqida tushunchalar beriladi. Naqsh belgilarini tabiatdan qayta ishlab olish va kompozitsiyalar hosil qilish, naqsh kompozitsiyasida kompanovka, simmetriya va assimetriya, ritm, stilizatsiya, shakllarni teng qismlarga bo'lish, dinamika haqida o'quvchilarga to'liq tushunchalar beriladi. Har xil chiziqlarni ko'z bilan chamalab teng bo'laklarga bo'lishni va ularni chizishni o'rganish yo'llari tushuntiriladi. O'simliksimon naqsh belgilari barglar, gullar, g'uncha, marg'ula, tanob, shukufta, shuningdek, ramziy naqsh belgilari va boshqalarni chizishni mashq qilishadi.

Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish. Kompozitsiya asoslari va dastlabki tushunchasini to'liq o'zlashtirgan o'quvchi endi oddiy naqsh namunalarini hosil qilish geometriyasi va ularni chizish qonun-qoidalari bilan tanishadi. Oddiy naqsh namunalari quyidagi bosqichda qalamda bajariladi. 1-mashq. Bodom gul (1-gul), 2-mashq. Yak raftor (2-gul), 3-mashq. Bargli raftor islimi (3-gul), 4-mashq. Bargli islimi (4-gul), 5-mashq. Aylana shukuftli islimi (5-gul), 6-mashq. Mehrob islimi (6-gul), 7-mashq. Islimi bofta (7-gul), 8-mashq. Qo'sh mehrobli islimi (8-gul), 9-mashq. Patnisgul islimi (9-gul), 10-mashq. Islimi shukufta (10-gul). Oddiy naqsh namunalarini katak daftarda qalamda chizish mashq qilingandan so'ng albomga chiziladi.

Shakllarni teng qismlarga bo'lish. Shakllarni teng qismlarga bo'lish xuddi markaz topish kabi katta ahamiyatga egadir. Chunki shakllar to'g'ri qilib teng qismlarga bo'linsa, kompozitsiyadagi simmetriya, ritm buzilmay shakl nafis bir tekis harakatda chiroyli chiqadi. Bundan tashqari chizilayotgan naqsh yoki shaklning bir qismi chizilib, qolgan qismiga esa nusxa ko'chirish orqali chiziladi.

Kompozitsiyada marom (ritm). Marom tartibi umumiy yoki shaklning qurilishi boshqa munosabatlardan ham tarkib topishi mumkin. (Nyuans, kontrast) oddiy va irratsional, shuningdek mutanosib munosabatlar belgilari, aniqroq qilib aytganda marom, shakl va ular oralig'ining birin-ketin chiziqli joylashuvi o'rnida yuzaga keladi. Buyumlarning umumiylikda jo'ngina maromlik joylashuvining oddiy ko'rinishi o'lchamda tartibdir. Shakllar qurilishining maromiy tartibi qismlarning tengligini ifoda qiladi (yoki ularning tashqi jihat xususiyatlari yoki joylashuv mutanosibligi). Masalan, dumaloq yoki uchburchak yuzalarning hajmi tomonlari bir-biriga o'xshaydi va dumaloq shar markazidan bir xil masofada joylashtirilgan, uchburchakda esa qurilishiga binoan amalga oshirilgan. Marom munosabat o'rnida yuzaga kelib, birinchidan, maromli qatorlarning turli ko'rinishlarida shaklning jamlanish umumiyliги buyumlarning bir qismidan tarkib topib, ikkinchidan, shaklning maromli qurilishining turli ko'rinishlarida buyumning butunligi yoki bir bo'lagi, shaklni tashkil qiluvchi qismlardan tarkib topishi tartibini tashkil etadi. Birinchi yo'nalishda mustaqil ko'rinishga ega buyumlarning nogahon bog'liqligini ilg'aymiz, ikkinchi yo'nalishda hajm va joylashish o'rni jihatidagi qismlarining o'zgarishini unchalik bilinmaydigan, sezilmaydigan to'g'riburchak tomonlaridan bilish mumkin. Sodda qilib aytganda, ritm – naqsh belgilarini ma'lum masofada bir tekis takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatlarning uzluksiz ko'rinishini ta'minlaydi.

Mutanosiblik-proporsiya. Kompozitsiyalar tuzishda keng atroflilik va mutanosiblik uslublarining qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni yagona va yaxlitlikka jamlash belgilar muqobilligi (tomon, balandlik) bilan bog'liq bo'ladi. Belgilar jussasi va shaklning mutanosibligi jismning sifat tomonlari, uning qimmatini belgilovchi vazifalarini ifodalashi mumkin. Masalan, qog'ozning hajmi va mutanosibligi (30x20 sm) talabalarga monand, eng muhim tanlov natijasida shakllangan. Birinchidan, bunday hajmdagi varaq aniq ko'rinish maydonidadir. Ikkinchidan, unda shunday matn hajmi joylashadiki, u yozishmalarning odatiy tus olgan shakllarini jamlashga mo'ljallangan. Uchinchidan, qog'ozning yuqoriga qaratilgan qismi mashinkalashning davomiyligiga mos keladi. Bundan tashqari qog'ozning tuzilishi o'qish va olib qo'yish uchun qulay va papka-portfellarda tashishga moslashtirilgan. Aytish mumkinki, uning hajm mutanosibligi yaxshi o'ylab topilgan bo'lib, unga o'rganib qolganmiz. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki,

asbob yoki mahsulot vazifasi ma'lum bir matematik munosabatlarda ko'rinadi, u mutanosib qurilmada aks etib, ma'lum bir estetik ta'sir vositasiga egadir. Shuning uchun mutanosiblik shakllarini uning mazmunidan ajratish mumkin emas (jism yoki narsalarning o'zaro belgisi). Buyumning biror o'lchami – umum tizimining tarkibiy qismi yoki monandligini shakllanish shartlariga binoan yuzaga keladi hamda turlicha sodda ratsional va mutanosib munosabatlarni qamraydi. Mutanosiblikni solishtirish chog'ida ko'zimizda o'z nigohiy harakati bilan uch o'qli o'lchamni ilg'aydi. Solishtirishning bu ko'rinishida buyum qismining faqat shakl va ulug'vorligini ilg'amay, ularning matematik bog'liqligini, moddalarning vaqtli farqi aniqlanadi. Ko'p qismli shakllarning mutanosib qurilish tarkibini o'zlashtirar ekanmiz, ko'zimiz bir vaqtning o'zida shakllar turlichaligini, ma'lum birgalikda ularning joylashishi, fanlarning kelib chiqish tizimi, farqni vaqt jihatidan belgilarining davomiyligini, uning birgalikda joylashish aniqligini, narsa xususiyatidan chiqishini o'rganadi. Shunga binoan inson narsa-buyumlarning ishlatilish farqini anglaydi. Buyumlarning murakkablik shakllariga ko'ra ularning ko'rinishini baholash chog'ida har tomonlama xulosalanib yoki ayrim xususiyatlariga ko'ra foydalaniladi. Oddiy shakllarning soyasini anglaganimizda, masalan, to'g'ri to'rtburchakli, to'g'ri burchakli yoki ularga yaqinroq shakl solishtirilganda, ularning farqlari, munosabati quyidagicha yuzaga keladi:

a) shakllarning chegaralari uning umum ko'rinish mezonini munosabatini eslash hisobiga qabul qilinadi (farq);

b) shakl hajmi boshqa belgiga yoki qog'ozga munosabatiga e'tiboran o'rnatiladi (sodda munosabat);

d) tomonlarning munosabati o'rnatiladi, ularning kattaligi va rivojlanishi ikki o'qlariga ko'ra o'lchanadi;

e) bir xil yoki yaqin belgilar topiladi, tomonlar yoki qirralar;

f) buyumning hamma tomonlarining baravarlik munosabatiga ko'ra belgilanib, shular natijasida yuzaga kelgan chizma tasvir konturga ko'ra (metr yoki marom).

Tabiiyki, qabul qilish jarayoni shu jihatlarga ko'ra davomiyligi bilan qaror topadi. Ammo birinchi darajada buyum o'rganilib, rasmning soyasi yaqqol ko'zga tashlanadigan tomonlar bo'rtib, turli munosabatlariga ko'ra shakllanadi. Bu murakkabroq shakllarga ham farqlanadi. Masalan, turarjoy binosini ajratadigan umumsoya (tomonlari munosabati) va oynaning turi misoliga olish mumkin.

Kontrast (farq). Kontrast mahsulot detallari xususiyatini muqobillashtiruvchi vosita bo'lib, tarkiblar badiiy qimmatini funksional mosligiga ta'sir qiluvchi kompozitsiya shartiga ko'ra yuzaga keladi. Kontrast solishtirishning soddaroq, keskin farqlarini, tashqi ko'rinishdagi o'ziga xos belgilarni aniqlaydi. Kontrast xususiyatlarini baholashda buyumlarni solishtirish jarayonida kattaligi, joylashish ko'rinishiga ko'ra tasvirlanadigan shakl o'rnida taqdim qilinishi mumkin. Solishtirish jarayonining ayrim o'lchamida kontrast ko'z harakati bilan aniqlanadi. To'g'ri chiziqqa yaqini maydoniga ko'ra solishtirishda hajmi sikl umumiy farqlovchi natija bo'lib ko'rinadi. Birinchi navbatda, tasvirning umumlovchi natijasi bo'lib yuzaga keladi. Shakllarni aniqlashda kontrastli munosabat tasvir chiziqlarini nigoj bilan solishtirish natijasida ta'sir etadi, rang farqini ajratish tanlangan joy xususiyatiga ko'ra ajrim bo'ladi.

Farqlanish munosabatlari tashqi ehtiyojlarning barcha belgilariga ko'ra solishtirilganda birinchi taassurot boshqa munosabatlardan farq qiladi. Kontrast belgisi yorug'lik ko'zimizga tushishi bilan aniqlanadi. Qiyoslanuvchi ranglar yoritilgandan so'ng, elektr uchquni yorug'ligi ta'siri natijasida seziladi. Jilo buyumlarning tashqi ko'rinishi va kattaligi uning yaxshi xususiyatlaridan biridir va rangi, chizmatasvir, jussasi joylashishidan yuzaga keladi. Bu bir xil zaruratli buyumlarni bilishda ko'pincha qo'l keladi. Jilo – solishtirishning murakkablashgan jarayoni bo'lib, ko'zning bir qator harakatlaridan tashkil topadi. Kattalikning jiloli xususiyati shakli, yuzi, ko'z harakatlari umumiydan yuzaga kelgan arzimagan farqlari bilan ajralib turadi. Ranglar orqali jilolash, arzimagan qo'zg'atishlar orqali ham his etiladi. Murakkabroq jiloli shakllar yuzaga kelishi, shu jumladan, o'rnashganligi va uning qurilishidagi egallangan o'rni ham yuzaga keladi.

Nyuans. Solishtirilayotgan jismlarning katta-kichikligi, chizmatasviri, rangi, hajmi, joylashishi, tashqi ko'rinishidagi yaqin xususiyatlar nyuans deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nyuans ko'zning bir qator takroriy harakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir. Jismning nyuans xususiyati buyumning katta-kichikligi, shakli, sathi va tavsifi tizimidagi arzimagan farq, ko'zning takror harakatidan sinchkovlik bilan umumlikda seziladi. Ranglardagi nyuans olinadigan sinchkovlik ta'siri ostida arzimagan farqni sezishda bilinadi. Shakldagi nyuansni sezish, shu jumladan, uning hajmiy va fazoviy qurilish nyuans ham eng murakkab hisoblanadi.

ODDIY NAQSH NAMUNALARINI BO'YASH

Rangshunoslik va bo'yoqlar bilan ishlash. O'quvchilar bo'yoq va uning turlari bilan tanishtiriladi. Qadimda bo'yoq tayyorlash usuli pigment, akvarel, guash, mineral bo'yoq va uning turlari, moy bo'yoqlarni ishlatish va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Mo'yqalam turlari va ularni o'z o'rnida ishlatish o'rgatiladi. Guashda oddiy mashqlar bajariladi. Ranglarni turlash, yuzani tekis bo'yashni yaxshilab o'rganish, albomda bir qancha mashqlar bajarish, oddiy naqsh namunalarini bo'yash usullari, ranglarning uyg'unligi koloriti haqida tushuncha beriladi. Ranglarning har bir naqsh kompozitsiyasiga moslab tanlanishi, naqqoshlar Yoqubjon Raufov, Abdulla Boltayev, Olimjon Qosimov, Jalil Hakimov, Saidmahmud Norqo'ziyev, Anvar Ilhomovlar ijodi va naqshlarining bo'yalishi bilan tanishtiriladi. Naqshlarning yaxshi bo'yalmaslik sabablari hamda naqsh namunalarini bo'yash bosqichlari bilan to'liq tanishtiriladi. Naqsh zaminini bo'yash, uning bandlari va gullarini rang berib turlash, barg va gullariga targ'il berish, agar naqshda oq band bo'lsa, ularni tortish, naqshning obisini tortish bilan tanishtiriladi. Avvalgi mashg'ulotlarda chizgan naqshlar namunalari zamini ranglarda ishlanadi. Bajarilgan ishlar yakunlanadi, o'quvchilarga kelgusida mustaqil ishlashga maslahatlar va ko'rsatmalar beriladi.

Oddiy naqsh namunalarining band, gullarini bo'yash va ularga targ'il berish. O'quvchilarga oddiy naqsh namunalarini band va gullariga moslab rang tayyorlash va ularni bo'yash o'rgatiladi. Ranglarni uyg'un va monand chiqishi kuzatib boriladi. Oddiy naqsh namunalari bodom guli, yak raftor, bargli raftor islimi, bargli islimi, aylana shukufta islimi, mehrob islimi, islimi bofta, qo'sh mehrobli islimi, patnigul islimi va shkiptli islimilarning band va gullarini bo'yash o'rgatiladi. Targ'il pardoz berishning bir turi ekani haqida tushunchalar beriladi. Targ'il gul va barglarning o'zidagi soyasi, targ'il berishdagi dastlabki mashqlar, turlari va o'ziga xos tomonlari o'rgatiladi. Albom varag'ida targ'il berishning boshlang'ich, sodda mashqlari, oddiy naqsh namunalarining gullariga, barglariga va g'unchalariga targ'il berish amaliy mashqlarda bajariladi.

Oddiy naqsh namunalarining oq bandlar va obisini tortish. Naqsh namunalarining oq bandlari va uning turlari, oq bandlar tortishning o'ziga xos qonun-qoidalari bilan tanishish, oddiy naqsh namunalarining oq bandlarini tortish bosqichlarini kuzatib borish,

oddiy naqsh namunalariga oq band tortish, obi va uning turlari, obi tortishning qonun-qoidalarini o'rganiladi. Obi uchun koller tayyorlash, ustalarning ishlarini tahlil qilish, oddiy naqsh namunalarining obisini tortishni mashq qilish.

AYLANA VA BOSHQA KO'P BURCHAK YUZALARIGA NAQSH YOKI MINIATURA KOMPOZITSIYASI ISHLASH

Kompozitsiya so'zi lotincha «composito» so'zidan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil belgilarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g'oyani madh etish ma'nosini bildiradi. Kompozitsiya – san'atning barcha yo'nalishida qo'llaniladi. Dizayn va amaliy san'atda u loyihalash deb ataladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san'at asarini yaratadi. Kompozitsiyalar yaratish uchun, albatta, kompanovkaga, simmetriya va assimetriyaga, ritm, stilizatsiya, markazni topish, shakllarni to'g'ri, teng taqsimlashga, yorug'liklarni nur va soyaga, rangshunoslik qonun va qoidasiga to'liq rioya qilish lozim. Tabiatda va hayotimizda kompozitsiyaning roli, naqsh va miniaturada davriy takrorlanish, bezakning dinamikligi, simmetrikligi va markazini topish, naqshlarning erkinligi, nafisligi, ranglar uyg'unligi kabilarni aniqlash haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi. Kompozitsiya tuzish metodikasi, kompozitsiyada naqsh belgilaridan foydalanish yo'llari, tabiat va voqelikni kompozitsiyada aks ettirish, kompozitsiyaga nom qo'yish, me'moriy yodgorliklarga borish va u yerda ustalarning naqsh kompozitsiyasini tahlil qilish kabi bosqichlarni amalda bajaradilar. Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish va ranglarda bo'yash vazifalarini to'liq bajargan o'quvchi, keyingi bosqichdagi vazifa aylana va boshqa ko'p burchak yuzalariga naqsh yoki miniaturalar kompozitsiyalarini ishlash bosqichiga o'tadi. O'quvchi oldingi darslarda olgan bilimi asosida, oddiy naqsh namunalari bodom guli, islimi yak raftor, bargli raftor islimi, bargli islimi, aylana shukufat islimi, mehrob islimi, islimi bofta, qo'sh mehrobli islimi, islimi patnigul, islimi shukufat naqsh namunalari ishtirokida mustaqil yangi kompozitsiya chizadilar. Uch, to'rt va ko'p burchak, aylana shakliga qonun-qoidalariga asosan o'quvchilar oddiy va murakkab naqsh kompozitsiya loyihalarini yaratibgina qolmay, sodda ko'rinishdagi miniatura kompozitsiyalarini ham yaratadilar.

Teng yonli uchburchak. Teng tomonli uchburchakni chizish uchun dastlab pargor yordamida doira shaklini chizib, uni markaziy nuqtasidan o'q chiziq o'tkazilib, doira shakli uchga bo'linib nuqtalari bir-biriga tutashtiriladi va markazi aniqlanadi. Markazdan uchburchak tomonlarining o'rta nuqtasi topilib burchak nuqtasi bilan tutashtiriladi va uch bo'lakka bo'linadi. Hosil bo'lgan maydonchaga islimiy naqsh yoki miniatura kompozitsiyasi chiziladi. Kompozitsiya o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqqa mos bo'lishi kerak. Uchburchak ichidagi naqsh, assimetrik, simmetrik naqshlarni chizish bosqichlarini o'rganish, naqshdagi tabiiylik, ularga o'ziga xos ranglar berishni o'rganish, o'simliksimon naqsh belgilaridan foydalanib, uchburchak naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ularni bo'yash kabi amallar bajariladi.

To'rtburchak ichidagi naqsh kompozitsiyasini tuzish va bo'yash. Eng avvalo o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq asosida amalga oshiriladi. Teng tomonli to'rtburchakning ramziy ma'nosi dunyoning to'rt tomoni, osmon, saroy, quyosh, farzand, abadiy ishonch, xotirjamlik, mustahkamlik ma'nosini bildiradi. To'rtburchak shakllari hajmidan kelib chiqib doira chiziladi va uni to'rt nuqtaga bo'lib bir-biri bilan nuqtalari tutashtiriladi. Tutashtirish natijasida markaziy nuqtasi belgilanib to'rt bo'lakka bo'linadi. Har bir bo'lagiga band kurtak, g'uncha, gul, bofta, shkifta, banob va boshqa bo'laklardan foydalanib oddiy va murakkab ko'rinishda kompozitsiyalar chiziladi. Teng yonli to'rtburchak tomonlarining hajmi 5-10 sm bo'lishi hamda teng yonli kvadrat ichiga naqsh chizishda kvadrat o'q chiziqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. To'rtburchak ichiga naqsh chizishda berilgan hajmning burchaklarini topishda doira aylana shaklidan foydalaniladi. To'rtburchak yuzasiga moslab naqsh chiziladigan kompozitsiyalar va ularning turlari haqida umumiy tushuncha berish, uni tuzish qonun-qoidalari, naqsh belgilari yordamida to'rtburchak yuzasidagi naqsh kompozitsiyasini tuzish, ustalarning ishlarini tahlil qilish, tuzilgan kompozitsiyani bo'yash va unga pardozi berish o'rgatiladi. To'rtburchak ichida naqsh kompozitsiyasini tuzish va bo'yashni mashq qiladilar.

Aylana ichida naqsh tuzish va bo'yash. O'quvchilarga aylana ichiga naqsh kompozitsiyalar chizish va ularning turlari haqida ma'lumotlar beriladi. Unga moslab naqsh kompozitsiyasini chizish yo'llari va ularning o'ziga moslab bo'yash usuli o'rgatiladi.

Geometrik naqshlar. Gulli girih. Girih va uning tarixi, girih kompozitsiya ustalari haqida ma'lumotlar beriladi. Girih turlari, belgilari, to'rtburchaklar, uchburchaklar, ko'pburchaklar va egri

chiziqlar, girih belgilaridan kompozitsiyalar tuzish yo'llari, girih kompozitsiyalarini ishlash va bo'yash yo'llari tushuntiriladi. Gulli girih va uning turlari, gulli girih tuzish bosqichlari, har xil kompozitsiyalar tuzish va bo'yash, gulli girih kompozitsiyalarini tuzish va ularni bo'yash bosqichlari o'quvchilarga o'rgatiladi.

Munabbat naqshi, turunj, namoyon va uning turlari. Munabbat to'rt tomonga takrorlanadigan naqshi va ularning turlari o'rganiladi. Naqqosh ustalarning munabbat naqshlari tahlil qilinadi. Geometrik, gulli girih va o'simliksimon munabbat naqshlar chizish o'rgatiladi. Munabbat naqsh tuzish bosqichlari va ularni bo'yash yo'llarini o'rganish, munabbat naqsh kompozitsiyalari tuzish va ularni bo'yash haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi.

Turunj haqida tushuncha berish. Turunj Markaziy Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lgan qadimiy naqsh turidir. O'quvchilarga turunj va uning turlari, geometrik gulli girihli va o'simliksimon turunjlar, turunj naqsh kompozitsiyasini tuzish va uni bo'yash haqida ma'lumotlar beriladi.

Namoyon. Uning lug'aviy ma'nosi hamda kelib chiqish tarixi, namoyon turlari, o'simliksimon, gulli girihli, geometrik va boshqa namoyonlar, murakkab namoyon kompozitsiyasini tuzish va uni bo'yashni o'rganish qoidalari o'rgatiladi.

SHARQ MINIATURA MAKTABLARI

Arab miniatura maktabi jahon madaniyati taraqqiyoti tarixida Sharqiy Arabiston xalqlari san'atining ham muhim o'rni bo'lib, ular keyingi avlodlarga qadim yunon-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan holda yetkazib keldilar.

IX-XIII asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va O'rta Osiyo xalqlari bir-birlari bilan uzviy aloqada bo'lib kelgan. Bog'dod, Sheroz, Tabriz, Samarqand kabi shaharlar madaniyat va taraqqiyotning markazi bo'lib, o'zlarining ko'zga ko'ringan olimlari, shoirlari hamda fan va madaniyat o'choqlari bilan butun dunyoga tanilgan edi. Bu shaharlarda matematika va astronomiya, falsafa va tibbiyot, geografiya va badiiy adabiyot, me'morchilik va hunarmandchilik o'zining yuqori rivojlanish bosqichiga erishgan. Uning o'rnini esa qo'lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar – miniatura san'ati egalladi. Miniaturaning yuzaga kelishi va rivojlanishi, arab tilida badiiy

adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimda Sharqda ilmu ma'rifat manbai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatura – kalligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo'lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ belgilaridan birini tashkil qiladi. Miniaturaning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va umuman olganda, dunyoviy xarakterga ega bo'lgan asarlarni bezashdan iborat bo'lgan. Asosan, proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatura ishlangan. Ular orasida «Kalila va Dimna» hikoyalari, yunon vrachi Dioskoridning «Farmakologiya», Rashiddinning «Jam'iut tavorix» asarlari bor edi. O'rta asr qo'lyozmalari faqat guash bo'yoqlari bilan ishlangan. Bu bo'yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda Markaziy Osiyo orqali Xitoydan o'tgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir bo'lib turgan bosqinchilik urushlari tufayli ilk arab miniaturalari deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelgan arab miniaturachilarining asarlari ham asosan XIII asrga taalluqlidir. Hozirgi vaqtga kelib arab miniaturalarini o'rganuvchi mutaxassislar qo'lyozmalarni bezashning 3 ta davri va hududiy, badiiy markazi mavjud ekanligini e'tirof etadi. Bular fotimiylar sulolasi davri (X-XI asrlar), Suriya (XIII asrning birinchi yarmi) va Iroq (XIII asr) miniatura maktablaridir. Bularning markazlari Mosul, Bog'dod va Vosit shaharlarida bo'lgan. Shartlilik va dekorativlik prinsiplari asosida qurilgan, o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan arab miniaturalari o'rta asr Sharq rangtasviri sifatida o'zining takrorlanmas obrazli badiiy tiliga egadir. Miniaturalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, tasvirining sathi yuzidaligidir. Bu xususiyat qo'lyozmaning dekorativ uslubi, serhasham ziynatlar, shams, lavhalar, zarvaraq va boshqa bezaklari kabi kitobning ziynatlari, uning tuzilishi xarakteridan kelib chiqqan. Bizga ma'lum bo'lgan ilk arab miniaturalari fotimiylar sulolasi davrida ishlangan bo'lib, XI asrga taalluqlidir. Ohorlangan qog'ozga ishlangan odamlar qiyofasi, xatti-harakatlari sodda va yaxlit holda tasvirlangan. Suriya qo'lyozmalari bo'lmish Dioskoridning «Farmakologiya»si, «Kalila va Dimna» asarlariga ishlangan bezaklar XIII asrning boshlari va o'rtalarida arab miniaturasida Vizantiya va sosoniylar (qadimgi Eron) san'atining kuchli ta'siriga qaramasdan yangi bir bosqichni boshlab beradi. Ba'zi qo'lyozmalarda XIII asrning birinchi yarmidagi «Muxtor al-hakim va Muhassin al-Kalim» (Al-Muboshirning «Tanlab olingan dono

fikrlar va so'zlovchining go'zalligi») asari qo'lyozmasidagi rasmlar manzara tasviri yoki me'morchilik ko'rinishlari bilan boyitilgan. Kishilar qiyofasining tasvirida tabiiylikka intilgan. Kiyimlarning buklanganligi tasvirlangan. Arab kitob bezakchiligining ravnaq topish davrini Iroq miniatura maktabi boshlab berdi. 1224-yilda Bog'dodda Abdulloh ibn Fadl tomonidan ko'chirib olingan Dioskoridning «Farmakologiya» asari qo'lyozmasi ana shu maktabga taalluqlidir. Bu qo'lyozmaning bezagini ham Abdulloh ibn Fadl ishlagan deb tan olingan. «Farmakologiya» asaridagi miniaturalar ham boshqa asarlardagi kabi matnni tushuntirib beradigan uslubda lo'nda qilib tasvirlangan. Mana shu ma'noda tozalagichlarning qurilishini tushuntirayotgan Dioskoridni tasvirlovchi miniatura diqqatga sazovordir. Miniatura aniq chiziqlar orqali ko'rsatilgan va yorqin ranglarda ishlangan, katta qomat va buyumlar ko'rinib turgan matnlar orasidagi sahifalarning sariq fonida aks etgan. Iroq miniatura maktabining eng ajoyib asarlaridan biri Al-Haririyning Abu Zayd as-Sarudjining (o'rta asrlardagi Nasriddin Afandining prototipi) boshidan kechirganlarini tasvirlab beruvchi «Maqom» asariga ishlangan illustratsiyalardir.

«Maqom» asarining ikkita ajoyib qo'lyozmasi Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida (S-23, 1230-y.) va Parijdagi Milliy kutubxonada (1237-y. Achave № 5847) saqlanmoqda. Parijda saqlanayotgan asarning miniaturalarini Vositli Yahyo ibn Mahmud ishlagan. Al-Haririyning «Maqom» asariga ishlangan miniaturalar sujetning ko'pligi va xilma-xilligi bilan kishini lol qoldiradi. Bular, bozordagi masjid, qozixonadagi ko'rinishlar, shodiyona ziyofatlar, qabul qilish marosimi, afsonaviy voqealar, hayvonlarning ajoyib tasvirlari bo'lib, hayotiy voqeaning butun mavjud boyliklarini ikkala rassom ham turli harakatlar orqali chizishgan. Rassomlar asardagi me'morchilik tasviriga alohida e'tibor beradilar. Bu rasmdagi shiftan pastga osilib tushgan ulkan chiroqlari bor masjid ko'rinishi va u bilan yonma-yon turgan minora tasvirida ko'zga yaqqol tashlanadi. O'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan hovlilar, go'yo bu hovlining devori olib tashlanganu, tomoshabin uning ichini ko'rib turgandek. Umumiy ko'rinish odati bir yoki ikki xil bo'lgan arkni tutib turgan nozik ustunlar orqali bo'lingan. Shu bo'linmalarining birida ikkinchi qavatga olib boradigan zinapoya tasviri ham uchraydi. Uning yonida esa, yo'lakda ulkan minora joylashgan. Bu minora binoning oldi ko'rinishini ifodalaydi. Bir bo'shliqda ikkita har xil



yo'nalish (ichki va tashqi)ni uyg'unlashtirgan miniaturachi me'morchilik qurilishini tasvirlashda katta yutuqqa erishgan. Manzarani tasvirlashda esa, Al-Haririyning asarlarini bezovchilar ramziy ifoda vositalaridan keng foydalanganlar. Bunga miniaturaning pastki qismidagi ko'm-ko'k yashnab turgan o'tloq tasviri tushirilgan torgina yo'l yoki ekzotika o'simliklar va daraxtlar tasviri tushirilgan uncha baland bo'lmagan tepaliklar misol bo'ladi.

«Maqom» asarida hayvonlar, tuyalar juda jonli qilib tasvirlangan. Parijda saqlanayotgan Yahyo ibn Mahmud asaridagi «Tuyalar karvoni» miniaturasida o'tlayotgan pada ifoda etilgan. Hayvonlardan biri uzun bo'yini cho'zib o'tayotgan bo'lsa, boshqalari boshlarini tik ko'targan holda turishibdi. Bir-birlarining orqasidan ketma-ket joylashgan bu hayvonlar rang jihatdan ham bir-biridan farq qiladi. Bu esa rasmdagi ranglar uyg'unligini alohida bo'rttirib ko'rsatadi. Ba'zi miniaturalarda biz arab rassomlarining bitta kenglikda rang-barang kiyim-kechak va bosh kiyimlari bilan ajralib turgan personajlarni katta bir guruh sifatida tasvirlashga uringanliklarini ko'rish mumkin. Bunga misol qilib, Yahyo ibn Mahmudning «Bayram sayli» miniaturasini ko'rishimiz mumkin. Bu miniaturalarda bayroqlar ko'tarib olgan otliqlarning do'mbira, karnay chalib bayram shodiyonasi boshlanganligidan xabar berishayotganliklari aks ettirilgan. Ular barvasta gavdali, qirraburun, ko'zlari ham yirik kishilar qiyofasida tasvirlangan. Ularning ichki dunyosi, harakatlari bir qarashdayoq ko'zga tashlangan holatlari va kiyimlari orqali aks ettirishga harakat qilgan. Ba'zi bir kishilar boshini oltin olov tasviri o'rab turibdi. XII-XIII asrlar arab miniaturalarning obrazli qurilishini «Ming bir kecha» ertaklaridagi mavjud va fantastik, yorqin va ta'sirchan rang-barang lavhalar bilan ham tenglashtiriladi. Arab miniaturalari feodalizm davrining Sharq tarixida kitob bezakchiligining bizgacha ilk ma'lum bo'lgan bir bosqichidir.

ERON MINIATURA MAKTABI

Osiyoda eng yirik davlatlardan hisoblangan Eron insoniyat taraqqiyotning eng qadimgi markazlaridan biridir. Bu yerda necha ming yillar davomida me'morchilik, ulkan qurilishlar va qoyalarga ishlangan monumental relyeflardan tortib, nozik toshdan o'yib ishlangan buyumlar, sopol idishlar va ajoyib miniatURALargacha yaratildi. Eron miniaturasini ko'zdan kechirib chiqishdan avval,

qisqa bo'lsa-da, tarixga nazar tashlash joizdir. VII asrning o'rtalarida Eron arablar tomonidan bosib olinib, arab xalifaligiga qaram bo'lib qoldi. Eron bu qaramlikdan IX-X asrlardagina ozod bo'ldi. Arablar o'zlari bilan yangi islom dinini olib kelishdi. Islom dini mahalliy badiiy an'analarning yo'nalishiga katta ta'sir qiladi: binolarning yangi tipi bo'lmish masjidlarni qurish shart bo'ladi, tasviriy san'atni rivojlantirishni cheklaydi (inson qiyofasini tasvirlashni man qiladi); bezakli naqsh san'atining rivojlanish surati tezlashadi. X asrning boshlarida Eronning sharqiy viloyatlari markaziy osiyoliklar hokimiyati tepasida turgan somoniylarga yon bosadi. Buning oqibatida Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining madaniy aloqalari yo'lga qo'yiladi. X-XIII asrlarda feodalizmning rivojlangan davri – Eron san'atining rivojlanishida eng muhim bosqich bo'ldi. Chunki bu davrda me'morchilikning asosiy shakli, tasviriy san'at, badiiy hunarmandchilik ravnaq topadi. Bu o'zgarishlarning hammasi Eron shu vaqt ichida ikki marta – XI asrda saljuqiy turklari va XIII asrda mo'g'illar tomonidan ayovsiz bosqinchilik yurishiga uchragan og'ir tarixiy davrlarda yuz beradi. Ammo mamlakat uchun eng og'ir bo'lgan paytda ham xalqchil, hayotbaxsh manbalar chinakam san'at asarlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. San'atlar ichida, eng avvalo, Eronning ajoyib she'riyati barq urib rivojlandi. Eron adabiyotidagi mashhur «Shohnoma» dostonining muallifi Abulqosim Firdavsiyning bu borada tutgan o'rnini alohida ta'kidlash lozim. XI-XII asrlar mobaynida faylasuf shoir Umar Xayyomning o'sha davr uchun yangilik bo'lgan chuqur mazmunli ruboiylari dunyoga keladi. XIII-XIV asrlar esa «Guliston» va «Bo'ston» nomli o'lmas asarlar muallifi shayx Sa'diyning nomi bilan mashhur. Ularning asarlari eng mohir xattotlar tomonidan mehr-muhabbat bilan ko'chirib kitob qilingan, ajoyib miniaturalar bilan bezatilgan, qimmatbaho muqovalarga o'ralgan. Eron miniatura san'ati dunyoviy rangtasvirning eng yorqin tarixiy sahifalaridan biridir. Bu san'atning bizgacha yetib kelgan birinchi yodgorliklari XI asr boshlariga taalluqlidir, ammo miniatura janrining sosoniylar davridayoq (III-VII asrlar) mavjud bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Fors miniaturasi kitob illustratsiyasi shaklida yuzaga kelib, to XVI asrgacha ham kitob va qo'lyozma varag'i bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Katta shaharlarda, hukmdorlarning saroylarida, mansabdor shaxslarda kitoblarni ko'chirish va bezatish bilan shug'ullanadigan katta-katta ustaxonalar bo'lgan. Qadimgi Eron

qo'lyozmalari, muqovasining rang-barangligi, nafis yaltiroq qog'ozga yozilgan nasta'liq husnixatining nafisligi, miniaturalarning yorqin bo'yoqlari va naqshin bezaklari hamon kishi diqqatini o'ziga tortib keladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, Eron miniaturasi va undagi matn parchasi orasida o'ziga xos uyg'unlik mavjud. Mineral bo'yoqlar tuxumning oqida yoki o'simlik mumida eritilib ishlatilgan, rasmning ba'zi bir joylariga tilla va kumush suvi yugurtirilgan. Qog'oz va tayyor surat tog' billuri yoki qimmatbaho qizil tosh, aqiq bilan jilolangan. Qo'lyozma kitobning zarvarag'i rang-barang ornamental naqshlar bilan o'ralgan. Sahifalarning hoshiyasi o'simliklarni tasvirlovchi naqshlar va hayvonlar shakli bilan to'ldirilgan bo'lib, oqish rang tilla suvi yoki zarhal bilan qoplangan. Teridan qilingan muqovalar esa tilla qo'shilgan naqshlar bilan zarb qilingan.

Eron miniatura janrining turli davrlardagi rivojlanish jarayonida alohida maktablar tashkil topib, ular har bir davrda eng asosiy yetakchi dargohga aylangan. Masalan, XIV asr oxirida Eron miniatura san'atida Sheroz maktabi yuzaga keladi. Janubiy Eronning bu shahri, mashhur shoirlar Sa'diy va Hofizning vatani bo'lmish Sheroz bir necha asrlar davomida madaniyat va san'at markazi bo'lib kelgan. Mahalliy hukmdorlar homiyligida adabiyot, she'riyat va rangtasvir san'ati barq urib rivojlandi. 1370-yilda «Shohnoma» asariga ishlangan illustratsiya (Istambul, To'pqupu muzeyi) Sheroz miniaturasining ilk namunasi. Bu asar kompozitsiyasining juda ham soddaligi – bir oz primitivlik, manzara fonlarining rivojlanmaganligi, bo'yoqlar uyg'unligining sustligidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan, Sheroz maktabining ilk miniaturalarida biz aniq, lo'nda va ayni paytda o'ta soddalikni ko'ramiz.

Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida XIV asrning ikkinchi yarmiga tegishli Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa» asari qo'lyozmasi saqlanmoqda. Bu asardagi illustratsiyalarda lirik sujetlar asosiy o'rinda turadi. Yuqorida aytib o'tilgan «Shohnoma» miniaturalariga yaqin bo'lishiga qaramasdan, bu yerda uslubning ancha yetukligi ko'zga tashlanadi. Kam figurali kompozitsiyalar rang jihatdan juda go'zal bo'lib, chiziqlar va ranglar mutanosiblikda ritmik uyg'unlikka ega, nafislik bilan soddalik uzviy bog'lanib ketgan. Boshlang'ich Sheroz maktabi uchun xos yana bir xususiyat ko'zga yaqqol tashlanib turadi: bu manzara asar yaratishga kuchli qiziqishdir. Bu yerda manzara tasviriga birinchi marta katta e'tibor berilganini, uning aniqlashtirilganini ko'rish mumkin. XV asrning birinchi yarmida Sherozda kitob san'ati

yuksak darajada rivojlangan edi. Miniaturaning badiiy tili boyib, yetuklikka erisha boshlagandi. XIV asrning boshlaridagi asarlar ichida 1410 va 1420-yillardagi «Fors she'riyati majmuasi» (Gulbenkan majmuasi, Lissabon) va 1425-yildagi «Shohnoma» (Bodlee kutubxonasi, Oksford) qo'lyozmalari birmuncha qiziqarlidir. Sheroz hokimi Iskandar Sulton uchun yaratilgan «Majmua» miniaturalarda Nizomiy dostonidagi bosh qahramon Xusravning murakkab obrazi ikki jihatda yorqin tasvirlangan. Xusrav – botir va jasur qahramon, shu bilan birga ayshu ishratga, kayfu safoga berilgan beg'am hokim. Ammo, afsuski, noma'lum rassom tomonidan yaratilgan bu asarda obrazning hamma qirralari to'la ochib berilmagan bo'lsada, dostonning hissiy ruhiga birmuncha yaqinlashgan.

Bu davrning Sheroz miniatyurasiga xos xususiyatlari, ayniqsa, «Shohnoma» illustratsiyalarida yorqin o'z ifodasini topgan. Predmetlarning tasviri lo'nda va sodda berilgan. Chizgilar odamlar va hayvonlar harakatini juda aniq aks ettirgan. Manzara, odamlar, hayvonlar, predmetlar juda tabiiy joylashgan zarur muhit tasviriga aylangan. XV asr o'rtalariga kelib Sheroz maktabi o'zining rivojlanishi jihatidan boshqa miniatura maktablaridan, ayniqsa, Hirot maktabidan sezilarli darajada orqada qola boshladi. O'sha davrda fan va san'at ixlosmandlariga homiylik qila boshlagan Sulton Husayn va shu yerda yashab, ijod qilayotgan shoir Alisher Navoiy Eronning eng yaxshi san'at namoyandalarini Hirotga jalb etadilar. 1519-yil Hirotida Jomiyning «Oltin zanjir» dostoni xattot Mir Ali al-Husayn tomonidan ko'chirilgan. Ammo asarni bezab turgan ikki miniatura esa, keyinroq XVI asrning 50-60-yillarida o'sha paytlarda Ibrohim Mirza (Safaviy) saroyida ochilgan ustaxonada mashhadlik rassom tomonidan ishlangan. XVI asrdan boshlab miniaturalar kitob bilan bog'lanmagan holda, alohida-alohida varaqlarga, «Muraqqa» kabi maxsus albomlarga ishlana boshladi. Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati Davlat muzeyining fondida XVI asrda qozi Ahmad ibn Mir Munishi al-Husayn tomonidan yozilgan «Gulistoni hunar», ya'ni, xattot va rassomlar haqida risola asari saqlanmoqda. Qozi Ahmadning bu risolasi XVI asr Eron rangtasviri tarixining juda qiziqarli manbalaridan biridir. Bu asar muallifning zamondoshlari bo'lmish o'ttiz ikki nafar xattot va rassomlar haqida qiziqarli ma'lumot beradi. Ushbu risolaning qo'lyozmasida sakkizta miniatura berilgan. Bu miniaturalar Eron rangtasvirining yangi badiiy davrini o'zida aks ettirgan bo'lib, ular kompozitsiya jihatdan sodda, personajlar, tasviriga alohida e'tibor berilgan.

XVII asrda Eron rangtasviri, eng avvalo, XVI asr oxirlarida safaviylar poytaxtiga aylangan Isfahon shahri bilan bog'liqdir. Miniaturaning Isfahon maktabi mahalliy maktablarni o'zida birlashtirib, shu davrning yangi badiiy g'oyalarini ifodalab beradi. Isfahon maktabi rassomlarini insonning ichki dunyosini ifodalash qiziqтира boshladi. Manzara belgilari bilan to'ldirilgan portret janri rivojlandi. Miniaturada yorqinlik va ko'pranglilik yo'qola boshladi. Yengil rang berilgan chiziqlar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda Eron miniaturasida birinchi marta Yevropa rangtasviriga xos nur va soya, janrga xos ko'rinishlar, yevropacha libosdagi personajlar yuzaga keldi. Isfahon maktabining asoschilari va yaratuvchilari Og'a Rizo va uning mashhur shogirdi, izdoshi Rizo Abbosiydir. XVII asrning ikkinchi yarmida rassom Ali Quli Jabbor Italiyada ta'lim olgan Muhammad Zamon yetishib chiqdi. Rizo Abbosiy shoh Abbosiy shoh Abbas I saroyida saroy rassomi edi. O'zining zamondoshlari bo'lmish ko'pgina rassomlar singari Rizo Abbosiy ham miniaturalarini alohida varaqlarda ishlagan. Nafis chizgilar, go'zal, tiniq rangtasvir asarlarining mohirona ustasi bo'lgan rassom o'z zamondoshlarining individuallashtirilgan portretlarini yaratishga intilgan. Bu maqsadga erishish uchun rassom naturaga qarab ishlagan, degan fikrda jon bor. Chunki uning inson gavdasi harakatlarini, imo-ishoralari va holatlarini tasvirlaydigan hayotiy lavhalar, eskizlar saqlanib qolgan. Sharq xalqlari san'ati Davlat muzeyida uning 1614-yil deb yozilgan «Chol portreti» asari saqlanmoqda. Ushbu portretida rassom tasvirining yangi tomonlarini izlaydi, obrazning ichki dinamikasini yaqqol gavdalantiradi. Chol obrazi juda xarakterlidir: yelkalarining birmuncha qisilganligi, cho'zinchoq yuzi, ko'z burchaklarida ajinlarning keskin chiziqlari, qalin, qora qoshlar ostidan diqqat bilan qarab turgan ko'zlar...

Rassom chol boshidagi sallaning yengil chiziqlarini, silliq taralgan soqol va mo'ylovlarni aniq tasvirlagan, ifodali chiziqlar vositasida g'oyat hayotiy bir obrazni yaratgan. Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonasida saqlanayotgan Rizo Abbosiyning «Cho'pon» asari ham juda ajoyibdir. Uzoqlarga ziyraklik bilan qarab turgan cho'ponning ma'lum bir ruhiy holatini berishni rassom o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Tayoqqa suyanib turgan cho'pon gavdasining tasviri soddagina bo'lsa ham, ammo diqqat bilan qarashlari uning obrazini kuchaytirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Oldingi oyoqlariga yopishib olgan kuchukcha ko'rinishi ham

aniq tasvirlangan. Bu yerda ham Rizo Abbosiyning boshqa ishlaridagi kabi, naturani izchil kuzatishi yaqqol seziladi. Toshkentdagi O'zbekiston Davlat san'at muzeyida Rizo Abbosiy mo'yqalamiga mansub deb topilgan «Yigit portreti» saqlanmoqda. Manzara fonida loqayd yigitning beso'naqay gavdasi tasvirlangan. Ayrim qismlar Yevropa san'ati ruhi bilan sug'orilgan bu miniatura janrining eski an'anaviy sistemasini yangilash yo'llarini izlash natijasi bo'lib tuyuladi. Isfahon miniatura maktabi asarlarida hayotiy taassurotlarni asar orqali berish, miniatura janrining an'anaviy obrazli sistemasini yangi mazmun bilan boyitishga intilish kabi xarakterli xususiyatlari mavjud edi. Bu miniaturaning dasgohli rangtasvir san'atiga ta'siri yana ham chuqurroq sezila boshladi. Bunga misol qilib, Sharq san'atining dekorativligi va ta'sirchanligini o'zida mujassamlashtirgan, XIX asrning mashhur rassomi Mirza Abul Hasanxon G'afforiy ijodini ko'rsatish mumkin. Bu rassomning taxallusi Soniy ul-Mulk bo'lib, saroyning bosh rassomini «naqqoshboshi» deb atashgan. Soniy ul-Mulk Italiyada ta'lim olgan bo'lib, bu shak-shubhasiz, uning ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Yevropa portret rangtasvirining prinsiplariga amal qilgan holda, rassom chuqur psixologik xarakterlar yaratishga intilgan. Ammo rang masalasida u an'anaviy milliy xususiyatlarni saqlab qolgan. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida rassom Kamol ul-Mulk Eron san'atining shunchalik o'ziga xos va yorqin bir ko'rinishi ediki, uning an'analari, ta'siri hozirgi zamon Eron rassomlarining ijodida ham sezilib turadi. Miniatura, faqat miniaturagina o'z davrining eng jo'shqin g'oyalarini badiiy tasvirlashga intilganligi natijasida amaliy san'atning kulolchilik, to'qimachilik, gilamdo'zlik kabi ko'pgina turlariga ijobiy ta'sir qildi.

QUTICHAGA TABIAT, HAYVONOT OLAMI VA INSON QOMATI AKS ETGAN KOMPOZITSIYALAR ISHLASH

Qutichaga tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash uchun o'quvchilar turli hajmlarda qutichalar tayyorlaydi. Aniq o'lchamga asosan kompozitsiya asoslari qonun-qoidalariga rioya qilgan holda turli eskizlar ishlaydilar. Kompozitsiya eskizlarini ishlashdan avval o'quvchi to'rt bosqichdan iborat materiallar to'playdi. Bunday ashyolarning ko'pligi kompozitsiya eskizining yechimini tez topishga yordam beradi.

1-mashq. Tabiatdan o'simliklar, gullar, daraxtlar, tog', toshlar, suv, bulutlar tasvirini ishlash. Tabiatdan o'simliklar, gullar, daraxtlar, tog', toshlar, suv, bulutlar va turli parrandalar, tovuş, laylak, turna, qirg'ovul, kaklik, burgut, kalxat, lochin, zag'izg'on, kabutar, qaldirg'och va boshqa qushlarning qoralama tasvirini qalam va turli ashyolarda ishlaydilar. Qalamning bir necha turlari bor. Ular grafit qalami, pastel, sangina, sous, ko'mir qalamlar.

2-mashq. Turli qush, parrandalar tasvirlarini qalam va suv bo'yoqda ishlash. Tabiat muzeyiga yoki hayvonot bog'iga borib turli parrandalar tovuş, laylak, turna, qirg'ovul, kaklik, burgut, kalxat, lochin, zag'izg'on, kabutar, qaldirg'och va boshqa qushlarning qoralama va rangtasvirini, qalam, pastel, sangina, sous, ko'mir qalamda qog'ozlarga ishlanadi. Qog'oz buyuk kashfiyotlardan biri bo'lib, u asosiy yozuv ashyosi hisoblanadi. U kashf qilinguncha insonlar tosh, sopol, teri, daraxt po'stloqlari, pergament, yosh jonivorlarning ishlov berilgan terisi, taxta va suyakdan foydalanishgan. Ular og'ir, qo'pol, uzoq saqlash imkoniyati bo'lmaganligi, hasharotlarning kemirishi sababli yaroqsiz holga kelganligi uchun bir qancha noqulayliklar tug'dirardi. Qog'oz birinchi marta Sharq davlatlaridan Xitoyda kashf qilingan. U o'zining yengilligi, ishlatish, yozish, tasvir chizish uchun qulayligi, uzoq muddatga saqlash imkoniyatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Uning xom ashyosi asosan daraxt mahsulotlari va latta matolardan iborat. VIII asrda Samarqandda, keyinchalik esa Bog'dodda Xorun ar-Rashid davrida yo'lga qo'yildi. X–XI asrlarda qog'oz ishlab chiqarish O'rta Sharqda keng tarqaldi. Xitoy, Hindiston, Suriya va Iroq mamlakatlarida qog'oz ishlash yaxshi o'rganilib, boshqa davlatlarga ham tarqala bordi. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlash yaxshi yo'lga qo'yildi. Samarqand, Buxoro qog'ozlari sifatli hisoblangan.

Mo'yqalam. Nozik chiziqlar chizish, kichik hajmdagi ranglarni bo'yash uchun rassomga mo'yqalam kerak bo'ladi. Miniatura ustalari mo'yqalamlarni o'zlari tayyorlashgan. Ular ikki oylik mushuk bolasining orqa bosh qismidagi mo'ydan kesib olib, uni issiq suvda yog'idan xalos qilishgan. Tutam yunglarni taxta ustida donalab terishib, eng uzun mo'y o'rtasiga qo'yilib, qolganlari ikki yon tomonga terilgan. So'ng ipak ip bilan bog'langan va oldindan tayyorlangan kaptar, xo'roz yoki g'oz patining ichiga joylashtirishgan. Pat ikki tomondan kesilgan g'ovak trubka holida 3x4 sm atrofida olingan. G'ovak pat qalamchani ikkinchi tomoniga behi, tol daraxti novdasidan yog'och ushlagich yasab joylashtirilgan.

3-mashq. Hayvonot olami tasvirlangan qoralama va tasvirlarini suv bo'yoqlarda ishlash. Hayvonot olami, ot, tuya, sher, yo'lbars, qoplon, bo'ri, tulki, it, kiyik, qo'y, echki va inson qomatlari tasvirlangan qoralama va rangtasvirlarini suv bo'yoqlarda ishlanadi. Suv bo'yoq (akvarel) eng qadimgi bo'yoqlardan biri bo'lib, ma'nosi «rang va suv» dir. Suv bo'yoqlar suvda tez va yaxshi erishi, mo'yqalamga yaxshi yopishishi, qog'oz, oq karton kabi sathlarni tekis bo'yashi, dog' hosil qilmasligi, qog'oz sathidan yengil yuvilishi, surkalmasligi va yorilmasligi lozim. O'ziga xoslik tomoni qog'oz sathida tiniq shaffof tovlanadi. Bu dars jarayonidan maqsad o'quvchi va talabalar hayvonlarning turli harakatlarini kuzatish va plastik anatomiyasi, xarakterini o'rganish, ularda hayvonot dunyosiga nisbatan mehr uyg'otish, estetik zavq olish, kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish.

4-mashq. Inson qomati aks etgan qoralama tasvirini ishlash. Inson qomati aks etgan qoralama tasviri ishlanadi. To'plangan unsurlar asosida qoralamalar tasvirini miniatura kompozitsiyasi loyihalarida ishlatish uchun stilizatsiyalashtiriladi.

Stilizatsiya – muqallid narsalarning shakl va tuzilishini soddalashtirish yoki murakkablashtirish. Miniatura kompozitsiyalaridagi qoralama tasvirlarni ramziylashtirilishda chiziqlar muhim ahamiyatga ega. **Chiziq** rassomning amalda eng ko'p qo'llaydigan badiiy tilidir. Uning yordamida shakl va tekislik chegaralari aniqlanadi. Chiziq tasvir etilayotgan shaklni atrof-muhitdan ajratib ko'rsatuvchi chegaradir. U shakl chegarasini aniqlash bilan birga, rassomning ichki hissiyoti va hayajoniga ta'sir etadi. Chiziqqa tasviriy san'atda ko'plab tavsiflar berilishi shundandir. U yengil va sehrli, turg'un va intiluvchan, iliq va shiddatlidir. Tarixdan ko'p rassomlar chiziqni his qilish qobiliyatiga ega bo'lib, bizga san'atda ulkan badiiy meros qoldirgan. Chizikli yo'l bilan tasvirlash va aniqlashtirish ijodning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Rassom ixtiyoriy san'at asari, shuningdek, kompozitsiya yaratishda turli chiziqlardan foydalanadi. Bu – to'g'ri gorizontaal, to'g'ri vertikal, egri chiziqlar, qiyshiq, siniq, aralash, parallel va kesishuvchan chiziqlardir.

Siluet shaklning tekislikdagi soyasidir. Siluetning muhim tavsifi uning geometrik shaklidadir. Shunday qilib, barcha ustma-ust tushgan bezaklar, qismlarda aniq bo'lmasada, ko'z bilan chamalab, uning taxminan u yoki bu geometrik shaklga tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Siluet inson qomati shaklining asosini belgilab, uning biron-bir davrga tegishliligini ko'rsatadi. Qadimgi miniaturalardagi

tasvirlar bizni siluettlarning ko'plab turli xilma-xilliklari bilan tanishtiradi. Nazarimizda, silueti xuddi sodda geometrik shaklga intilayotgandek. Bundan kelib chiqib, uchta geometrik shaklni ajratib olamiz: to'g'ri burchakli to'rtburchak, uchburchak, trapesiyali va ovalli shu uch shaklni o'zak shakl desak adashmaymiz.

5-mashq. *To'plangan ashyolar asosida miniatura kompozitsiyasini ishlash.* O'tgan darslarda ishlangan qoralama va siluetlar asosida qog'ozga tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan, kompozitsiya asoslari, qonun-qoidalari, miniatura kompozitsiyasida kompanovka, simmetriya va assimetriya, marom (ritm), kompozitsiyada stilizatsiya, shakllarni teng qismlarga bo'lish, mutanosiblik, kengko'lamlilik, dinamika kabi qoidalarni inobatga olgan holda eskiz oldi izlanishlari olib boriladi. Rangshunoslik haqida ma'lumotlar, axromatik va xromatik ranglar, ranglarning asosiy xususiyatlari kabi qoidalarni inobatga olib planshetga kompozitsiya eskizlar ishlanadi. Amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchidan inson qomati, hayvonlar, o'simliklar, turli manzaralar tasvirini qog'oz sathiga joylashtirishda ritmga qat'iy rioya qilish, rasm ritmi, imo-ishora, harakatlarni mohirona bera bilish, bo'yoqlardagi ichki monandlik, rassomlarga xos bo'lgan rasmlarni chiza bilish fazilatlarini, aks ettira olish mahoratlari o'quvchilardan talab qilinadi.

LIBOSLAR TARIXI VA ULARNI BADIHYLASHTIRISH. KOMPOZITSİYALAR ISHLASH

XV-XVII asrlar qo'lyozma kitoblaridagi miniatura bezaklari bu davr liboslari bo'yicha nashr etilgan ishlarning asosiy manbai hisoblanadi. O'rta asrlarga mansub yozma manbalarda ham liboslar to'g'risida qayd qilingan. Miniatura asarlari o'rta asrlar libosini tadqiq etish uchun to'la va aniq ko'rgazmali tasavvur beradi. Ularda o'sha davrlar kishisining qiyofasi yetarlicha aniq tasvirlangan. Miniatura saroy san'ati sanaladi. Shunga ko'ra u o'zida ko'proq saroy rasm-rusumlarini aks ettiradi. Poytaxtda yashovchi jamoaning barcha ijtimoiy qatlamiga xos kiyim turlari vujudga kelganligini miniatura asarlarida kuzatish mumkin. Kiyimda qanday yangilik bo'lsa, bu miniaturada aks etgan. Ammo miniatura asarlarining yaratilish joyi va davri aniq ko'rsatilganidagina ular liboslar bo'yicha ishonchli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Miniatura asari yaratilgan joy va vaqt ko'rsatilmagan yoki aniqlanmagan manbalar

bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda noto'g'ri mulohazalar bayon etilishiga sabab bo'ladi. Liboslar taraqqiyotini o'rganish, shuningdek, eng muhim bosqichlarini belgilash Markaziy Osiyo kiyimlarini o'rganuvchi mutaxassislar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Xorazmshohlar hukmronligi davrida Eronning sharqiy qismida XII asr oxiri XIII asr boshlarida yaratilgan «Varka va Gulshoh» asari o'sha davr libosi qanday bo'lganligini bilish imkonini beradigan o'rta asrlarning dastlabki miniaturasi hisoblanadi. Bu davr libosi uslubi yihatdan Markaziy Osiyoda islom qabul qilingan va XIII asr birinchi choragida mo'g'illar bosqiniga qadar davom etib kelgan zardo'shtiylar an'analari bilan bog'liq kiyimlarning yangi turi edi. Tadqiqotchilar bu uslub IX-XII asrlar me'moriy va amaliy san'at bezaklari tarkibida ham mavjud bo'lganini ta'kidlaydi. Aynan shu jarayonni libos san'atida ham kuzatish mumkin. Buni «Varka va Gulshoh» miniatyurasida aks ettirilgan kishilarning kiyimlari ham tasdiqlaydi. Ularda V-VIII asrlar Toxariston liboslariga xos bo'lgan yihatlar ham kuzatiladi. Toxariston libosi uchun yelkasi yopishib turadigan va etagi trapetsiyasimon bo'lgan ko'rinishga xosdir. Miniatura ishtirokchilarining soch turmaklari ham o'xshash, ya'ni boshning o'rtasidan yarmi ochilgan, soch tolalari quloq orasidan yuziga tushib turibdi. Matolarning kvadrat va turli rangdagi tor yo'lakchali bezaklari ham barcha kishilar liboslarida bir-biriga monand. «Varka va Gulshoh» asaridagi erkak va ayol qiyofalarini bir-biridan ajratish qiyin. Ularning kiyimlari etagi birmuncha keng, o'ziga xos bichimda dumaloq shakldagi ko'ylaklar to'g'risida tasavvur beradi. Old qismi qisqapoq, orqasi uzunroq, bu ko'ylaklarning astari ko'pincha yo'l-yo'l matodan tikilgan. Erkak va ayollar kiyimlari tashqi yihatdan o'xshash bo'lsada, ularda ko'pgina farqli yihatlar ham kuzatiladi. Ayollar kiyimining yengi pastga qarab kengayib boradi, erkaklarniki esa bilagiga yopishib turadi. Ayollar to'g'ri bichimli uzun yubka yoki keng lozim kiygan. Erkaklar sholvorining poychasi uzun qo'njli etikka tiqilgan. Ayollar boshyalang, erkaklar boshida salla yoki dubulg'a bilan tasvirlangan. Askarlar esa kiyim ustidan sovut kiyishgan. Ularning sovutlari ma'dan halqachalardan tayyorlangan. Yuqoridagi mulohazalar XIII asrgacha mavjud bo'lgan libos hamda soch turmagida zardo'shtiylarga xos badiiy an'analar saqlanib qolgan deyishga, shuningdek, o'rta asrlar libosining birinchi bosqichini belgilashga imkon beradi. Libos taraqqiyotidagi bu birinchi bosqich Markaziy

Osiyoda VII-VIII asrlarda islomning qabul qilinishi va qaror topishidan boshlab, XIII asr birinchi choragidagi mo'g'il bosqiniga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. XIV asr o'rtalariga kelib, zardo'shtiylar badiiy an'anasi barham topdi. Mo'g'il-xitoy an'analari barcha sohalar qatori libosni ham to'la qamrab olgan. Hukmdorlar, saroy xodimlari, davlat amaldorlari, shuningdek, mahalliy aholi ham mo'g'il-xitoycha usulda kiyinish va soch turmaklashga o'tgan. O'ng ko'krak tomondan boylab qo'yiladigan, dioganal bichimli, kalta yengli, yon tomondan bel barobar qirqib ochilgan, ko'kraklari kashta bilan bezatilgan libosda XIV asr libosiga xos xususiyatlar mujassamlashgan deyish mumkin. Chingiziylar hukmronligi ostida bo'lgan Markaziy Osiyoning barcha hududlarida bu xildagi kiyim urf bo'lgan. Ayollar ustki liboslarining oldi ochiq, keng, nihoyatda uzun, yengi pastga qarab kengayib boradigan tarzda bo'lgan. Bosh kiyimi ust qismiga bir tutam qush pati o'rnatilgan, bichimi birmuncha murakkabroq qalpoq shaklida edi. O'rta asrlar libosi taraqqiyotining ikkinchi bosqichi Markaziy Osiyoda mo'g'il-xitoy libos rusumi hukmronlik qilgan – XIII asr birinchi choragida XIV asrning ikkinchi choragigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. XIV asrning ikkinchi choragidan boshlab, mo'g'il-xitoy libos rusumi siqib chiqarildi va mahalliy liboslarning yangi turi shakllandi. Ammo erkaklar to'ni, kiyimlarning ko'krak qismiga tikilgan kashta bezaklari, liboslarning yelka va bel qismi, etaklarni belgacha yoki undan uzunroq qilish saqlangan. Bu mo'g'il-xitoy libosiga xos xususiyat sanaladi. Soyabonli yoki qayirma bosh kiyimlar ko'rinishida mo'g'il-xitoy libosi o'zini saqlab qolgan. XV asrga kelib temuriylar hukmron bo'lgan joylarda erkaklar va xotin-qizlarning turli rangdagi ichki va tashqi qavatli, ya'ni turli rangdagi avra-astarli ikki uzun libos kiyishi odatga aylangan. Kiyimning bu turini shakllanish jarayoni o'rta asrlar libosi taraqqiyotidagi uchinchi bosqich sanaladi. Temuriylar saltanatidagi hududida XV asrga xos bo'lgan kiyimlar turli-tumanligi, libos rusmi tez-tez almashib turganligi Samarqand, Hirot, Sheroz kabi joylarda o'ziga xos mahalliy liboslar mavjud bo'lganligi bilan belgilanadi. Temuriylar saltanatining mazkur poytaxt shaharlarida mahalliy libos turlarining o'ziga xos jihatlarini rivojlantirish, ularni saqlab qolish va takomillashtirishga intilish bo'lgan. Hech bir davlatda libos bu o'lkalarda bunchalik bashang, rang-barang, sodda hamda jozibali bo'lgan emas edi. XV asrda ro'y bergan bu muhim jarayon Markaziy Osiyo libosi taraqqiyotidagi

to'rtinchi bosqich hisoblanadi. XVI asr libosi xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi. Bu yuz yillik boshida temuriylar saltanati o'rniga ikkita alohida davlat – Eron, safaviylar va Markaziy Osiyo Shayboniylari davlati vujudga kelgan. Bu davrda boshqa san'at, adabiyot turlari kabi libos ham o'z yo'nalishida taraqqiy etavergan. Kiyimlarning asosiy turlari saqlangan holda Markaziy Osiyo libosi Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruxiya kabi joylarda o'ziga xos rivojlanishda davom etgan. Bu holatni kiyimlarda o'ziga xos qismlarni vujudga keltirishi, o'zgacha poyafzallar, bosh kiyimlar kiyila boshlangani, har xil matolardan foydalanilgani aniq bildirib turadi. Deyarli har o'n yilda libos rusmi o'zgarib turgan. Ushbu xususiyatdan kelib chiqib, XVI asr Markaziy Osiyo libos rivojidagi beshinchi bosqichni ko'rishimiz mumkin. XVII asr dastlabki o'n yilliklarda Hindiston va Markaziy Osiyo o'rtasida do'stona aloqalar vujudga kelgan. Natijada adabiyot, tasviriy san'at va boshqa san'at turlari, shuningdek libos sohasida o'zaro ta'sirlanish sodir bo'lgan. Natijada adabiyot, tasviriy san'at va boshqa san'at turlari, shuningdek, libos sohasida o'zaro ta'sirlanish sodir bo'lgan. Samarqandda yaratilgan miniatura asarlaridan ko'rinadiki, Markaziy Osiyo liboslarida mo'g'il-hind kiyimiga xos xususiyatlar paydo bo'lgan. Ana shu yaqin hamkorlik Markaziy Osiyo liboslariga tobora kuchliroq ta'sir qilib, uni yangi shakldagi kiyimlar, matolar, bosh kiyimlari bilan boyitgan. Bu Markaziy Osiyo libosida XVII asr ikkinchi yarmida shakllangan libos uslubining yangi oqimi, sarchashmasi edi. Mazkur davrga oid Buxoro libosi sharqona kiyim go'zalligi va jozibadorligining o'ziga xos namunasi bo'lib qoldi. Shunday qilib, XVII asr libosi o'rta asrlar kiyimi taraqqiyotining yangi, oltinchi bosqichini ifodalaydi. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda libos o'z taraqqiyoti davomida olti asosiy bosqichni bosib o'tgan: kiyim turlari tarixi, me'morchilik, hayvonot olami va inson qomati belgilarining xomaki chizmasini chizish, ustozlar tomonidan yaratilgan ishlardan nusxalar ko'chirish, ayollar kiyimlari, taqinchoqlar aks etgan chizgilar chizish va xomaki ashyolar to'plash, to'plangan xom ashyolardan foydalanib, ko'p figurali odam qomati aks etgan kompozitsiya loyihalarini ishlash.

TURK VA OZARBAYJON MINIATURA MAKTABLARI HAQIDA

Turk miniatura maktabi. Kichik Osiyo yarim orolida qadimdan xetlar (eramizdan avvalgi XIX asr), Mitanni (eramizdan avvalgi XIX asr), Urartu (eramizdan avvalgi XI-XII asrlar) davlatlari bo'lgan, so'ng bu yerlar ahamoniylar, salavkiylar, makedoniyalik Iskandar, Rim imperiyalariga qaragan. Bu hol turk xalqi madaniyatini, san'atini o'ziga xos tarzda rivojlanishini belgilab beradi. XV asr boshlarida yashagan ozarbayjon olimi Abdurashid Bokuvii Turkiyaning qadimiy shaharlaridan Istambulning tarixi haqida quyidagilarni yozgan. «Qustantiniya shahriga qustantinning Sivarius ismli o'g'li asos solgan. Bu Shobur Zulaqtof zamoni (240-272-yillar) edi. Devori bir farsahcha keladigan shoh qal'asi, qal'ada o'nta eshikli, oltin qubbali shoh ibodatxonasi bor. Eshiklarning to'rttasi kumushdan. Ibodatxonada balandligi va eni to'rt gaz keladigan taxt o'rnatilgan. Taxt gavhar va yoqutlar qadab bezalgan. Ibodatxona devorlari oltin va kumushlarda naqshlangan...» Ushbu ko'chirma, shuningdek, Turkiya hududida saqlanib qolgan me'morlik obidalari va tasviriy san'at asarlari qadimda bu yerda Yunon madaniyati ta'siri bo'lganidan dalolat beradi. Turkiyaning o'ziga xos san'ati XV asrga kelib yanada rivoj topdi. Istanbul shahrida aralash uslubda masjidid madrasalar, ko'shk va turbatlar qurilib, shahar devorlarining uzunligi o'n besh farsahga yetkazildi. Vizantiya imperiyasi davrida qurilgan Avliyo Sofiya ibodatxonasi masjidga aylantirildi. Uning gumbazi 65 metr, eni 32 metr bo'lib, oltin, kumush yordamida devoriy naqsh va suratlar, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi. Istambuldagi To'pqopu saroyi 1466- yilda qurila boshladi, bu yer turk sultonlarining taxtgohi bo'lib kelgan. Ma'lumki, turk hunarmandchilik buyumlari chiroyli badiiy bezaklari, naqshlari bilan jahon bozorida yuqori baholanar edi. Chunonchi XIV asrning 30-yillarida Kichik Osiyoda bo'lgan arab sayyohi Ibn Batuta Kone va Sivas shaharlarida to'qilgan ajoyib turk gilamlarini ko'rib hayratga tushgan. U yana Arzinjonda mis konlari bo'lib, hunarmandlar undan turli-tuman, gulli ro'zg'or buyumlari, idish va shamdonlar yasaganini yozadi. Dunyoning ko'pgina muzeylarida saqlanayotgan bunday buyumlar namunalari o'sha davr turk hunarmandlarining yuksak san'atidan guvohlik beradi. Miniatura san'ati esa Mahmed II (1451-1481) zamonida juda

ham taraqqiy etdi. U tuzdirgan (Fotih albomi) Istambul albomlari nomi bilan mashhur muraqqa (albomlar)dagi miniaturalar ko'proq lirik mavzularga bag'ishlangan. Mahmed Sulton ko'pgina san'at obidalarini nobud qilgan bo'lishiga qaramay, o'z saroyida ko'plab musavvir va xattotlarni to'plab, ularga homiylik qila boshlagan. Uning saroyida ishlovchi musavvirlarning shuhrati hatto chet el hunarmandlarining ham e'tiborini tortadi. Italiyalik musavvirlardan Kostinso de-Ferrar (1300-1475), Bertoldo Jiovanni (1420-1491) va Jentile Bellini (1429-1509)lar uning saroyiga tashrif buyurishadi. Mahmed II ga, ayniqsa Jentile Bellini yoqib qoladi. U Venesiyaga maktub yo'llab, Bellinining Istambulda bir oz turishi uchun ruxsat oldi. Sulton Ferrar va Jiovanni Mahmedning suratini kumush medalga tushirishadi. Saroy me'mori Sinonbey ham Mahmed tasvirini metalga zarb qiladi. U asli 1498-yili Qaysar shahrida tug'ilib, yoshligida botir jangchi bo'lgan. So'ng u o'zining ajoyib quruvchi ekanini namoyish etdi. Sinonbey o'zi haqida shunday yozgan: «Men Abdumannon o'g'li bosh me'mor Sinon, Sulton Salim zamonida devshirma saralovi (yosh o'smirlarni yanicharlikka olish) bo'yicha Istambulga keldim. Marhum Sulaymon shoh zamonida yanichar sifatida Korfay Bol va qora Bog'don yurishlarida ishtirok etdim. O'sha yili saroyda bosh me'mor etib tayinlandim va olloh inoyati ila ko'plab imoratlar qurdim». Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, uning rahbarligi va ishtirokida 81 jome masjidi va 50 mahalla masjidi, 55 madrasa, 19 maqbara, 17 imorat, 3 shifoxona, 7 osma ko'prik, 8 ko'prik, 17 karvonsaroy, 32 saroy, 33 hammom va hokazolar qurildi. Ayniqsa, Shahzoda (1548), Sulaymoniya (1550-1557), Salimiya (1569-1575) masjidleri me'mor shuhratini olamga yoydi. Endernadagi Salimiya masjidi to'rtburchak shaklda bo'lib, ulkan gumbaz atrofini oltin minora o'ragan. Zamondosh tarixchilardan biri bu masjidni ta'riflar ekan, buni inson qo'li yaratgan emas, osmondan tushgan deb yozadi. Sinonbey qurgan imoratlar Rim va Kavkazda saqlanib qolgani diqqatga sazovor. Bu hol Rossiya podshosining ham turk me'morlariga tan berganligidan guvohlik beradi. Tarixchi Sa'diddin o'zining «Zubdat ut-tavorix» asarida Iznik shahriga sulton Salim I tomonidan Tabriz shahridan kulol, koshinkorlar kelganini yozadi. Koshin san'ati va kulolchilik hunari Iznik shahri dovrug'ini oshiradi. 1589-yili Sulton Murod III shahar hunarmandlarining bundan buyon yolg'iz saroy uchun ishlashlari lozimligi haqida farmon beradi. Istambuldagi qal'ai chiniy

shu davrda bunyod etilgan. Tarixchi Evliya Chalabiy, Iznik hunarmandlarning lagan, tovoq va ko'zalarini maqtab, butun usmoniylar davlatidagi naqshin idishlar shu yerda yasalgani haqida yozgan. Iznik koshinlari masjid va saroylar devorlarini bezash uchun ishlatiladi. Iznik idishlarida hayvonlar tasviri bilan birga odam surati ham uchraydi. Shoyi va kimxob matolarini ishlab chiqishda Bursa va Uskudar korxonalari shuhrat qozongan. Bir hujjatda sulton saroyida 1545-yil 105 nafar; 1557-yili 146 nafar shoyi va kimxob to'quvchi usta ishlagani qayd etilgan. Turklar bu matolarning atlas, kimxob, dabo, sorang, chatma, bonak, muqaddam, qutniya turlarini ishlab chiqqanlar. Matoga oltin va kumush iplar qo'shib to'qilgan. Turk shoyi va duxobalari jahon bozorida yuksak baho olgan.

XVI-XVII asrlarda turk gilamlarining qadri boshqa shaharlarda ham ortadi. Ko'pchilik Yevropa musavvirlari asarlarida bunday gilamlarning tasvirlanishi fikrimizning dalilidir. Sulton saroyidagi naqqosh va musavvirlar uchun ham alohida ustaxona bo'lgan. Bir hujjatda 1525-yil bu ustaxonada naqqosh va musavvirlardan 29 usta va 12 xalfa bo'lgani, bulardan besh nafari eroni, ikki nafari arab, ikki nafari cherkes, biri venger va biri moldavan ekani qayd etiladi. O'sha davr miniaturalari o'zida Markaziy Osiyo va Eron miniatura maktablarining ba'zi san'atkorlik va shakl xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo'lsa ham, Markaziy Osiyo miniaturalaridagi kabi ranglarning nafis jilosi, murakkab geometrik naqshlardan foydalanish, nozik chiziqlar ma'nodorligi kabi jihatlarni kam uchratamiz. Turk miniaturalarida biz keskin chiziqlar, jiddiy mavzu, bir oz ko'proq mo'yqalam harakatlarini ko'ramiz. Turk miniaturalariga yorqin ranglardan foydalanish, ko'proq oltin va kumush ranglar ishlatish xosdir. Turk olimi Mustafo Daftariy 1597-yili Sulton Murod III uchun «Holoti hunarvaron» nomli katta tazkira tuzdi. Unda butun Sharqda mashhur musavvir va xattotlarning tarjimai hollari va ijodiga doir qisqa ma'lumotlar jamlangan. Jahondagi barcha san'atshunoslar o'z ishlarida bu manbaga qayta-qayta murojaat etdilar. XV–XVI asr boshlarida tasvir etilgan Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonida (To'pqopu saroyi muzeyi) 15 ta miniatura bor. Birinchi miniaturada Xusrav ustози Buzruk Umid bilan qasr oldidagi gilamda o'tirgan tasviri. Atrofida yaqinlari. Qolgan miniaturalar Shopurning Xusravga Shirin tasvirini taqdim qilayotgani; Xusravning cho'milayotgan Shirinni kuzatayotgani; Xusrav va Shirinning chavgon o'yini, kuy

tinglashayotganini tasvirlaydi. Personajlar kiyimi turkcha, tasvir uslubi esa Markaziy Osiyonikiga o'xshash. XVI asrning oxiriga oid bir miniatura Isoning farishtalar hamrohligida yerga tushuvi tasvirlangan. U masjid mezanasiga qo'nmoqda. Qanotli farishtalar rangli kiyimlarda, devor oq, osmon oltin rangda, Iso qora turk kiyimida, boshida oq salla.

Sulton Sulaymon I 1534-1536-yillarda Eronga yurish qilganda tarixchi Matrakchi Nazuh unga hamroh bo'ladi. Sulton buyrug'i bilan u bosib o'tgan manzillar tasviridan iborat «Kitob ul-manozil» asarini yozdi. Kitobni noma'lum rassom miniaturalar bilan ta'mir etadi. Dastlabki sahifalarda Istambul va Galata ko'rinishi ishlangan. Butun maydon imoratlar tasviri bilan to'lgan. Masjidlar esa alohida ko'rsatilgan. Devorlar sarg'ish, tomlar esa qizg'ish rangda. Bosfor dengiz ko'k, yelkanli kemalar qoramtir rangda. Keyingi miniaturalarda ziyoratchilarning sahroda yurishi, hovuz va unga quyiladigan anhuri, anhor ustidan o'tgan torgina ko'prik tasvirlangan.

VI asrning ikkinchi yarmida yozilgan Sulaymon I shohligiga doir asarida Eron elchisini qabul qilish marosimini tasvirlovchi miniatura bor. Sultonning chehrasi aniq chiqqan. Uning yonida qo'lida lochin tutgan yanicharlar. O'rtada saroy ahli, ular elchining qo'lidan tutib, taxtga yaqin kelishmoqda. Boshqa suratda Kipr qal'asi Sant Elmonning qamal qilinishi ko'rsatilgan. Uchinchi miniatura, Drava daryosini kechib o'tish haqida. Qolganlarida venger qal'asi, Sigetvar qo'riqchi kemalari, lashkar yurishi va hokazolar tasvirlangan. Keyingi ikki miniaturada Sulaymonni ko'mish marosimi va Istambuldagi Sulaymoniya masjidi tasvirlangan.

Murod III (1574-1595) zamonida «Shohnoma» asari yaratildi. Uni ozarbayjonlik bir musavvir miniaturalar bilan bezaydi. Birinchi zarvaraqda 1576-yilning 12-mayidagi harbiy ko'rik tasviri. Ko'rik Eron shohi Tahmosibning elchisi To'qmoqxon uchun uyushtiriladi. Saroy oldidan piyoda yanicharlar o'tib bormoqda, yelkalarida miltiqlar, sipohiylar esa serhasham kiyimlarda, katta sallalar o'rashgan. Ba'zilar sovuq va javshan kiygan, qo'llarida nayza. Tasvirlar pog'onama-pog'ona beriladi, sahifa yuqorisida saroy, keyin yanicharlar, lashkarboshilarning kiyimlari ko'rkamroq, qurol, kiyimlar, bayroqlar oltin yoki kumush rangda. Ikkinchi miniaturada Kars shahrini qamaldan ozod etish tasvirlanadi; tepada devor bilan o'ralgan shahar, ichida uylar, masjidlar, quyisida turk lashkargohi.

Miniaturada murakkab mavzu ustalik bilan ifoda qilingan. Ko'chalar bo'm-bo'sh, nayzalar dushman boshlariga qadalgan, saropardada lashkarboshilar bilan vazir o'tiribdi. Hilpirayotgan turk bayroqlari g'alaba timsoli. Uylar, odamlar timsoli mohirona joylashtirilgan.

1550-1590-yillarda ko'p jildlik «Hunarnoma» asari yaratiladi. Uni musavvir Usmon bezagan. Saqlanib qolgan ikki jildida 160 miniatura bor, ularda usmoniylar davlatining paydo bo'lishidan tortib, XVI asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan hayot lavhalari tasvirlangan.

Tasvir mazmunini kuchaytirish maqsadida musavvir Usmon manzaraga bir necha epizod qo'shadi, sahifa yuqorisida saroy. Imoratlar tomi qizg'ish, tog'lar ko'kish. Shular fonida qora chodirlar va sahrodagi sarg'ish toshlar jozibadorligi ortgan. Usmon asarlarida rang palitrasining boyligini shayx Abdullaning Sulaymon I tomonidan qabul qilinishi tasvirlangan miniaturasida ham ko'rish mumkin. Ohangdosh ranglar ustalik bilan topilgan. Kitobda harbiy mavzudagi jang sahnalari ham bor. Vena shahrining turklar tomonidan olinishi va hokazo. Usmon Murod III hukmronligi tarixiga doir asarga ham 400 dan ortiq miniatura chizadi. Musavvir sulton sha'nini ulug'lovchi tasvirlar bilan birga xalq hayotiga doir sahnalar ham yaratdi. Tantanalar va sayllar haqidagi miniaturlar mahorat bilan ishlangan. Usmonni boshqa turk musavvirlari bilan taqqoslab, uning iqtidori keng, har qanday mazmunni ustalik bilan tasvirlay olishi va san'atkorligini ko'rsa bo'ladi. Uning asarlari Usmonli turk madaniyati tarixi uchun qimmatbaho manbadir.

Janr ko'lamining kengligi bilan ham Usmon ijodini turk miniaturchiligining cho'qqisi, desa bo'ladi. U qator portretlar ham yaratdi. Xusrav va Sulton Salim II portretlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, uning ertakchi-qiziqchi La'linqabo portreti diqqatga sazovor. Bu yerda ortiqcha hashamdorlik yo'q. Qotmadan kelgan chol, qoramtir kiyimda odmi tasvirlangan, so'l qo'lida aso, oldinga intilib, o'ng qo'lini cho'zgan holda turibdi, chehrasi ma'nodor. Musavvir zukko va irodali odamning ochiq chehrasini ifodalay olgan. Turk tasviriy san'atining yana bir yirik vakili Nigoriy (Rais Haydar)dir. U 1492-yilda G'alatada tug'ilib, 82 yoshida vafot etgan. Yoshligida jasur dengizchi sifatida ko'p janglarda qatnashib, kapitan unvonini oladi. Sulton Salim II uning kema haydash qo'llanmasiga suratlar chizganini ko'rib, saroyga bosh musavvir etib tayinlanadi. O'z iste'dodi bilan u ikkinchi Behzod (Behzodi soniy) laqabini oladi.

Istambulning To'pxona mahallasida Sulton, Nigoriy uchun tasviri san'at va kitob ustaxonasi qurdiradi. Bu yer san'at mavzusidagi majlislar o'tadigan joyga aylanadi. Nigoriyning ko'plab asarlari saqlanib qolgan bo'lib, ularning barchasi turk miniaturasining o'ziga xos xususiyatlarini mujassam etgan. U yaratgan sulton Sulaymon I portreti (To'pqoru saroyi muzeyi) realistik yaratilgani bilan ajralib turadi. Sahifaning qoramtir fonida sulton tasviri, u ko'k shoyi kiyimda, boshida katta oq salla. Uning ortida ikki qurolli jangchi. Keksayib qolgan bo'lishiga qaramay chehrasida bardamlik va tetiklik aks etib turibdi. Nigoriy suratni sultonning o'ziga qarab chizgani va uning ichki dunyosini ochishga intilganini ko'ramiz. U Salim, Xayriddin, Barbarossa portretlarini ham shunday mahorat bilan chizadi. Turk xattotlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratganlardan biri Shayx Hamidulla (1436-1519)dir. Uning ota va onasi asli buxorolik bo'lib, hayot taqozosi bilan Amasega ko'chib kelishadi. Shayx Hamidulla shu yerda tug'iladi. U 47 ta Qur'on va ko'pgina boshqa badiiy asarlarni husnixatda ko'chirgan. U ko'chirgan qo'lyozma kitoblarda yigirmadan ortiq husnixat turini ko'rish mumkin. Mazkur musavvir va xattotlardan tashqari turk sultoni saroyda Markaziy Osiyo va Xurosonda ijtimoiy voqealar tufayli ketib qolgan san'atkorlar ham ishlagan. Musavvirlardan Bobo Naqqosh, Shayx Mustafo Tojiddin, Girehbandiy, Abdulg'ani, Mir Oqo, Shayx Kamoliy, Shohquli kabilar shular jumlasidandir. Tadqiqodchilarning aniqlashlaricha, Xuroson va Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyatning keskinlashgani tufayli umrining oxirlarida Istambulga ketib qolgan mashhur olim Ali Qushchi o'zi bilan ko'pgina tasvirli kitoblarni olib ketgani ma'lum bo'lmoqda. Turk san'atshunoslarining tadqiqotlariga qaraganda, Istambulning To'pqopu saroyi muzeyida va Avliyo Sofiya muzeyida Samarqand, Xurosonda kitobat qilinib, miniaturalar bilan bezalgan yuzga yaqin qo'lyozma va muraqqalar avaylab saqlanmoqda. To'pqopu saroyi muzeyida saqlanayotgan «Shohnoma» (№1479), Nizomiyning «Xamsa»si (R-857), yuz varaq, 650 suratdan iborat Boysunqur Mirzo albomi (№2152), Amir Temur va temuriyzodalar suratlaridan iborat muraqqalar (№ 2153, 2160, 2161), Bahrom Mirzo albomi (№2154), Shoh Ismoil albomi (№2138) va o'nlab Ulug'bek Mirzo va Sulton Husayn Mirzo muhrlari chekilgan qo'lyozmalar shular jumlasidandir.

OZARBAYJON MINIATURA MAKTABI

Yaqin va O'rta sharq xalqlari tasviriy san'at tarixida Ozarbayjon miniatura maktabi (asosan Tabriz shahrida XIV-XVI asrlar davomida o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan) Arab, Eron, Turk, Markaziy Osiyo va hind miniatura maktablari qatorida muhim o'rin tutadi. O'rta asrdagi diniy ta'qib va tazyiqqa qaramay Ozarbayjon musavvirlari Sharq adabiyoti daholarining o'lmas asarlarini hamda nodir qo'lyozmalarini nafis mo'jaz rasm – miniaturalar bezash bilan shug'ullanaverganlar. Ayniqsa, Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiy Ganjaviyning «Hamsa», Hofiz va Sa'diy Sheroziylar, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyning bir qancha qo'lyozmalariga chizilgan miniaturalar jahon tasviriy san'atining noyob durdonalari qatorida munosib o'rin egallab turadi. Ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharqda XII-XIII asrlar davomida Bog'dod miniatura rassomchilik maktabi yetakchi bo'lgan. Ayni shu vaqtda boshqa madaniyat markazlarida ham mahalliy miniatura rassomchilik maktablari bo'lganligi shubhasiz. Ayniqsa, XIV asr boshida Janubiy Ozarbayjondagi Tabriz miniatura maktabi gullab-yashnadi. Bu davrda mashhur tarixchi va davlat arbobi Fazlulloh Rashiddin nigorxonalarida turli-tuman tarixiy asarlar qo'lyozmasi qayta-qayta ko'chirilib, nafis mo'jaz rasmlar bilan bezatilar edi. XIV asr oxirlarida yirik madaniyat markazlari Bog'dod, Sheroz va Hirot shaharlarida ham mustaqil miniatura rassomchilik maktablari mavjud edi. Rassomlar hozirgi Afg'oniston hududida joylashgan o'sha vaqtdagi Xuroson davlat poytaxti Hirot shahrida XV asrda, xususan XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida, o'z davrining beqiyos rassomlari ustoz Kamoliddin Behzod rahnamoligida ijod qilishardi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Hirot miniatura rassomchilik maktabi Yaqin va O'rta Sharq miniatura maktablari taraqqiyotiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIV–XV asrlarda qadimiy madaniyat markazlaridan bo'lmish Buxoro va Samarqand shaharlarida ham mahalliy miniatura rassomchilik maktablari bo'lgani to'g'risida ko'plab tarixiy ma'lumotlar mavjud. XIII asrda Janubiy Ozarbayjonning Tabriz, Marog'iy va Ardebil shaharlari yirik madaniyat va savdo-sotiq markaziga aylandi. Chunki bu shaharlar asosan serqatnov karvon yo'llari o'tadigan yerlarda joylashgan edi. Bundan tashqari, ayniqsa Tabriz shahrida katta

markazlashgan davlatlar Xulagu mo'g'il Ilhonlari (1256-1340), choboniylar (1340-1357), jaloiriylar (1360-1410), qora qyunli (1410-1468) va oqqyunlilar, safaviylar (1502-1576) hukmronligi davrida poytaxt shahar bo'lgani sababli, bu yerda iqtisodiy va madaniy hayotning yuksak taraqqiyoti uchun shart-sharoitlar yaratilgan edi. Tabriz hamda Marog'iy shaharlarida intilgan ko'plab tarixiy va badiiy adabiyot namunalari ajoyib miniaturalar bilan bezatilar edi. Shuningdek, bu davrda Shirvon shahrida yaratilgan nodir qo'lyozmalar ham bizgacha yetib kelgan. XIV asr ikkinchi yarmida Janubiy Ozarbayjon shaharlarini Sulton Uveys Jaloir egallab oladi. Sulton xattot va rassomlarga homiylik qilib, shuningdek o'zi ham xattotlik bilan shug'ullangan. Uning davrida yashab ijod etgan musavvirlardan biri Ustod Shamsiddin bo'lib, bu mohir usta Abdulhay va Junaid Bog'dodiy kabi rassomlarga ustozlik qiladi. Jaloyirlarning so'nggi vakili Sulton Ahmad ham xattotlik va rassomlikka juda qiziqqan. U hukmronlik qilgan davrda Abdulhay va Junaid Bog'dodiy o'z san'atlarini namoyon qiladilar. Xattotlar, rassomlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan «Haloti hunarvaron» («Hunarmandlar ahvoli») nomli risola muallifi Do'st Muhammad Heraviy musavvir Abdulhayning «Abusaidnoma» kitobi qo'lyozmasiga, Junaid Bog'dodiy esa Xoja Kirmoniyning 1396-yili kitobat qilingan asari qo'lyozmasiga nafis rasmlar chizganligi to'g'risida ma'lumot bergan. Bulardan tashqari Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostoni, Fazlulloh Rashididdinning «Jam'i ut-tavorix» asari qo'lyozmalari ham nodir miniaturalar bilan ziynatlangan.

XV asr Tabriz miniatura rassomchiligi taraqqiyoti qoraqyunli va oqqyunlilar hukmronligi davri bilan bog'liq bo'lib, asosan XIV asr tasviriy san'at an'alarini rivojlantiradi. Bu davrda Tabrizda yashab ijod etgan san'atkorlar orasida eng mashhuri Pir Said Ahmad Tabriziy bo'lib, turk tarixchisi Mustafu Alining guvohlik berishicha, u Kamoliddin Behzodga ustozlik qilgan ekan. Qoraqyunlilar sulolasi hukmronligi davrida yaratilgan rasmlar nodir qo'lyozmalardan 1468-yili Shemahada kitobat qilingan antologiyani, Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma» asarining Parijdagi Demot shaxsiy majmuasidagi nusxasini, Istambulda «Evkaf» muzeyida saqlanayotgan 1456-yili xattot Abdurahmon Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan kitoblarni qayd etish mumkin. Ozarbayjon tasviriy san'ati tarixida Safaviylar hukmronligi davri alohida sermahsulligi bilan ajralib turadi. Chunki nisbatan markazlashgan feodal davlatning tashkil topishi (bu davlat

hududiga asosan Ozarbayjon, Eron va qisman Kavkaz kirgan edi) hukmron sulola ayrim vakillarining turli tasviriy san'at sohalariga homiyligi va shaxsiy qiziqishi, e'tibori ma'lum darajada kitobat, xususan miniatura rassomchiligi taraqqiyoti uchun ham yaxshi ijodiy imkoniyatlar yaratilishiga olib kelgan edi. Safaviylar sulolasi hukm surgan davr Tabriz miniatura rassomchiligi maktabi uchun yangi badiiy uslubining shakllanish, rivojlanish va gullab-yashnash davri edi. Ozarbayjon musavvirlarining bu yangi uslubi o'zining o'ta dekorativ yangi obrazlar silsilasi, boy va yorqin ranglar jilosi, chiziqlarning juda nozikligi, go'zal va betakror naqshlari, o'ziga xos kompozitsion yechimlari, shakllarning shartlilik bilan jozibalidir. Shuningdek, bu usulning muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, ularda badiiy estetik talablarga rioya qilingan holda barcha davr qahramonlariga o'z zamonasi ruhini singdirishdir. Bu davr rasmlarini alohida ajratib turadigan xususiyatlardan biri, ulardagi an'anaviylik, qizil boshlar, bosh kiyimlar uchi uchun qizil qulohli, maxsus uslubda o'raladigan oq salla tasviri mavjudligidir. XVI asr Tabriz miniatura rassomligining yangi badiiy uslubi, mavjud mahalliy rassomchilik an'analari rivojlantirish va boshqa mashhur miniatura rassomchilik maktablari, eng avvalo XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshlaridagi Hirot miniatura rassomchiligi ijodiy muvaffaqiyatlaridan bahramand bo'lish, o'rganish, o'zlashtirish, juda katta ijobiy ta'sirlanish, barcha badiiy va texnik yutuqlarni o'z davri badiiy estetik talablariga mos keladigan qilib qayta ishlash manbaida yuzaga keldi.

Safaviylar sulolasi asoschisi Shoh Ismoil (1502-1524) maxsus san'at ustaxonalari ochtirib, ularda turli badiiy gazlamalar, gilamlar to'qilishini yo'lga qo'ygan. Uning o'zi shoir bo'lib, ozarbayjon va fors tillarida she'r bitgan, xattotlik va rassomlik namoyandalariga juda katta e'tibor bilan qaragan. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq orasida bir afsona to'qilgan. Bu afsonaga binoan Shoh Ismoil turk hukmdori Sulton Salim (1512-1520)ga qarshi jangga ketish oldidan ustod Kamoliddin Behzodni dushman qo'lga tushib qolishidan xavfsirab, qandaydir bir g'orga berkitgan, jangdan qaytib oq, «Behzod tirikmi?» deb so'raydi. Shoh Ismoil ustod Behzodni o'z mulki va xazinasidan ham a'lo ko'rgan ekan. Shoh Ismoil ustod Behzodni juda hurmatlab, maxsus farmonga binoan uni 1522-yili saroy kutubxonasidagi barcha kitobat san'ati ahliga bosh mutasaddi qilib tayinlagan. Bu davrda Tabrizdagi Saroy kutubxonasida ozarbayjon musavvirlari bilan yonma-yon mohir rassomlar Qosim Ali, termizlik



Mir Mansur musavvir, Shayxzoda Isfahoniy, Haydar Ali Turbatiiy kabi ko'plab noyob iste'dod egalari yashab ijod qilganlar. Bu rassomlar guruhi tomonidan yaratilgan juda ko'p nodir qo'lyozmalar boshqa qimmatbaho san'at asarlari qatorida turk hukmdori Sulton Salim tomonidan Tabrizdan Istambulga olib ketilgan bo'lib, Ozarbayjon miniatura rassomchiligining ajoyib namunalari hamon shu joyda saqlanmoqda. Shoh Ismoil hukmronligi davrida Tabrizda nafis mo'jaz rasmlar bilan ziynatlangan nodir qo'lyozmalarga Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Sa'diy Sheroziyning «Bo'ston», Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa» asarlari nusxalari kiradi. San'atshunoslarning fikricha, Tabrizda XVI asr boshlarida yaratilgan bu nodir qo'lyozmalarga ishlangan miniaturalar badiiy uslubi jihatidan o'sha davrdagi Hirot va Sheroz miniatura rassomlarining ishlaridan alohida ajralib turadi. Yangi rassomchilik badiiy uslubi Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa» asarining XV asr oxiri va XVI asr boshlarida kitobat qilingan. Hozirgi kunda ilgari Turkiya poytaxti bo'lgan Istambul shahridagi Topqopu Saroy muzeyida saqlanayotgan, uch musavvir tomonidan nafis miniaturalar bilan ziynatlangan nusxada yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu nodir qo'lyozma rasmlarining mualliflarini uslubi jihatidan uch guruhga ajratish mumkin. Ularning kompozitsiyalarida, manzara tasvirlarida, obrazlar silsilasida o'ziga xos originallik mavjud. Ayrim miniaturalar juda katta mahorat bilan yaratilgan bo'lib, rasm chiziqlarining nozikligi bilan ajralib turadi. Bunday miniaturalar muallifi ko'p figuralik kompozitsiyalarning original yechimini topuvchi, tasvirlanayotgan me'morlik obidalarini va qismlarini katta aniqlik bilan chizadigan, hayotiy manzaralarni ta'sirchan va ifodali qilib yarata oladigan san'atkor sifatida namoyon bo'ladi. Barcha miniaturalarda kishilar qiyofasi, eng muhim personajlar obrazi juda ifodali, ta'sirchan, hayotiy yaratilgan. Albatta, bu rasmlarda, ayrim kishilar tasvirida ular nisbatan past bo'yli, ba'zi rasmlarning chiziqlarida nafislik yetishmaydi. Shunday bo'lsa-da, bu miniaturalar o'sha davr Sheroz va Hirot miniatura rassomchiligi asarlaridan o'zlarining badiiy xususiyatlari bilan farq qiladi. Shoh Ismoilning o'g'li va taxt vorisi Shoh Tahmosib (1524-1576) hukmronligi vaqtida Tabriz miniatura rassomchiligi maktabi o'z taraqqiyotining eng yuksak va sarmahsul davrini boshidan kechiradi. Chunki Shoh Tahmosib yoshligidan rassomchilik va xattotlikka qiziqib, ustozi Sulton Muhammaddan saboq oladi. Uning eng hurmatli rassomi ham ustoz Muhammad

bo'lgan. Ayrim mutaxassislar, shaxsan turk tarixchisi Mustafo Ali tomonidan ustod Kamoliddin Behzod kabi iste'dodli deb tan olingan bu ustoz rassom XVI asr Tabriz miniatura rassomchilik maktabi badiiy uslubning shakllanishida juda katta rol o'ynagan. Ustoz Sulton Muhammadning atoqli san'atkor sifatida asosiy xizmati shundaki, u hatto an'anaviy mavzularga ham ijodiy yondashib, o'ziga xos badiiy obrazlar yaratishga, ularning original va betakror bo'lishiga erishdi. Rassom novator san'atkor sifatida ustod Kamoliddin Behzod an'analarini yangicha sharoitda yanada rivojlantirib, juda katta muvaffaqiyat qozondi. Shoh Tahmosib Saroy kutubxonasida ustoz Sulton Muhammaddan tashqari, ustoz Kamoliddin Behzod, Mirza Ali Tabriziy, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Mirsaid Ali, Siyovushbek va boshqa musavvirlar nodir qo'lyozmalarni nafis, mo'jaz rasmlar bilan bezatishda qatnashganlar. Shuning bilan bir qatorda Shoh Ismoilning boshqa o'g'illari Som Mirzo va Bahrom Mirzolar ham xattotlik, rassomchilik va kitobat san'atiga juda katta homiylik qilgani to'g'risida tarixchilar guvoh beradilar. Feodal hukmronlari rassomchilik, xattotlik va kitobat san'atiga homiylik qilib, bu tasviriy san'at sohalarini juda katta ijodiy yuksaltirishga keng imkoniyat berib, shart-sharoitlar yaratib bergan bo'lsa-da, lekin ayrim vaqtlarda ular san'atkorlarga nisbatan juda ham shafqatsiz, hatto vahshiyona munosabatda bo'lganlar. Masalan, tarixchilar Qozi Ahmad va Mustafo Alining qayd etishicha, Abdulaziz va uning shogirdi Kamol ismli rassomning Hindistonga qochib ketmoqchi bo'lganligidan xabar topgan Shoh Tahmosib shaxsan o'zi san'atkorlarning quloq va burnini kesib tashlagan ekan. O'z hukmronligining so'nggi yillarida Shoh Tahmosibning rassomchilikka qiziqishi so'nib, u Saroy qoshidagi rassomlar ustaxonasini yoptirib qo'yadi. Bu hol Tabrizdagi mohir rassomlarni homiy qidirib, turli o'lkalarga tarqab ketishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Shoh Tahmosib saroyidagi rassomlardan bo'lgan Mir Mansur musavvir uning noyob iste'dodli o'g'li Mir Said Ali va Abdusamat Sheroziylar Qobulga – Zahiriddin Muhammad Boburning o'g'li Humoyun saroyiga ketib qolganlar.


XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Shoh Abbos tomonidan yana Saroy rassomchilik ustaxonasi qayta tiklangan. Ammo bu vaqtga kelib, safaviylar davlati poytaxti qilib Eron shaharlari: avval Qazvin, so'ngra Isfahon tanlangan. Natijada ko'plab Ozarbayjon san'atkorlari – xattot, rassom va boshqalar safaviylar poytaxti shaharlarida yashab ijod etishga majbur bo'lganlar. Ozarbayjon



Kamoliddim Behzod ijodidan namunalar



*Anvar Isroilov. Qabariq yuzali qutichalarni badiiy bezash.
Toshkent, 2005 y.*



Bexzod Bulatov. Ko'p qirrali stolni badiiy bezash. Toshkent, 2007-y.



Shorasul Shoahmedov.



Abdulla Nazirov. Lakli quticha. Toshkent, 2000-y.



Jaloliddin Ashrapov.



Anvar Isroilov. Lakli quticha. Toshkent, 1999-y.



T.Ikromov. Lakli quticha. Toshkent, 1998-y.

rassomlaridan Abdul Boqiy Tabriziy, Ali Rizo Abbosiy, Muhammad Reza Tabriziy, Sodiq bek, Afshar va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Shoh Tahmosib hukmronligi davrida Saroy rassomchilik ustaxonasida boshqa davrlarga nisbatan eng ko'p nodir qo'lyozmalar kitobat qilinib, ular ajoyib nafis rasmlar bilan ziynatlangan. San'atshunoslarning hisobiga ko'ra, bu davrda yaratilgan rasmlar nodir qo'lyozmasining umumiy soni 100 ga yaqin ekan. Bu davr miniatura va rassomchiligi taraqqiyoti uning badiiy uslubi va eng xarakterli xususiyatlari Saltikov-Shchedrin nomli Sankt-Peterburg Davlat xalq kutubxonasidagi Orifiyning «Go'y va chavgon» (1524-1525), Fayzulloh Rashididdinning «Jam'i ut-tavorix» (1528-1529), Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limidagi Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» (1524), Istambulning Topqopu Saroy-muzeyidagi Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (1525) asarlarining nodir qo'lyozmasining ziynati hisoblangan noyob miniatura juda yorqin mujassamlangan. Shoh Tahmosib tomonidan ko'chirilgan va turli rassomlar tomonidan 19 ajoyib miniaturlar bilan bezalgan Orifiyning «Go'y va chavgon» qo'lyozmasi rasmlarda yosh hokimning dam olishi, ziyofati, aksariyatida esa chavgon o'yini tasvirlangan. Garchi ko'pchilik miniaturlar aynan bir mavzuga bag'ishlangan bo'lsa-da, ular bir-birlaridan tarxining xilma-xilligi, manzaralar talqini, tanlangan bo'yoqlar bilan farqlanadi. Tabriz miniatura rassomchiligining XVI asrning 20-yillaridagi badiiy uslubi, Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asariga yaratilgan nafis rasmlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu ajoyib miniaturlar tarxi ancha mukammallashgan bo'lib, kishilar tasviri juda nozik, tabiat manzaralarini yuksak mahorat bilan chizishga katta e'tibor berilgan. Lekin personajlar qiyofasida ularning individual xususiyatlari to'la va yorqin aks etgan emas. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» va Fayzulloh Rashididdinning «Jam'i ut-tavorix» asarlarining nodir qo'lyozmalariga ishlangan miniaturlarda harbiy mavzuga oid jang manzaralari tasviri ko'proq uchraydi. Ularda qal'alar qamali, piyodalar va suvoriylar jangi, dushmani asir olish kabi voqealar o'zining badiiy aksini topgan. Shuning bilan birga rasmda ov manzaralari, rasmiy qabullar, majlislar, ziyofatlar ham tasvirlangan. Juda katta ijodiy muvaffaqiyatlarga erishilgan XVI asr Tabriz miniatura rassomchilik maktabi o'z o'rnida boshqa Sharq miniatura rassomchilik maktablari taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

QUTICHAGA TABIAT, ME'MORCHILIK OBIDALARI VA KO'P QOMATLI INSONLAR AKS ETGAN MURAKKAB KOMPOZITSİYALAR ISHLASH

Me'morchilik obidalari kompozitsiyalarida fazoviy shaklning geometrik xossalari aniqlash. Miniatura kompozitsiyalarda me'morchilik hajmlar va bo'shliqlarga ko'ra old ko'rinishlarining umumiy jimjimador tekisliklari bilan anglashiladi. Bir nechta tekisliklarga duch kelinishi makoniy chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Miniatura kompozitsiyalarida ustalarning aksonometriya va perspektiva qonun-qoidalarini bilmasliklari natijasida, me'moriy hajm yoki fazoviy bo'shliq ko'p qirrali va romb ko'rinishdagi qiyshiq tekisliklar vositasida ifoda etiladi. Ikki o'lchamli miniataturalarga perspektivani qisman kiritish ham aldanishlarni kelib chiqaradi. Inson hayotiy jarayonlarni tashkil etish uchun fazoviy maqsadga muvofiq tuzilgan moddiy shakllar tizimini kiritadi. Qadimgi zamonda odamlar ongli faoliyatining muhim tomonlaridan biri – bu geometrik shakllardir. Geometrik shakllar to'g'ri shakldagi obyektlarni ko'rish qadimgi dunyo me'morchiligining birinchi g'alabasi bo'lgan. Inson fazoni o'lchash usulini yaratdi. Uni uchta perpendikular yo'nalishlarda rivojlanadigan koordinata o'qlari asosida tashkil etishni ixtiro qilgan. To'g'riburchakni aniqlash usuli insonning buyuk yutuqlaridan biridir. Shu sababli shakllarning geometrik qonunlarini aniqlash kompozitsiya vositalari qatoriga kiradi. Hajmning geometrik xossalari eng ravshan ko'rinadi va qabul qilinadi; tomoshabinni qurshab turgan fazoda ularni qabul qilish murakkablashadi. Bunday xossalarga o'lchamlarning uchta fazoviy koordinatalar yo'nalishlari bo'yicha nisbati balandlik, eni, chuqurlikni tashkil etuvchi yuzalar tavsifi to'g'richiziqli, egrichiziqli, singan chiziqli, ushbu yuzalarning fazoviy shaklda birlashishi kiradi. Uchta o'lchamlarning rivojlanishi hajmiylikni yuzaga keltiradi; uchta o'lchamning yaqinlashishi va tengligi hajmning turg'unligiga, uning berkligi va harakatsiz tinch holatini sezishga olib keladi. Bunda chekka holatlar kub va shar hisoblanadi. Shaklning ikki o'lchami uchinchisidan ustun bo'lishi uni tekislikka aylantiradi. Balandligi va uzunligini keskin farqlanuvchi kichik chuqurligi eni bilan solishtirish plastina shaklini yuzaga keltiradi. Uch o'lchamlardan birining keskin katta bo'lishi shaklning chiziqligini yuzaga keltiradi. Shaklning chiziqli rivojlanishi ko'pincha vertikal hajmlar minora uchun ishlatiladi. Shaklning geometrik

qonuniyatlarini aniqlash inson ko'rish a'zosining o'ziga xosligi tufayli yuz beradigan buzilishlarni bartaraf qilishga xizmat qilishi lozim. Tekisliklarni fazo ichkarisiga kiritib boruvchi vertikal bo'laklar yordamida bo'lish chuqurlikni ko'rsatishning samarali vositalaridan biridir. Chuqurlik sezish uchun perspektivaning oldi qismi, o'rta qismi va uzoq qismiga urg'u berish ham yordam beradi. Bunga fazoviy shaklni qismlarga bo'lish elementlar fakturasi va rangini o'zgartirish orqali erishish mumkin. Perspektiv qisqarish gumbaz shaklini ko'rishni buzadi. Gumbaz yopilmasi tashqarisidan ham, ichkarisidan ham ezilganday tuyuladi. Shunday illyuziyani yo'qotish uchun ko'pgina tarixiy binolarda gumbaz egriligi markazini uning asosidan balandga ko'tarishgan. Ba'zan, Markaziy Osiyodagi maqbaralarda ancha ko'tarilgan tashqi gumbaz hamda pastroq joylashgan ichki gumbaz ishlangan. Interyerda gumbaz shaklini ko'rsatish uchun uning yuzasini bo'lib turuvchi belgilari, burmalari, qobirg'alari yoki kessonlari yordam beradi. Bunday bo'linishlar gumbazning karkas konstruksiyasiga to'g'ri keladi. Bunday tashkil etuvchi chiziqlarni ko'rsatish usuli geperbiologik parabola va konoid ko'rinishdagi murakkab fazoviy konstruksiyalarni qurilish konstruksiyalarini ko'rsatishga yordam beradi. Geometrik shakllarning qonuniyatlari sifat jihatdan farq qiluvchi shakllarni solishtirish orqali ko'rsatish mumkin. Hajmlar kompozitsiya rivojlanishi bilan mos keluvchi yo'nalishda bir-biri bilan oson birlashadi. Minoraning vertikal bo'lingan yaruslari bir-biriga oson bog'lanadi. Tizim asosiga olingan harakat qo'llab-quvvatlanadi va davom ettiriladi. Bevosita yonmayon qo'yilgan vertikal hajmlar bilan solishtirish yoki gorizontall hajmni yangi qavatlar bilan to'ldirish kompozitsiyaning sifat jihatdan o'zgarishiga olib keladi. To'g'ri muvozanatlashgan va berk hajmlarni o'zaro birlashtirish ancha qiyin. Yonma-yon qo'yilgan sharlar kompozitsiya asosi bo'la olmaydi. Kub shakllarni o'zaro bog'lash osonday tuyuladi, lekin bunda kublarning xossalarni yo'qotuvchi yangi shakl vujudga keladi yoki ular yaqinlashgach o'zlarining kompozitsion mustaqilligini saqlab qoladi. Silindr o'zining asosiy o'qi bo'ylab boshqa geometrik shakllari bilan yengil bog'lanadi. Lekin uning bir maromdagi egrilikka ega bo'lgan berk yon yuzasi boshqa shakllar bilan juda qiyin bog'lanadi. To'g'riburchakli shakllar o'zaro eng oson birlashadi, shuning uchun ham eng ko'p qo'llaniladi. Simmetrik tizimda geometrik to'g'ri shakllarning bog'lanishi turg'un va muvozanatlashgan bo'ladi. Keng fazoviy tuzilmalar kompozitsiya

uchun geometrik qurish qonuniyatlarining ahamiyati nihoyatda kattadir. Metall va temirbetondan ishlangan fazoviy konstruksiyalarning rivojlanishi me'moriy shakllar majmuasiga ikki egrilikka ega bo'lgan yuzalar geperboloid, giperboloik parabola, konoidlarni olib kiradi. Shu tufayli arxitekturada qo'llaniladigan geometrik qonuniyatlari doirasi yanada kengaydi. Me'morchilikda fazoviy shakllanish tahlil etish qonuniyatlari har bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ularga bog'liq holda o'z ifodasini topdi. Lekin simmetriya, asimmetriya, ritm, keskin farqlanishi, nozik farqlanish kabi tushunchalar har doim o'zgarmasdan qoladi. Ular obyektiv qonuniyatlar hisoblanadi. Shakllardan erkin foydalana olish uchun ushbu qonuniyatlarni o'quvchilar bilishlari shart.

Kompozitsiya turlari. Shakl tuzilishi o'ziga xosligiga qarab kompozitsiyaning uchta asosiy ko'rinishi ajratilib ko'rsatiladi: frontal, hajmiy va chuqur-fazoviy. Ko'pincha ular bir-biriga qo'shilgan holda uchraydi. Frontal kompozitsiyaning farqlanuvchi belgisi shundan iboratki, unda shakl belgilarining tomoshabinga nisbatan ikki vertikal va gorizontal o'qlari bo'ylab joylashishidir. Shaklning ichkariga qarab rivojlanishi bo'ysinuvchi ahamiyatga egadir. Tomoshabin yuzaga qarab yoki unga parallel yo'nalishda harakatlenganda kompozitsiyaning frontalligi saqlanadi. Frontal kompozitsiyaga bino fasadlari, eni tor stanoklar misol bo'la oladi. Frontal kompozitsiyalarni qurishda uning frontalligini ta'minlovchi shartlarni hisobga olish lozim. Birinchi sharti vertikal va gorizontal o'lchamlari orasidagi ma'lum munosabatni saqlash lozimligi. Agar shakl balandligi uning enidan juda ortib ketsa, shakl chiziqli ko'rinish egallay boshlaydi. Egri chiziqli bo'linishlar tekis yuzaning ko'rinishini buzadi va u notekis, deformatsiyalangan bo'lib ko'rinish boshlaydi. Bunday samara ko'p sonli dinamik vertikal va gorizontal bo'linish bo'lganda ham yuz beradi. Bular tufayli yuzaga sillendrik shaklga o'xshab ko'rinadi. Frontal kompozitsiyaning ko'rkamligi uning belgilarining chuqurligi xarakteriga bog'liqdir. Eng tipik joylashish – bu belgilarning bir tekislikda bir oz relyefli joylashishidir. Biror-bir obyektning frontal kompozitsiyasini tuzishda yuqorida aytilgan barcha sharoitlarni bajarish yetarli emas. Frontal kompozitsiyaning ko'rkamligi uning belgilarining o'lchamlari nisbatiga hamda ularning vertikal va gorizontal bo'ylab ma'lum tartibda joylashishiga bog'liqdir. Bu ikki yo'nalish bo'ylab shaklni bo'lishda uning bosh belgilari bo'rttirib ko'rsatiladi. Yuqoriga qarab torayib yoki kengayib

boradigan uchta ritmik tartibdagi bo'linishlar bilan bo'lingan yuza yetarlicha yaxlit bo'lib ko'rinadi. Yuzaning bo'linishi unga yopiq shakllarni kiritish orqali ham amalga oshirish mumkin. Bu holda yuza butunlay bo'linmaydi. Bitta kompozitsiyada turlicha bo'linishlardan foydalanish murakkab masalalarni hal etish imkonini beradi. Bo'linishlar va belgilarning soni ko'payganda ularni guruhlash orqali tartibga solish zarurati tug'iladi. Bunda ulardan ikkitasi, maksimum uchta sezilib turishi mumkin. Yuzaning bo'linishlarini metrik yoki ritmik qatorlar qonuniyatlari asosida yoki ikkalasini qo'shish, biror guruh bo'linishlarini ajratib ko'rsatish hisobiga yoki yuzaning bo'lingan qismini bo'linmagan qismiga qarama-qarshi qo'yish hisobiga tartibga solish mumkin.

MURAKKAB SHAKLDAGI QUTICHAGA «OV» MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA ISHLASH

«Ov» mavzusida kompozitsiya ishlash uchun talabalar Amir Xisrav Dehlaviy, Nizomiy, Alisher Navoiyning «Xamsa» dostonlariga ishlangan «Shikor» mavzusiga oid miniatura rasmlari bilan tanishib chiqadi. O'rta asr xattot va musavvirlari o'z asarlarini asosan maxsus ishlov berilgan va silliqlab, ba'zida turli ranglarga bo'yalgan qog'oz va qutichalarda yaratgan. Kitob varaqlari va qutichalarni qog'ozdan tayyorlab, turli tus va rangga bo'yab, uning ustiga miniatyuralar chizishgan. Yuzada nozik chiziqlar chizish, tilla hal berish, ravon yozish yoki ranglar bilan ishlash uchun qog'oz va qutichalarga qo'shimcha ishlov berilgan.

Hajmiy kompozitsiya uchta fazoviy koordinatlar bo'yicha rivojlangan shakl bo'lib, hamma tomondan ko'rinadigan nisbatan yopiq yuzaga egadir. Hajmiy deb quyidagi belgilarga ega bo'lgan shakllarga aytiladi:

- barcha uchta o'lchamlari nisbatan bir xil qimmatli;
- balandligi ko'proq bo'linib turadi;
- eni va chuqurligi balandligiga nisbatan ko'proq ustunlikka ega.

Hajmiy kompozitsiyaga past gorizontalar qaralsa, mahobatlilik taassuroti vujudga keladi. Tomoshabinning shaklga yaqinlashgan sari uning qirralari perspektiv qisqarish ortadi. Shaklga tomoshabinning 30° burchak ortida qarash optimal hisoblanadi. Bunda shaklning barcha qismlari ko'rinish maydoniga tushadi. Hajmiy shakllarning ko'rinishiga yuqoridagi shartlardan tashqari uning yuzasining bo'linishi va og'irligi

ham ta'sir qiladi. Frontal kompozitsiyaga nisbatan ko'rilgan bo'linish turlari va usullari hajmiy kompozitsiya uchun ham o'z kuchini saqlaydi. Bir necha alohida hajmlardan iborat bo'lgan kompozitsiyada hajmlarning ikki xil o'zaro bo'ysunishi bo'lishi mumkin: dominantli va dominantsiz. Dominantli – barcha hajmlar o'z og'irligi bo'yicha nisbatan tengdir. Ko'p hollarda hajmiy kompozitsiyaning birligi va butunligi uchun shaklning barcha belgilarni o'ziga bo'ysundiruvchi kompozitsion markazning aniqlab ko'rsatilishi muhim ahamiyatga ega. Predmetning bir yuzasi (tomoni), kompozitsiyaning ayrim hajmiy qismi yoki alohida shakl bunday markaz bo'lishi mumkin. Hajmiy kompozitsiya barcha qismlarining kompozitsiya markaziga nisbatan joylashishiga qarab shaklning simmetrik yoki asimmetrik ekanligi aniqlanadi. Ko'pincha vertikal simmetriya o'qiga yoki vertikal simmetriya tekisligiga ega bo'lgan kompozitsiyalar uchraydi.

Chuqur – fazoviy kompozitsiya moddiy elementlar yuza, hajm, fazo va ular orasidagi intervallardan tashkil topadi. Kompozitsiyaning eni va chuqurligi ko'rsatkichlari hamda balandligi, chuqurligi nisbatiga qarab uni chuqur–fazoviy kompozitsiyaga kiritish me'yorlari mavjuddir. Yopiq fazoning chuqurligini aniqlash misoli ko'rsatilgan. Chuqurlik darajasi ushbu fazoda dominant shaklning turli holatda joylashishiga qarab o'zgaradi. Chuqurlilik darajasi kompozitsiyaga fazoni bir qator ketma-ket planlarga bo'luvchi belgilar kiritilishi tufayli kuchayishi mumkin. Bu usul teatr dekoratsiyalari kompozitsiyalarida ko'p ishlatiladi. Chuqurlikni ifodalash uchun fazo chegaralarining mavjud bo'lishi yetarli emas. Chuqurlikni sezishga yordam beradigan qo'shimcha shaklni bo'luvchi belgilar kiritilishi lozim. Bo'linish ma'lum chegaraga ega, undan ortib ketsa, bo'linish faktura bo'lib tuyuladi. Fazo chuqurligini ifodalash uchun ishlatiladigan yuqoridan qayd etilgan usullardan tashqari «qirqim» usuli deb atalgan usul ham mavjud. Bunda ushbu fazo ichkarisiga o'zining katta o'lchami bilan yo'naltirilgan shakl uni qirqish harakatini yuzaga keltiradi. Shaklni shaklga ustma-ust qo'yish usuli shundan iboratki, bunda biri ikkinchisini bekitishi kerak. Bu ichkariga qarab shakllarning ketma-ket joylashishini kuzatish imkonini beradi. Perspektiva usuli – fazo chuqurligini ichkarisini berishning eng kuchli usullaridan biridir; bunda chiziqli va havoli perspektivadan foydalaniladi. Tomoshabinga yaqin joylashgan shakllar o'lchamlari, undan uzoqroq joylashgan hududi shunday shakllarga nisbatan kattaroq tuyuladi. Ular aniqroq va relyefliroq bo'lib ko'rinadi.

SHARQ MINIATURA SAN'ATI

Hind miniatura maktabi. XVIII asrlarda Shimoliy Hindistonning poytaxt shaharlari Agra, Dehli, Lohurda rivoj topgan hind miniatura maktabi o'ziga xosligi va yuksak badiiy xususiyatlari bilan Sharq miniatura rassomchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Bu miniatura rassomchiligining shakllanishi va taraqqiyotida qadimgi mahalliy hind tasviriy san'atining boy an'analari bilan bir qatorda qo'shni va chet mamlakatlar bilan Hindistonning faol madaniy munosabatda bo'lganligi alohida ahamiyatga ega. Bu Movarounnahr (Samarqand, Buxoro), Xuroson (Hirot), Janubiy Ozarbayjon (Tabriz), Eron (Sheroz) va G'arbiy Yevropa rassomchiligining hind miniaturasidagi ta'sirida seziladi. Jumladan, qo'shni mamlakatlardan ko'pchilik olimlar, shoirlar, mohir rassomlar, xattotlar va boshqa san'at namoyandalari Hindistonga kelib yashab, hind madaniyati taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shganlar. Mana shunday shaxslardan tarixchi G'iyosiddin Xondamir, tabib Yusuf Yusufiy, shoir Qosim Kuhiy Samarqandiy, rassomlardan Mir Said Ali, Abdusamad Sheroziy, Farruxbek kabi ko'plab aql-zakovat egalarini sanab o'tish mumkin. Hind miniatura rassomchiligi o'ziga xos maktab sifatida XVI asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo'lsa-da, hind tasviriy san'ati, xususan rassomchiligi juda ko'p asrlik boy an'analarga ega edi. Hindiston hududida joylashgan buddistlarning qadimgi Ajanta (er.avv. II asr – er. VII asrlari), Bagha (IV-VIII asrlar) tog'lariga o'yilgan ibodatxonalarning devoriy rasmlari bizgacha yetib kelgan. Bu qadimgi devoriy rasmlarning aksariyati buddizm adabiyoti yodgorligi «Jatak»larga, ya'ni buddizm asoschisi shahzoda Goutimaning afsonaviy hayotidan olingan masallar va naqllar to'plamlariga ilova tarzida yaratilgandir. Bu rasmlar yuksak san'at asari sifatida dunyoga mashhur Pompey devoriy rasmlari qatorida turadi. XI-XV asrlar davomida yaratilgan, palma barglariga bitilgan qator diniy kitoblarni ham rasmlar bilan ziynatlash odat bo'lgan. Qadimgi hind adabiyoti yodgorliklarida ham rassomlar, ularning ishlari to'g'risida ayrim ma'lumotlar berilgan. Hatto boburiylar imperiyasi bunyod etilgunga qadar Dehli, Gujorat va Bengaliyada yaratilgan turli rasmlar qo'lyozmalarining bir nechta si saqlanib qolgan. Ammo bu miniatura rasmlar asosan kichik madaniy markazlarda yaratilgan bo'lib, o'zining soddaligi, kompozitsiyasining ko'proq shartliligi, kam ranglardan foydalanganligi va chiziqlarning nisbatan dag'alligi bilan xarakterlanadi.

XVI asrning ikkinchi yarmida boburiylar saroyi qoshida maxsus rassomchilik ustaxonasining ochilishi, chetdan kelgan rassomlar bilan bir qatorda mahalliy diniy markazlarda yashab ijod etib kelgan san'atkorlarning qobiliyatini keng namoyish etishga sharoit yaratdi. Hind miniatura rassomchiligi XVI asrning ikkinchi yarmida Jaloliddin Muhammad Akbar (1556-1605) davri san'at voqeligi sifatida ma'lum bo'lib, aslida bu rassomchilik maktabiga Bobur va Humoyun asos solgan. Hindistondagi yangi sulola asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur (1525-1530) shoir, xattot, olim bo'lishi bilan bir qatorda rassomchilikka juda qiziqqan. Uning shoh asari «Boburnoma»dan ma'lumki, u tabiat manzaralarini, odamlar qiyofasini usta rassomlardek tasvirlaganki, ular kitobxon diqqatini darhol o'ziga tortadi. Mana shu xususiyat uchun bo'lsa kerak, hind rassomlari bu kitobning forscha tarjimasi qo'lyozma nusxalarini bir necha marta ko'plab nafis rasmlar bilan ziynatlaganlar. Bundan tashqari, «Boburnoma»da to'rtta hirotlik va samarqandlik rassomlar – mashhur ustod Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, Boysunqur (Sulton Mahmud Mirzo o'g'li), Haydar Mirzolarning nomlari tilga olingan. Bobur o'zining Movarounnahrdagi sarguzashtlarga boy va tahlikali hayoti davomida ancha yosh bo'lishiga qaramasdan, otabobolari temuriylar kutubxonalaridan qolgan har bir nodir qo'lyozmani, hatto uning varaqlarini yig'ib, jamlab, hammasini keyinchalik Hindistonga olib ketgan. Bobur vatanidan Hindistonga olib ketilgan bu nodir qo'lyozmalar hind miniatura rassomchiligining shakllanishida juda katta rol o'ynaganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Chunki hind rassomlari o'z mahoratini oshirish maqsadida saroy kutubxonasidagi Markaziy Osiyodan keltirilgan rasmlardan nusxa ko'chirib rassomlik sirlarini o'rganganlar. O'rni kelsa, o'z ustozlaridan o'tishga harakat qilganlar va eng mohir san'atkorlar bunga erishganlar. Boburning o'g'li Nasriddin Muhammad Humoyun (1530-1542, 1555-1556) hind rassomchiligi tarixida saroy qoshidagi rassomchilik ustaxonasining asoschisi sifatida tanilgan. Tarixchi Abulfazl Allomiyning guvohlik berishicha, u nodir rasmlar qo'lyozmalarni shu qadar qadrlaganki, hatto harbiy yurishlar vaqtida ham ularni o'zi bilan birga olib yurgan. Lekin ayrim tadqiqotchilar Humoyunning hokimiyatdan chetlatilgan paytida Shoh Tahmosib huzurida ma'lum vaqt (1543-1544-yillar) bo'lganligini nazarda tutib, unda rassomchilik san'atiga havas safaviylar bilan birga bo'lgan davrda uyg'ongan deb o'rinsiz da'vo qiladilar. Humoyunning Shoh



Chingiz Axmarov shogirdlari bilan



G.Karimov, T. Boltaboyev va X. Nazirov



Chingiz Axmarov.
«Raqs». 1977-y.



J. Umarbekov. «Navoiy va Boyqaro»,
Toshkent, 1968-y.



Bahodir Jalolov. «Umar Xayyo'mning
tushlari». Toshkent, 1986-y.



Temuriylar tarixi Davlat
muzeyining ichki qismi.
Uchlikning markaziy qismi.
«Buyuk yaratuvchi». Toshkent,
1996-y.



Toir Boltaboyev. Lakli miniatura. Toshkent, 1997-y.



Xurshid Nazirov. Lakli miniatura. Quticha. Toshkent, 1999-y.



Musavvir akademik Shomahmud Muhammadjonov



*Sh. Muhammadjonov. «Siyovushning olov sinovidan o'tishi».
Toshkent, 1982-y.*



*N. Xolmatov. «Ov». Quticha.
Toshkent, 1989-y.*



*Musavvir akademik
Niyozali Xolmatov*



N. Xolmatov. «Bobur». Quticha. Toshkent, 1982-y.



Musavvir Abduhakim Karimov ijodidan



*A. Karimov. «Hayot-mamot». Teri.
Tempera 16x25. Toshkent, 2003-y.*








*A. Karimov «Musiq». Qog'oz.
Tempera 13x9. Toshkent, 2004-y.*





Musavvir Shorasul Shoahmedov




Sh. Shoahmedov. «Buyuk ipak yoli». Toshkent, 2002-y.






1-gul



2-gul





3-gul




4-gul


Oddiy naqsh elementlarini bosqichlari bo'yicha chizish





5-gul




6-gul




7-gul



8-gul



9-gul





10-gul







Oddiy naqsh namunalarini ranglarda ishlash



*Aylana va boshqa ko'p burchak yuzalariga
naqsh kompozitsiyasini ishlash*




Vositiy. «Suvoriylar ko'prigi».
Bag'dod, 1237-y.



Vositiy. «Sayyor mashshoqlar».
Bag'dod, 1237-y.



Zamonaviy Eron miniaturasi



Tabiatdagi o'simliklar, gullar, daraxtlar, qushlar tasvirini ishlash



Qush va hayvonot tasvirini ishlash



Inson qomati qoralama tasvirlarini ishlash



***Bahodir Yo'ldoshev.
Liboslar tarixi va ularni
badiiylashtirish.
Toshkent, 2004-y.***



***M. Yakubov. Libos tarixi
va ularni badiiylashtirish.
Toshkent, 2003-y.***



***Jalalzoda Mustaf. «Sulton
Sulaymon lashkarlari
bilan». XVI asr***



***Jalalzoda Mustaf. «Chodir oldidagi
a'yonlar». 1543-y.***



Nizomiy «Hamsa»siga ishlangan rasmlar



***K. Behzod. «Xabarnak qal'asining qurilishi». Me'morchilik obidalari
va ko'p qomatli murakkab kompozitsiyalar ishlash***



A. Karimov. «Shohona ov». Toshkent, 2006-y.



Ch. Axmarov. «Sabbai Sayyor». Chinni va sopol buyumlarga kompositsiya ishlash



Aylana shakldagi qutichaga «Buyuk ipak yo'li» mavzusiga kompozitsiya



Alisher Navoiyning «Xamsa» qo'l yozmasi va unga ishlangan rasmlar



Sirojiddin Ziyomoʻv. Toʻr va chilim qovoqlarni bezash

Tahmosib mehmoni bo'lgunga qadar ham rassomchilikka qiziqqanini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Chunonchi, Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarida uning kitoblarga qiziqishi qayd etilgan. Humoyun Shoh Tahmosib mehmoni bo'lib turgan vaqtda unga asli termizlik rassom Mir Mansur Musavvirni tanishtiradilar. Uning rasmlarini ko'rib Humoyun juda zavqlanadi: «Agar mening xizmatimga shu rassom berilsa, uning uchun Hindistondan ming tuman pul jo'natishga roziman», deydi. Shu voqeadan so'ng Humoyun Mir Mansur Musavvir, uning o'g'li Mir Said Ali, Abdusamad Sheroziyga, agar u Qobul taxtini egallasa, o'z xizmatiga qabul etishga va'da bergan bo'lsa kerak. Humoyun Qobul taxtini egallagandan so'ng, saroy qoshida rassomlik ustaxonasini tashkil qilib, unga yuqorida nomlari tilga olingan san'atkorlardan tashqari yana Mavlono Do'st Muhammad, Mavlono Darvish Muhammad, Mavlono Yusuf kabi ustod Kamoliddin Behzodning shogirdlari va safdoshlarini ham o'z xizmatiga olganligini tarixchi Boyazid Bayot o'z xotiralarida yozib qoldirgan. Noma'lum muallif tomonidan bitilgan, hozirgi kunda Hindistonning Patna shahridagi Xudo Baxsh nomli Sharq qo'lyozmalari kutubxonasida saqlanayotgan forscha «Tarix-i xonadon-i Timuriya» nomli asar qo'lyozmasida qayd etilganidek, Humoyun va uning o'g'li Akbar rassom Abdusamad Sheroziydan rassomchilik sirlarini o'rganganlar. Xattotlar va rassomlar haqidagi qimmatli manba «Gulistoni hunar» asarining muallifi Qozi Ahmad Qumiyning yozishicha, ustod Kamoliddin Behzodning mahoratda tengsiz shogirdlaridan bo'lmish Do'st Devona ismli rassom ham Hindistonga ketib, shu yerda shuhrat orttirgan ekan. Bu mohir rassomning mashhur Mahmud Muzahhib bilan hamkorlikda yaratgan rasmlari bilan ziynatlangan nodir qo'lyozma asarlaridan biri hozirgi kunda Hindistonning Haydarobod shahridagi Salorjang muzeyi fondida saqlanmoqda. Bu nodir rasmlarning yuksak badiiy saviyasi haqiqatan ham ularning muallifi Do'st Devonaning yorqin iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Boburiylar saroyi qoshidagi maxsus rassomchilik ustaxonasiga Humoyun tomonidan asos solingan bo'lsa-da, yuqorida zikr etilganidek, hind miniatura rassomchilik maktabining taraqqiy etishi, yangi rassomchilik uslubining shakllanishi Boburning nabirasi Akbarning taxminan yarim asrlik hukmronlik davriga to'g'ri keladi. U yoshligidanoq xattotlik va rassomlik taraqqiyotiga juda katta e'tibor berib, saroy qoshidagi ustaxona rassomlarini jalb etishda

shaxsan o'zi bosh-qosh bo'ladi. Haftaning ma'lum kunida musavvirlar ishlarini nazoratdan o'tkazib, muvaffaqiyatga erishgan san'atkorlarga in'omlar tuhfa etgan yoki ularning oylik maoshini ko'paytirib turgan. Chunki Akbar, kishilar bilim doirasini kengaytirishdagi rassomchilik va xattotlikning rolini juda muhim va zavq olish manbai deb hisoblab, rassomchilikni ta'qib etuvchi o'ta mutaassib ruhoniylardan dadil himoya qilgan. «Nafois ul-Muasir» nomli tazkiraning muallifi Mir Alaudavla Qazvinining yozishicha, XVI asrning yetmishinchi yillariga kelib Saroy qoshidagi rassomchilik ustaxonasida turli madaniyat markazlaridan jalb qilingan, musavvirlikda ustod Behzodday mohir, afsonaviy moniysifat san'atkorlar «Nodir ul-Mulki Humoyun» unvoniga sazovor bo'lgan Mir Said Ali rahbarligida «Qissai Amir Hamza» nomli romantik afsonaga nisbatan kattagina bichimdagi (52x68 sm) matoga rasm ishlash bilan mashg'ul bo'lganlar. Ular 1570-yilgacha, ya'ni Mir Said Alining haj qilish bahonasi bilan saroy korxonasidan ketganga qadar, uning bevosita rahbarligida «Qissai Amir Hamza»ning har biri yuz rasmdan iborat to'rt jildigina tayyor bo'lgan edi. Bu rasmlarning yuksak badiiy xususiyatini tan olib, tazkiranavis: «Bunday ajoyib rasmlarni tabiatu osmon yaratilib, u yulduzlarga to'lgandan buyon hech kim ko'rgan emas», deb hayratlangan. «Qissai Amir Hamza» afsonalarini rasmga ko'chirish keyinchalik «Shirin qalam» unvoniga sazovor bo'lgan Abdusamad Sheroziy rahbarligida davom ettirilib, mutaxassislarning yozishicha, rasmlarning umumiy soni 2800 taga yetkazilgan ekan. Ammo kamida yigirma yil davomida ko'plab hind rassomlarining hamkorligida yaratilgan bu noyob san'at namunalaridan bor-yo'g'i yuzdan ortiq rasm bizgacha yetib kelgan, ularning ko'pchiligi Avstriya poytaxti Vena shahri muzeyida, qolganlari esa dunyoning turli fondlariga tarqab ketgan. «Qissai Amir Hamza» rasmlari hind miniatura rassomchiligi tarixida alohida davrni tashkil qiladi. Akbarning vaziri va tarixchisi Abulfazl Allomiy «Oini Akbari» asarida rassomchilik to'g'risida alohida to'xtalib, to'rtta ustod rassomlar Mir Said Ali, Abdusamad Sheroziy, Dasvanth va Basovanning nomlarini katta ehtirom bilan qayd etadi. «Bu san'at sohasida, – deb davom etadi tarixchi, – yana Kesu, La'l, Mukund, Miskina, Farrux Qalmoq, Madhu, Jagan, Mahesh, Khemkaran, Haribans, Sanvala, Tara va Ram ham katta muvaffaqiyatga erishib mashhur bo'lgan edilar». Hind miniatura san'atining taraqqiyotida chetdan kelib Hindistonda yashab ijod etgan san'atkorlarning xizmatini haqli ravishda tan olgan Abulfazl Allomiy mahalliy musavvirlarning ham rolini aslo inkor etmaydi. Yuqorida

nomlari alohida qayd etilgan o'n yetti rassomning faqatgina uchtasi hind rassomlaridir. Shuning uchun bo'lsa kerak, Abulfazl hind san'atkorlarining rassomlikdagi qobiliyatini juda yuqori baholab: «Ularga bu sohada teng keladiganlar dunyoda juda kam topiladi. Hind rassomlarining asarlari inson mushohadasini lol qoldiradigan darajada ajoyibdur», – deydi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, bu davrda hind rassomlari faqatgina saroy rassomchilik ustaxonasidagina yig'ilgan bo'lmay, ayrim nufuzli shaxslar huzurida ham yashab ijod etganlar. Tarixchilar atiqli sarkarda, shoir, tarjimon va homiy Abdurahimxon Xon-i Xonon, shoir Bayramxon o'g'li («Boburnoma»ni forschaga tarjima qilgan), shaxsiy kutubxonasida ham bir guruh rassomlar va xattotlar ijod etganini yozib qoldirganlar. Umuman, XVI asrning ikkinchi yarmi hind miniatura rassomchiligi tarixiga asosan nodir qo'lyozmalarga rasm ishlash davri bo'lib kirdi. Akbar hukmdorlik qilgan davrining oxirida uning kutubxonasini ko'zdan kechirgan yevropalik sayyoh u yerda 24000 jild qo'lyozma kitob jamlanganligini yozib qoldirgan. Albatta, bu kitoblarning ko'pchiligi hind rassomlari tomonidan rasmlar bilan ziynatlangan edi. Hozir bu noyob san'at durdonalari dunyoning turli qo'lyozma fondlariga tarqalib ketgan. Akbar hukmdorligidan keyin ham qo'lyozmalarni rasm bilan ziynatlash davom etgan bo'lsa-da, keyin bu davrdagidek ko'p rasimli nodir qo'lyozmalar yaratilgani ma'lum emas. Akbarning o'g'li Nuriddin Muhammad Jahongir (1605-1627) davrida alohida qog'ozlarga, mustaqil mavzuga bag'ishlangan rasm ishlash keng odat tusiga kiradi. Jahongir o'zi haqida yozishicha, u hamkorlikda yaratilgan rasmlarda har bir rassom qaysi detalni chizganini ajrata olgan. Bu uning rassomlik san'atini chuqur tushunganidan dalolat beradi. Darhaqiqat, u rassomlikka juda qiziqib, shahzodalik paytidayoq, o'z homiyligiga Hirotdan kelib qolgan Oqo Rizo ismli rassom va uning o'g'li Abulhasanni olgani ma'lum. Jahongir rasm to'plashga shunchalik qiziqqanki, maxsus odamlarni Movarounnahr, Xuroson va Erondan rasimli qo'lyozmalarni sotib olish uchun yuborib turgan. U saroyda maxsus nigorxona tashkil qilib, eng mo'tabar mehmonlarga rasmlarni shaxsan o'zi olib yurib ko'rsatgan. Shuningdek, Jahongir G'arbiy Yevropadan keltirilgan yaxshi rasmlarni juda qadrlab, ulardan hind rassomlariga nusxa ko'chirishlarini topshirganligini Angliyaning Hindistonga yuborgan elchisi ser Tomas Roy yozib qoldirgan.

Rassomlar orasida ustod Mansur hayvonot va nabotot tasvirida benazir bo'lib, «Nodir ul-asr» faxriy unvoniga sazovor bo'lgan. Bu davrda ijod etgan rassomlardan yana Manohar, Vishnu Daslar ham yuksak mahorat cho'qqisiga erishadilar. Vishnu Das ismli rassomning portret chizishdagi mahoratini yuqori baholagan Jahongir uni elchilar bilan Eronga jo'natib Shoh Abbosning rasmini chizib kelishni topshirgan. Hind rassomlarining portret sohasidagi muvaffaqiyatini mashhur ingliz portretchisi ser Joshua Reynolds ham Britaniya muzeyidagi portretlar jamlangan muraqqani ko'rib, hayratlanib tan olgan edi. Jahongir davridagi rasmlar alohida muraqqalarga jamlangan bo'lib, bular hozirgi kunda Angliya, Eron, Hindiston, Sankt-Peterburg, Moskva muzeylarida saqlanmoqda.

Jahongirning o'g'li Shahobiddin Muhammad Shohi-Jahon (1628-1658) san'at sohasidagi asosiy e'tiborini me'morchilik taraqqiyotiga qaratsa-da, bo'sh vaqtlarini Saroy kutubxonasidagi nodir qo'lyozmalarni mutolaa qilish bilan o'tkazgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, bir paytlar boburiylar kutubxonasining faxri hisoblangan, hozirda dunyoning turli fondlariga tarqab ketgan nodir qo'lyozmalarda Shohi-Jahonning dastxat eslatmalarini uchratish mumkin. Shohi-Jahon davrida ham alohida rasmlar yaratish davom etdi. Lekin bu davrda yaratilgan rasmlarda podshoh va a'yonlarning haddan tashqari boylikka va dabdabaga berilganligi o'zining badiiy aksini topgan. Rassomlardan Govardhan, Bichitr, Chitarman ismli mahalliy san'atkorlar bilan bir qatorda Muhammad Nodir va Muhammad Murod ismli samarqandlik rassomlar ham yuksak badiiy asarlar yaratganlar. Rassomlarning asarlarida Sharq miniatura xususiyatlari G'arbiy Yevropa rassomchiligi an'analari bilan uyg'unlashib, perspektiva, yorug'lik va soya ko'p uchraydi. Avrangzeb Olamgir (1658-1707) davrida Saroy rassomchiligi san'ati o'z holiga tashlab qo'yildi. Shu davrda Hindistonda bo'lgan fransuz sayyohi va vrachi Fransua Bernening yozishicha, Saroy rassomlarining mahorati juda yuksak bo'lib, moddiy ta'minoti ham yaxshi bo'lgan. Ammo oddiy rassomlarning ahvoli juda ayanchli bo'lgan. Zodagonlar rassomlarni yollab, rasm bitganidan so'ng istaganicha haq to'lab, gohida haq to'lamay quvib yuborganlar. XVIII asr davomida yuz bergan boburiylar saltanatidagi tushkunlik miniatura san'atining ham tanazzuliga bo'lgan asosiy sabablardan biridir. Bu davrdagi rasmlarda o'tmishdagi mashhur san'atkorlar asarlariga taqlid kuchaydi. Hukmronlar homiyligi susayganligi

sababli rassomlar oddiy xalq hayotini ko'proq aks ettirdi. Hind miniatura rassomchiligi bu davrda juda ko'p mahalliy rassomchilik maktablarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

SOPOL YOKI CHINNI BUYUMLARI UCHUN KOMPOZITSIYA ISHLASH

Sopol yoki chinni buyumlarda X-XVIII asrga oid yozuvli va bezakli hayvonlar tasviri motivlari o'rnini yanada hayotiyroq talqin etilgan qushlar va o'simliklar tasviri bilan almashdi. Oq, qizil va qora, jigarrang majmuasi loyqalangan sir tagidagi yashil naqshlar ko'k-oq rang jamlamasi yoki erkin- moviy quyma tagidagi qora rang soyasi berilgan naqshlarga o'rnini bo'shatib berdi. XIV asr oxiri va XV asrda Markaziy Osiyo kulolchiligida rang va bezakning yangicha o'zgarishi ma'lum darajada Xitoy kulolchiligi ta'siri bilan izohlanadi. Xitoy sopoli buyumlarini olib kelish avvalgi asrlardayoq amalga oshirilgan. Markaziy Osiyoning qadimgi shahar qal'a xarobalarida xira yorug' aksi mavjud sirlangan, go'zal va bo'yog'i muloyim pistoqi - yashil tusda bo'lgan chinnisimon seladonlar tez-tez uchrab turadi. Ammo seladonlar bu yerdagi haqiqiy chinni kabi hayratga solgan emas. Xitoy chinnisi ta'sirida Markaziy Osiyo kulolchiligida oq-moviy rang ustunlikka erishdi. Oq-moviy sopol idishlar Amir Temur davlatida yo'lga qo'yilgan keng xalqaro aloqalarni ifoda etadi. Xitoydan keltirilgan buyumlar tarkibida kaolin loyidan yasalgan chinni-kobalt bilan naqsh solingan oppoq qordek sopol bo'lgan. Markaziy Osiyo ustalari chinni tayyorlash sirlarini bilisha olmagach, kaolin o'rniga sopolchilikda XII asrdan beri, me'morchilik o'yma bezaklarida esa XIV asrdan boshlab ishlatilayotgan koshindan foydalanishdi. Bezaklarida xitoyliklar fors mamlakatidan olib kelib ishlatadigan metall kobaltni, ba'zida esa qoramtir-yashil, keyinroq siyohrangni qo'llashgan. Xitoy chinnisining ta'siri idishlarning o'zi va bo'yog'iga taqlid tarzida namoyon bo'lib, xitoycha naqshlarning ko'plab takrorlanishiga olib keldi. Ammo ilk davrlarda xitoycha badiiy motivlar va ramzlar, bir juft shaftoli, bulutmonand shakl to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilgan bo'lsa, bu motivlar asta-sekin islmiy bezaklar uslubiga yaqinlashib, o'zgarib bordi. Temuriylarning saroy, bog', shiypolarini bezagan yirik guldorlar parchalaridagi naqshlar ko'proq, Xitoy namunalari yo'lida ishlangan. Oppoq qordek koshinlarda goh erkin, goh muloyim ko'k kobaltdan ishlangan rangin

kompozitsiyalar ko'zga tashlanadi. Xitoy uslubida ishlangan nilufar gullari va burmalari goh egiluvchan qochirma tarzda, tosh shaklli jimjimador lavhalarda joylashtirilgan. Ammo markaziy osiyolik ustalar u yoki bu unsurlarni o'zlashtirganlari holda, ko'r-ko'rona taqlid qilishdan yiroq bo'lganlar. Ularni o'zlaricha talqin qilishib, yangicha motivlarni kirgizishgan, vaqti-soati bilan sopol idishlar bezagida rangtasvir va yengil oqma mujassam etilgan o'ziga xos rasm uslubi ishlab chiqildi. Tasviriy motivlar-mevali butoqlar, qushlar qo'nib turgan novdalar kosa yoki idishning oq yoxud ko'k fonida erkin joylashtirildi. Ba'zan markaziy kompozitsiyalar yaratildi. Bundan bezak akvarel suratni eslatib, tabiatning lirik timsolini mujassam etadi. Kulolchilik bezagidagi uslub rivoji islomdagi barcha san'atga daxldor o'zgarishlardan kelib chiqqan bo'lib, aslida ular islom shakllanishining birinchi asrlaridayoq boshlangan. Keyinchalik bunday harakat miniatura san'atida o'zining yorqin ifodasini topdi. Bora-bora kulolchilikda bir xil rang o'rniga yorqin-ko'k bezak bo'lmish ko'pranglik kirib keldi. Radius bo'ylab naqshni bir maromda joylashtirish o'rniga xuddi xomaki qilib chizayotgandek mo'yqalamni erkin yurgizish, naqshni andoza qilib takrorlash o'rniga erkin shakllanayotgan rasm, belgilar va ramzlar o'rniga realistik talqin etilgan motivlar paydo bo'ldi. XV asr badiiy kulolchiligi yangilik kashf etish yo'lidan borib, o'zida amaliy san'atning yangi yo'nalishlarini namoyon eta boshladi. Agar avvalgi asrlarda naqsh sohasi, uning ortida gulchambarsimon uslub ustunlik qilgan bo'lsa, endi uning o'rniga erkin uslub-rangtasvir kirib keldi. Sopolchilikda yorqin motiv sirlangan qoramtir rasm sharpasi mavjud bo'lsa, demak, bu XIV asrdagi mahalliy an'analarning saqlanib qolganligidan dalolat. Ammo mavzular turkumi tamoman o'zgargan o'simliksimon motivlarda tabiatga sadoqat seziladi. Ularning idish ustki sathida joylashtirilishi erkin. Ular beldagi chiziq yoki o'q atrofiga aniq handasaviy usulda joylashtirilmagan bo'lsada, shaklning kompozitsiyasidagi aniqlik buzilmagan. Temuriylar davri sopol idishlarining shakllari ham rang-barang bo'lgan. Buning ikki turi keng tarqalgan. Chuqur, uzuksimon oyoqda, chetlari tekis, yassi qayrilgan, chekkalari baland bo'lmagan turli devorlari tekis ko'zalarining shakli rango-rang. Ulardan ayrimlarining shakliy ko'rinishlari kamyob. Ularning muqobillarini uchratish ham qiyin. Aftidan, ular maxsus buyurtma asosida, chegaralangan miqdorda tayyorlangan. Ko'rinib turibdiki, chinnisimon buyumlarning deyarli

barchasi, xususan, mana shu davrda shakllantirilgan. Kulolchilikdagi bezakning tubdan o'zgarishi XV asr Movarounnahr badiiy madaniyatining barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatgan tarixiy jarayonlar in'ikosidir. Ta'kidlash lozimki, ushbu yo'nalishlar ushbu davr miniatura-rangtasviri uchun ham xos xususiyatdir. Garchi bevosita miniatura bilan bog'liq, muqobil misollar bo'lmasada faqat Niso kulolchiligida temuriylar davri miniaturasidan olingan sujetlar va obrazlar uchraydi. Kulolchilik bezagidagi rangtasvir uslubi XV asrda san'atni yuksaklikka ko'targan uyg'onish davri yo'nalishlarini aks ettiruvchi yana bir dalil bo'la oladi. O'quvchilar o'tmishdagi ota-bobolarimizning tarixini, milliy an'analarimizni chuqur o'rgangan holda, zamonaviy sopol yoki chinni buyumlari uchun kompozitsiyalar ishlaydilar. Bunday kompozitsiyalar yaratishlarida Rishton, G'ijduvon kulolchi ustalar hamda ustoz rassomlarimiz Chingiz Axmarovning chinni laganlarga ishlagan «Yetti go'zal» va Raxmatulla Aripjonovning «Atlas», «Oq oltin» nomli paxta gulli choynak, piyolalar to'plamlari, Xiva, G'ijduvon, rishtonlik badiiy kulolchilik ustalari va ularni ishlash texnologiyalari bilan tanishib chiqqan holda, o'zlarining kompozitsiyalarini ishlash tavsiya qilinadi.

QUTICHAGA «BUYUK IPAK YO'LI» MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA ISHLASH

Quticha yasash texnologiyasi. Lakli miniatura san'ati qadimdan mavjud bo'lgan san'at turidir. O'zbek xalqining amaliy bezak san'atida turli shakldagi qutichalar, qalamdonlar, kitoblarga muqovalar, milliy qo'g'irchoqlar yasashda tosh qog'ozdan yasash uslubini ko'ramiz. O'quvchilar kompozitsiya ishlash uchun birinchi navbatda tosh qog'ozdan qutichalar yasaydilar.

1-bosqich. Toshqog'oz – qog'ozni bir-birining ustiga qavat-qavat qilib yopishtirib, uni kuchli bosimda presslab, ma'lum qalinlik hosil qilinib, ishlov berilgan yengil, puxta ashyo. Toshqog'ozning afzalligi shundaki, unda yorilish xususiyati bo'lmaydi. Hajmiga nisbatan yengil. Hozirgi kunda toshqog'ozdan yasalgan turli qutichalarni, qalamdonlarni, milliy o'zbek qo'g'irchoqlarini ko'rishimiz mumkin. Ularning asosi yog'och qattiqligida bo'lgan mustahkam va yengil kartonlarning qavat qilib yopishtirilgan holatidir. Bir necha qavat karton qog'ozini yopishtirish uchun un va suv mahsulotidan yelim tayyorlanadi. Karton qog'oz kerakli o'lchamda kesib olinadi. Yas

yuzali mo'yqalam orqali xamir yoki PVA yelimi surtiladi, so'ng uning ustiga boshqa karton qog'oz qo'yilib, bu jarayon kerakli qalinlikkacha olib boriladi. 50x50 sm karton panno tayyorlashda 1,5 sm atrofidagi qalinlik yetarli bo'lib, taxminan 10 qavat kartondan iborat bo'ladi. Bir-biriga yopishtirilgan kartonlar yaxshi, zich yopishishlari uchun ular presslangan holda 1 sutka davomida ushlanadi.

2-bosqich. Pressdan olingach, toshqog'oz 1 soat davomida temir idishda yog'da qaynatiladi. Eng yaxshi yog' zig'ir yog'idir. Chunki bu yog' boshqa yog'larga nisbatan tez quriydi. Yog'da qaynatilgan karton taxta yog'i oqib ketguncha temir panjara ustiga terib qo'yiladi.

3-bosqich. Bu jarayonlar tugagach, yog'li taxta qurishini tezlatish uchun issiqligi boshqariladigan pechka isitgich javonga terib qo'yiladi. Isitiladigan javon issiqligi xona issiqligidan boshlab har kuni 10° C qo'shib boriladi. Issiqlik 90° C ga yetgach, har kuni 10° C dan kamaytirib boriladi. Xona issiqligi 21° C bo'lsa, 81° C ga yetishi uchun 6 kun kerak bo'ladi. Yana ortga qaytish uchun 6 kun kerak bo'ladi. Demak, 12 kun davomida issiq temir javonda ushlangan yog'li karton taxta qurib ulguradi.

4-bosqich. Yaxshi qurigan karton taxtaning ust qismidagi qirralar egov yoki qum qog'oz yordamida yarim aylana holatiga keltiriladi. Burchaklar ko'proq kesilishi kerak bo'lsa, o'tkir pichoq bilan kesib ishlov berish mumkin. Yog' shimgan karton taxta pichoq yordamida juda yaxshi kesiladi. Ishlov berish yakunlangach, shpaklovka jarayoni boshlanadi. Ya'ni, panno sathi mayda notekislik va chuqurchalari shpatel yordamida 3-4 yupqa surtib quritilgan shpaklovka suvog'i bilan tekislanadi. Har bir shpaklovka surtishdan oldin qurigan suvoq mayin jilvir bilan ishlov beriladi. Shpaklovka – 100 g bo'r, duradgorlar yelimi – 10 g, zig'ir yog'i – 10 g bo'ladi. Shpaklovka qilib silliqlangan panno sathi moyli bo'yoq bilan 3 marotaba bo'yaladi. Har bir bo'yoq yaxshilab quritilgandan so'ng navbatdagisi surtiladi. Kerakli rang bilan tekis bo'yalgan panno sathini laklash jarayoni davom ettiriladi. Lak surtish ham 3 qavat bo'ladi. Laklash jarayonidan so'ng, lakli sath mayin jilvir yordamida ishqalab, yaltiroq sath olib tashlanadi. Ko'zga ko'rinmas mayin notekislik hosil qilinadiki, bu tuxumli tempera bo'yog'i sathga yaxshi yopishishi uchun kerak.

5-bosqich. Tayyor holga keltirilgan toshqog'ozlar kerakli o'lchamlarda qutichaning qopqog'i, yon tomonlari va asosi kesib olinadi. Ular PVA yelimi yordamida bir-biriga yopishtirib chiqiladi

va yaxshilab quritilgan qutichaning qopqoqlarining ochilib-yopilishi tekshirib ko'riladi. Qutichaning qopqoqlari bo'yoq va laklangandan keyin ham bemalol ochilib-yopilishi uchun oldindan hisobga olinadi va qum qog'oz yordamida kam-ko'stlari jilvirlab chiqiladi. Tayyor holga kelgan quticha suv tekkanda yorilib ketmasligi uchun birinchi navbatda turli o'simlik moylari yoki alif bilan to'ydiriladi va yaxshilab quritiladi. Kompozitsiya loyihasining koloritiga qarab quticha yuzasi moy bo'yoqda bo'yab chiqiladi. Ichki qismi esa qizil moy bo'yoq rangga bo'yilib, quritiladi. Qutichaning o'lchami, hajmi va murakkabligiga qarab uning ichki qismiga ayrim hollarda duxoba matosi yopishtiriladi. Qutichaga berilgan moy bo'yoq rangi qurigandan so'ng laklash bosqichiga o'tiladi. Qutichani laklashda rangsiz moyli lakdan foydalaniladi. Qutichani har xil changlardan asrash va sifatli quritish uchun yuqorida aytilgan issiqlik pechlardan foydalaniladi. Quritish jarayoni 60° C issiqlikda olib borilib, asta-sekinlik bilan sovitiladi. Laklangan quticha yuzasida kamchiliklar sezilganda qum qog'ozda jilvirlanib, u qaytadan laklanadi. Bu jarayon 3 marotaba takrorlanib, quticha tayyor holga keladi.

6-bosqich. Qutichaning aniq o'lchamini olib, qog'oz tanlab mavzu asosida kompozitsiya loyihalari bajariladi. Kompozitsiya ishlash jarayonida tabiatdan, hayvonot bog'idan, turli adabiyot va jurnallardan ashyolar to'planadi. To'plangan ashyolar asosida kompozitsiya yaratiladi.

7-bosqich. Quticha yuzasiga o'qituvchi tasdig'idan o'tgan miniatura kompozitsiyasini tushirish uchun, shaffof qog'oz (kalka)dan foydalaniladi. Tayyorlangan shaffof qog'oz axta deb nomlanadi. **Axta** chizilgan naqshning chiziq yo'llari igna yordamida teshilib, naqqoshlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligida va shu kabi xalq amaliy san'ati turlarida naqshni yuzaga ko'chirishda ishlatiladi.

8-bosqich. Quticha yuzasiga kompozitsiyani axta yordamida tushirishdan oldin uning yuzasidagi lakning yaltiroq qismi qirib tashlanadi va pishgan g'isht upasi yuzaga surib chiqiladi. Qutichaning laklangan yuzasi bilan ranglarning bog'lanishida hamda axtadagi kompozitsiyani yuzaga tushirishda upa muhim ahamiyatga ega. Chunki upa surilmagan taqdirda quticha yuzasiga ranglar berilganda ranglar bir joyga to'planib qoladi, axtadagi kompozitsiya nina yordamida yuzaga tushirilayotganda qora chiziqlarning paydo bo'lishiga yordam beradi.

9-bosqich. Kompozitsiya quticha yuzasiga to'liq tushirilgandan so'ng ranglash jarayoni boshlanadi. Quticha yuzasini ranglash to'rt bosqichda amalga oshiriladi. *Birinchi bosqichda* katta yuzalar: fon, kiyimlar, yuz va qo'l qismlari bo'yab chiqiladi. *Ikkinchi bosqichda* turlash, siyoh qalam ishlari, kiyimlardagi chiziq va burmalar bajariladi. *Uchinchi bosqichda* odam yuz qismidagi bo'laklar ingichka mo'yqalam yordamida ishlanadi. *To'rtinchi bosqichda* liboslardagi naqshlar, gullar bilan bezaladi va kompozitsiyadagi mayda qismlarga aniqliklar kiritiladi.

10-bosqich. Qutichaning yon tomoni (bo'rti) uning katta-kichikligiga qarab olti xil naqsh belgilari yordamida bezalishi mumkin.

1. Resfeyder yordamida rangli chiziqlar chizish.
2. Katta va kichik nuqtalar bilan bezash.
3. Zanjir naqsh kompozitsiyasini bajarish.
4. Qaytarilma naqsh yo'li (friz) bilan bezash.
5. Murakkab shakldagi qutichalarning kichik qirralariga g'uncha yoki gul, islimi naqsh kompozitsiyasi bilan bezash.
6. Qutichaning yon qismi baland bo'lgan hollarda yuza qismiga mavzuga bog'liq kompozitsiya ishlash.

11-bosqich. Quticha yuzasidagi kompozitsiyaning tugallanishining so'nggi bosqichida ustaning ijod qilgan shahri, nomi, yili va shaxsiy imzosi qo'yilgandan so'ng, tashqi muhit ta'siri quyosh, suv, issiq, sovuq, changdan saqlash va uzoq vaqt saqlanishi uchun laklardan foydalaniladi. Laklash va pardozlash ishlari 4-bosqichda bajariladi.

Birinchi bosqich. Quticha yassi yuzali mo'yqalam orqali rangsiz moyli lakda laklanib, pechda quritiladi. Buning uchun rassomchilikda foydalaniladigan laklar quyidagi talablarga javob berishi kerak: tashqi muhitga chidamlilik, elastik rangsiz qobiq hosil qilish, tez qurish va boshqalar. Lak tayyorlash uchun sifatli rangsiz smola va yog' kerak bo'ladi. *Smola* bu – daraxt va o'simliklardan olinadigan qattiq, shaffof, och sarg'imtir rangdagi modda. Smolalar tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy smolalarga yantar, kopal, dammar, mastika, xandon pista, kanifollar kiradi. Sun'iy smolalarga akril smolasi kiradi. *Moyli lak* – bu smolaning yog' bilan aralashmasidir. Lak tayyorlash uchun zig'ir yog'i, yong'oq yog'i yoki ko'knori yog'i ishlatiladi.

Ikkinchi bosqich. Quritish jarayonida yuzaga kelgan pufakchalarni yo'qotish maqsadida qum qog'oz bilan jilvirlanib, yana bir marotaba laklanadi va quritiladi.

Uchinchi bosqich. Quticha yana bir bor mayda qum qog'ozda jilvirlanib, o'simlik yog'i bilan qo'l kafti yordamida ishqalanadi.

To'rtinchi bosqich. Qutichaning yuzasi ko'k tosh kukuni bilan duxoba mato yordamida pardozlash ishlari bajariladi.

12-bosqich. Tayyor holga kelgan qutichani sifatli saqlash uchun kartondan quticha yasaladi va quticha abribahor, marmar yoki gul qog'ozlari bilan bezaladi. Marmar qog'oz yoki abribahor qog'ozlari qo'lyozma kitoblarning muqova ichki qismlari, she'rlar yozilgan varaqlar hamda varaq hoshiya qismlarini bezashda ishlatilgan. Uni tayyorlash ma'lum bir mutaxassislargagina ma'lum bo'lib, sir saqlangan. Marmar qog'ozni tayyorlashning bir necha yo'llari bo'lib, ulardan biri quyidagicha: 200 gramm miqdorda tragant yelimi 3 litr suvda eritilgan. Tragant yelimini topish imkoniyati bo'lmaganda, uning o'rniga zig'ir urug'ini suvga bo'ktirib, hosil bo'lgan suyuqlikdan foydalanish mumkin.

Tayyor bo'lgan eritmani bir necha marotaba yupqa matodan o'tkazib, yirik bo'laklardan tozalangan. So'ngra suyuqlik ishlov beriladigan qog'oz o'lchamidan kattaroq bo'lgan tog'orasimon idishga quyilgan. Bir qancha vaqt tindirilib, suvning yuziga chiqib qolgan ortiqcha chiqindilar olib tashlangan. Turli rangdagi pigmentlar maydalanib, alohida-alohida chinni idishchalarga solib, yelim bilan aralashtirilgan. Yangi buzoq o'tini jelch – mol va parrandalarning ichki a'zosidan olinadi. Bir oz isitilib, bo'yoqlar bilan aralashtiriladi. Bu bo'yoq va mol o'ti aralashmasi tog'oradagi eritilgan tragant ustiga mo'yqalam yordamida tomiziladi. Bunda oldin to'q ranglar, so'ng och ranglar tomiziladi. Bo'yoq tarkibidagi mol o'ti moddasi bo'yoqning qog'ozga singishiga yordam beradi. Ot dumidan tayyorlangan cho'tka yoki nozik cho'p yordamida suv sathida turli shakllar chiziladi. Shundan so'ng hosil bo'lgan rangli aralashma sirtiga oq qog'oz 5-10 soniya davomida yotqizilib, asta-sekinlik bilan ko'tarib olinadi. Shu vaqt davomida suv sathidagi rangli shakllar qog'oz sirtiga o'tadi. Qog'ozni orqa tomoni bilan yotqizib, soya joyda quritiladi.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, insonparvar mutafakkir, tengi yo'q so'z ustasi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'lmas asarlari bilan o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti miqyosiga ko'targan va insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shgan zotdir. Shoir va olim, jamoat va davlat arbobi bo'lmish Alisher Navoiy tom ma'nodagi insonparvar, xalqchil shoir, o'z xalqi taqdirini umuminsoniyat taqdiri bilan bog'lagan adib edi. Shuning uchun shoir asarlarining qahramonlari turli millat vakillari – o'zbek, eron, arman, yunon, arab, hind, negr, xitoy xalqlarining vakillaridir. Shuning uchun ham olijanob insoniy xususiyat egalari Farhod, Shirin, Majnun, Layli, Bahrom, Dilorom, Iskandarlar jahon adabiyoti qahramonlari qatoridan o'rin olgan. Alisher Navoiyning hayoti, ijodi, davlat, jamoat arbobi sifatidagi faoliyati XV asrning ikkinchi yarmi, Markaziy Osiyo va Xurosonda temuriylar hukmronlik qilgan, Movarounnahrda Samarqand, Xurosonda Hirot madaniy markazga aylangan davrga to'g'ri keladi. Ulug'bek, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Binoiy, Vosifiy, Sulton Ali Mashhadiy kabi mashhur zotlar yetishib chiqdilar. XV asrning birinchi yarmida, Shohruh davrida Hirot Xurosonning madaniy markazi darajasiga ko'tarilib, ikkinchi yarmida, Sulton Husayn va Navoiy davrida Ye. E. Bertels aytganidek, «O'sha davr Sharqning asosiy madaniy markazlarining biriga aylandi» (Бертелс Е. Е. Избранный труды Навоий и Джамии. – М.: 1965, с.21) Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari, ilm-fan, ayniqsa, adabiyot, san'at, me'morchilik keng rivoj topdi. To'g'ri, bu yuksak madaniyat mahsullarini, faqat yuqori tabaqa vakillari sotib olishga qodir edi, xolos. Manbalarda berilgan xabarlariga ko'ra, Hirot umuman malakali ustalar, hunarmandlar, me'morlar, xattotlar, naqqoshlar, nomlari haligacha tarixda qolgan ulug' shaxslar makoniga aylangan edi. Zahiriddin Muhammad Bobir aytganidek, jahonda Hirotdek shahar yo'q edi («...rub'i masqunda andoq shahr yo'qtur»). Hirotning shu darajaga ko'tarilishiga rahnamolik qilgan shaxs hazrat Alisher Navoiy edi. Bu haqda «Bobirnomada» juda adolatli so'zlar aytilgan: «Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim hargiz paydo bo'lmish

bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay» (Bobir Z. M. «Bobirnoma». – T: 1960, 233-bet.).

Bu so'zlar ulug' shoir va mutafakkir, ustoz va olim, yirik jamoat va davlat arbobi bo'lmish Alisher Navoiy Hirot madaniy hayotining homiysi, ilmu fan, adabiyot, san'at arboblarning valine'mati ekanligi zamona ahllari tomonidan e'tirof etilganining bir isbotidir. Mir Alisherning hayoti, faoliyati va umuman shaxsiyati Hirot madaniyati doirasi, arboblari bilan tarixan uzviy bog'liqdir. Hirotida xattotlik san'atining eng ajoyib namoyandalari Mir Ali Tabriziy, shoir, olim, rassom, naqqosh, xattot, sahhof, musiqachi, me'morlarning barchasi, Jomiydan boshlab to muqovachi Xalil Sahhofsacha Navoiy bilan ozmi-ko'pmi bog'liq bo'lgan. Buni Navoiy ijodining birinchi rus tadqiqotchisi M. Nikinskiy ham o'z asarlarida ta'kidlab, yirik madaniyat arbobi bo'lmish Mir Alisher Hirotida madaniyatning rivoj etishiga hormay-tolmay xizmat qilgan, deydi (Никицкий М. Эмир Низамиддин Алишер в государственном и литературном его значении. СПб. 1856, с. 1.). Ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharqda badiiy, ilmiy asarlar to XIX asrning oxirgi choragigacha xattotlar tomonidan ko'chirilib, qo'ldan-qo'lga o'tib kelgan. To'g'ri, Arab Ispaniyasida o'z vaqtida xatni yog'ochga o'yib ko'paytirish usuli ham bo'lgan, ammo bu usul keng rivoj topmagan va tez orada iste'moldan chiqqan. O'rta asrda Sharqda qo'lyozmalar inson tafakkuri asrlar, ming yillar davomida ajdodlar yaratgan ma'naviy boylik durdonalari maxzani bo'libgina qolmay, yagona tarbiya va bilim berish quroli ham edi. Shuning uchun yaqin vaqtlargacha ham qo'lyozma kitoblarni yaratishga katta ahamiyat berilgan. Qo'lyozma kitoblarning eng oliy, benazir namunalari Alisher Navoiy davrida Hirotida, ana shu zot yetishtirgan san'atkorlar tomonidan yoki uning homiyligida yaratilgan edi. Hatto maxsus xat usuli, keyincha asosiy uslub bo'lib qolgan mashhur «nasta'liq» xati ham ishlab chiqilgan edi. Kotiblik o'z navbatida madaniy hayotning qay darajada taraqqiy etganligini aniqlovchi omillardan biri hisoblangan. Qo'lyozma kitoblarni yaratishda bir necha mutaxassislar ishtirok etganlar: qog'ozrez, xattot, muzahhib (oltin hal beruvchi), lavvoh (sarlavha

va jadvallarni bezovchi), musavvir, naqqosh va sahhof (muqovasoz). Qo'lyozmalarning qimmatini qog'oz, siyoh, ayniqsa, xattotlik san'ati va turli bezaklar sifati bilan aniqlangan. Tabiiyki, bir necha san'atkor tomonidan mahorat bilan ishlangan qo'lyozmalar faqat davlatmand odamlar tomonidan buyurtirilgan va katta pulga sotib olinib, oltin, javohirlar qatori xazina boyligi hisoblangan. Alisher Navoiy davrida Sulton Ali Mashhadiy, uning shogirdlari Muhammad bin Nur, Darvesh Muhammad Toqiy, Sulton Muhammad Xandon, Darvesh Muhammad Samarqandiy, Abduljamil kabi kotiblar edi. Bular orasida Sulton ul-xattoton, qiblat ul-kuttob nomini olgan Sulton Ali Mashhadiy alohida o'rin egallaydi. U Jomiy, Alisher Navoiy, Sulton Husaynlarning yuqori bahosiga sazovor bo'lgan. Xattotlar sultoni Sulton Husayn va Alisher Navoiy uchun Sharq klassiklari va davr durdonalari bo'lgan asarlarni ko'chirgan, ular hozirgacha ham san'at namunasi sifatida jahon muzeylari, qo'lyozma fondlari, shaxsiy kolleksiyalar, hattoki fransuz millioneri Rotshild xazinasida ham saqlanib kelmoqda. Xattot faqat qo'lyozmalarnigina ko'chirmay, toshlarga, binolar peshtoqiga ham xatlar bitgan, yaxshigina she'rlar yozgan, hayotining oxirida esa she'rda «Risoi xat» asarini yaratgan. Qo'lyozma kitoblar haqida xattotlik san'atining bilimdoni A. Murodov: « Sharq mamlakatlarida va Markaziy Osiyoda nasroniy va buddizm dunyosida ko'rilmagan xattotlik, xat belgilari bilan bog'langan naqqoshlik, me'morchilik va xat san'ati asosiga qurilgan badiiy qo'lyozmalar san'ati alohida taraqqiy etgan», deydi (Murodov A. Qrta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent: 1971, 22-bet).

XIX-XV asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Eronda, ayniqsa XV asrning ikkinchi yarmida Hirotida, XVI asrda esa Buxoro va Tabrizda naqshlar va mo'jaz rasmlar bilan bezatilgan qo'lyozma kitoblar ko'plab yaratildi. Navoiy, Jomiy va Behzod davridagi Hirot madaniyatining yuksalishi, gullab-yashnashi o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. XVI asrning ikkinchi va XV asrning birinchi yarmida Temur va Ulug'bek davrida Samarqand, Hirot va Sherozdagi saroy kitobxonalarida ko'plab xattot, naqqosh, musavvirlarning to'planishi, o'nlab ziynatlangan qo'lyozma kitoblar tayyorlanishi Behzod, Sulton Ali kabilarning ijodiy kamolotiga zamin hozirladi. XV asrning ikkinchi yarmi tasviriy san'atida Alisher Navoiy ta'siri tufayli katta burilish bo'ldi. Ayniqsa, Yevropaning «Sharq Rafaeli» deb nom olgan san'atkor Kamoliddin Behzodning ijodiy kamolotiga

ko'tarilgan payti miniatura san'ati taraqqiyotining yuksak bosqichiga chiqishiga sabab bo'ldi. Avvalgi davrlarga nisbatan bu davrda miniatura san'atining mavzu doirasi kengaydi. Faqat epik, afsonaviy-mifologik dostonlar voqeasi tasvirlanmay, zamonaviy asarlar, jonli hayotdan olingan hayotiy epizodlar, tarixiy voqealar va shaxslar portretlari bilan ziynatlandi. Tasviriy san'at, mo'jaz rasmlarning yangi janrlari, tabiat ko'rinishlari, zamona ahllarining bir guruhi va alohida shaxslar portretlari, kundalik maishiy hayot lavhalarini tasvirlovchi asarlar paydo bo'ldi. Miniatura san'atiga xos bo'lgan shartlilikni hisobga olgan holda, Navoiy davrida va uning rahnamoligida Hirotda kamolot cho'qqisiga chiqqan mo'jaz tasviriy san'atni realistik yo'nalishdagi san'at deyishga haqlimiz. Miniaturada tasvir etilgan inson, jonivorlar va tabiat manzaralarini rassomlar nihoyatda nafis, mo'jaz chiziqlarda bera olganlar. Bo'yoqlarning hammasi ham yuksak did, mahorat bilan tanlanadi, ularning uyg'unligiga erishiladi, ammo ba'zida ular shartli bo'ladi. Bu davr san'atiga xos bo'lgan hayotiylik xalqchillikka ham olib keladi. Albatta, xalqchillik tushunchasini tasviriy san'at asarlari xalq uchun yaratiladi, xalq orasida keng tarqaladi, degan ma'noda tushunmaslik kerak. Avvalo san'at namunalarini yaratuvchilar ko'pincha mehnatkash xalq orasidan chiqqan kishilar bo'lib, «Ular o'z ijodlarida umumxalq orzulari, estetik qarashlari, go'zallik haqidagi tasavvurlarini aks ettirganlar» (Пугаченкова Г.А. Ремпел, Л.И. История искусств Узбекистана. —М: 1965, с.317.). Ye.E. Bertels «Navoiy» monografiyasida: «Alohida baytlarda jonli hayot bilan yaqindan bog'langan obrazlarning paydo bo'lishi Lutfiy asarlari uchun xarakterlidir. Bunga eski saroy poeziyasi hech yo'l qo'ymagan bo'lur edi. Bu o'rinda shaharning ta'siri, uning aniqlikka intilishi, shaharliklarning o'z hayotlari sharoitini poeziyaga olib kirishga intilishi seziladi», deydi (Бертелс Е.Е. Избранный труды Навои и Джами.—М: 1965, с. 55.). Xuddi ana shu holatni tasviriy san'atda ham kuzatamiz. Progressiv adabiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan kitobat san'ati ham ilg'or g'oyalar tashuvchisi bo'lgan. Fikrimizning isboti sifatida bu davr mo'jaz san'atida mehnat jarayoni, mehnatkash xalq vakillari obrazlari, oddiygina oila hayoti, dehqonchilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik korxonalari kabilar tasvirini keltirishimiz mumkin. Badiiy adabiyotdagidek, tasviriy san'at markazida ham asosan inson shaxsi, uning hayoti, orzu-umidlari turadi, san'atkorlar butun iste'dodlarini ana shu markaziy

muammolarni yoritishga qaratadilar. XV asr ikkinchi yarmi Hirotda, XVI asrda Buxoroda rivoj topgan tasviriy san'atning eng yaxshi namunalari diniy va an'anaviy epik mazmundan kundalik jonli hayotni tasvirlovchi, realistik ruhdagi san'atga aylanadi. Bu o'zgarish o'sha davrga xos bo'lgan umumiy ko'tarinkilikning san'atdagi in'ikosidir. Navoiy davri va umuman Sharq miniatura san'atining eng buyuk vakili Kamoliddin Behzod ekanligi san'atshunoslik fani va mo'jaz san'at muxlislari tomonidan e'tirof etilgan. Behzod Hirotda hunarmand oilasida tug'ilib, juda erta ota-onadan yetim qolgan. Uni mashhur san'atkor Mirak Naqqosh tarbiyalagan va ustozlik qilgan. Yosh Behzodning iste'dodi, san'ati Alisher Navoiy diqqatini o'ziga jalb etadi. Mashhur fransuz san'atshunosi I. Shchukinning yozishicha: «Behzod – musavvir Mirak Naqqosh rahbarligida shakllangan bo'lsa, ijodining yuksak bosqichiga ko'tarilishi davlat arbobi, mesenat shoir Mir Alisher rahbarligida bo'ldi. Xuddi ana shu zotning homiyligi, rahbarligi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi natijasida Behzod va Shoh Muzaffarlar rassomchilikda shuhrat qozondilar» (J.Stchoukin. Les peintures des manuscrits Timurides. Paris, 1954, r.24). Yana o'sha olimning xabar berishicha, Behzod ma'lum vaqt Alisher Navoiy kitobxonasida ijod etgan va keyinchalik ustози Mirak Naqqosh rahbarlik qilgan Sulton Husayn kitobxonasiga rahbarlik lavozimida ijod etadi. Yuqorida keltirilgan XV asr ikkinchi yarmidagi tasviriy san'atdagi o'zgarishlar, asosan, Behzod ijodidan boshlanadi, deyish mumkin. Buyuk rassom ijodining kamolotida inson obrazi tasviri, uni harakatda berish, mo'jaz san'at imkonidan to'liq foydalangan holda personajlarning individual xususiyatlarini bera olishga erishadi. Jonli hayotdan olingan peyzajlar va epizodlarni real tasvirlay bilish tasvir doirasini kengaytirish orqali Behzod miniatura san'atini jonlantirdi. Behzod ijodiga xos bo'lgan ana shu xususiyatlarni shogirdlari davom ettirdilar.

Mashhur sharqshunos, professor A. Yu. Yakubovskiy «Alisher Navoiy davridagi ijtimoiy va madaniy hayot xususiyatlari» maqolasida san'atshunoslar haligacha chetda qoldirib kelayotgan «Alisher Navoiy Behzod ijodining qaysi tomonlariga ta'sir etishi mumkin edi?» degan savolni qo'yadi. Olim o'z fikrini davom ettirib, «Behzod asarlarining qimmatini faqat shodlik baxsh etuvchi yorqin bo'yoqlar jo'rliigi va nafosatidagina emas, balki o'z ijodi mavzusiga juda jiddiylik bilan yondashishidadir. U faqat ajoyib portretlar (Sulton Husayn portretini eslaylik), saroylardagi qabul marosimlari

(«Zafarnoma»dagi) bog'da Temurning qabul marosimi»ni olaylik), jang maydoni, mehnatkash xalq hayoti mavzusini ham ishlaydi. Alisher Navoiy uni qo'llab-quvvatlagan, eng ahamiyatli shundaki, uning ijodiga ta'sir etgan, mavzuni anglab yetishga, ko'rganimizdek, yuqori darajaga ko'tarishga yordam bergan», deydi (Якубовский А.Ю. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навои. Всб. Алишер Навои. М-Л. 1946, с.29-30.). Olimning bu fikri Behzod ijodi va umuman Navoiy davridagi miniatura san'atiga yangicha yondoshishga da'vat etadi. Sharqda qabul qilingan an'anaga ko'ra, afsuski, aksariyat asarlarda musavvir naqqosh, sahhof, hatto ba'zida hattot ham o'z nomini yozib qoldirmaydi. Behzoddek san'atkor ham faqat ba'zi rasmlardagina «Amali abd Behzod» yoki oddiygina «Behzod» so'zlarini yozib qoldirgan, xolos. Ba'zi o'rinlarda rassomlar o'z asarlarini ustozlar mo'yqalamiga nisbat berib, ularning nomlarini yozib qo'yish holatlari ham uchraydi. Hozirgi kunda san'atshunos olimlardan R. T. Shchukin, A. Sakisyan va boshqalar chet el fondlarida uch qo'lyozmaga (Sa'diyning «Bo'ston», Nizomiyning ikki «Xamsa»si va Sankt-Peterburgda Amir Xusrav Dehlaviyning «Layli va Majnun» asarining ikki qo'lyozmasi) ishlagan miniatyuralar va Istambulda «Guliston» saroyidagi san'at muzeyida saqlanayotgan «Muraqqa»dagi rasmlar haqiqatan Behzod mo'yqalamiga mansub, degan fikrdalar. XVI asr Movarounnahr, Xuroson va Eronidagi notinchliklar, Shayboniynon va safaviylar janglari bilan boshlanadi. 1506-yili Sulton Husaynning vafotidan keyin Hirot avval Shayboniynon, keyin safaviylar qo'liga o'tadi. Bu davrda feodal ziddiyatlarining keskinlashishi, islom dinidagi mazhablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ham keskinlashtiradi, natijada Movarounnahr bilan Xuroson, Eron madaniy aloqalari zaiflashadi. Hirotida Navoiy davrida yashab, ijod etgan adib, olim, hattot, san'atkorlarning bir qismini safaviylar Tabrizdagi saroyiga jalb etgan bo'lsa, ikkinchi qismi bu besaranjom davrda Buxoroda, shayboniylar saroyida boshpana topadilar. Endilikda tasviriy san'atda, san'atshunos olimlar ta'biricha, miniatura san'atining «Tabriz maktabi», «Buxoro maktabi» tashkil topadi. Shu o'rinda tarixchi, san'atshunos va adabiyotshunos olimlarning diqqatini bir mulohazaga jalb etmoqchimiz. Yevropa san'atshunos olimlaridan qaysi birining asarlari bilan tanishmang, Navoiy davri tasviriy san'ati, jumladan Behzod va u yaratgan maktab vakillari Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib, Qosim Ali, hoji Muhammad Naqqosh, Darvesh

Muhammad, Yusuf Naqqosh kabilar ijodini Eron miniatura san'ati namunasi sifatida qaraladi. Vaholanki, Xuroson aholisining ko'pchiligini turkiy xalqlar tashkil etishi, Sulton Husayn davrida yashab, ijod etgan adiblarning askariyati o'zbek adabiyoti namoyandalari ekanligi, Alisher Navoiy esa o'zbek adabiy tilining asoschisi, adabiyotining genial vakili ekanligi fanda e'tirof etilgan. Shunday bo'lgach, nima uchun xuddi ana shu davrda, ana shu madaniy muhitda, Alisher Navoiy rahbarligida, Samarqand va umuman Movarounnahr tasviriy san'ati an'analari asosida rivoj topgan kitobat san'ati, mo'jaz rasmlar Eron san'ati namunasi bo'lishi kerak? Fikrimizcha, san'at ham adabiyot kabi, ayniqsa badiiy asarlar, qo'lyozmalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan naqqoshlik va mo'jaz rasmchilik san'ati, badiiy tafakkurning mahsulidir. Shunday ekan, nima uchun «Samarqand adabiyoti», «Hirotda adabiyoti», «Buxoro adabiyoti» deyilmaydi-ku, tasviriy san'atda ana shu iboralar qo'llanadi?! Navoiy asarlari o'zbek adabiyoti durdonalari bo'la turib, ularni tasviriy san'atda yorituvchi rasmlar Eron san'ati namunasi bo'ladi?! Eng ko'p badiiy bezaklar o'zbek adabiyoti namunalari orasida Alisher Navoiy asarlariga ishlangan. Buyuk shoir asarlarining dastlabki to'plami (uni «Ilk devon» deb ataganmiz) 870/1465-66-yili Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, Navoiyning birinchi «Devon»i bo'lish bilan birga, xattotning jahonda ma'lum bo'lgan qo'lyozmalarining ham birinchisidir. Shoirning 24 yoshida ko'chirilgan bu noyob qo'lyozma Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida saqlanadi. Qo'lyozmaning «Iloho podishoho kirdikoro, Senga ochuq nihonu oshkoro», bayti bilan boshlanuvchi g'azal joylashgan dastlabki ikki beti oltin suvi va rang-barang bo'yoqlarda g'oyat nafis naqshlar bilan to'liq bezatilgan. Yirik, go'zal nasta'liq xatida ikki ustunda bitilgan matn zarhal jadvallar bilan o'ralgan. Har bir sahifa hoshiyasi yetti xil – lojuvard, pistoqi, yashil, samoviy, novvotrang, qirmizi, za'faron ranglarga bo'yalgan va ularga turli bo'yoqlarda gul va daraxt barglaridan naqshlar ishlangan. «Ilk devon» Hirotda ko'chirilgan naqshin bezakli qo'lyozmalarining namunasi. Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari orasida mo'jaz rasmlar bilan ziynatlanganlarining eng qadimiysi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining fondida saqlanadi. Ustod Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Sulton Husayn xazinasi uchun ko'chirilgan «Navodir an-nihoya» devoni qo'lyozmasidir.

Qo'lyozma Navoiy davri kitobat san'atining xarakterli namunasi bo'lib, taxminimizga ko'ra, 880-885/ 1475-1480-yillarda tayyorlangan. Qo'lyozma XIX asrda Qo'qon qog'ozini bilan qayta ta'mirlangan, karton muqova ham keyingi davrniki, qo'lyozma boshidagi oq varaqdagi muhrda sana bor. 16-20 sahifalarida «Devon»ning «Zihi zuhur jamoling quyosh kibi paydo, Yuzung quyoshiga zarroti kavn ulub shaydo» bayti bilan boshlanuvchi birinchi g'azali naqshin hoshiya va ramka ichida yozilgan. Shu davrda tayyorlangan boshqa Hirot qo'lyozmalardan farqli o'laroq frontispis ornamentlari, bo'yoqlar gammasi soddagina, asosan lojuvard va oltin suvida berilgan. 185 b-varaqa g'azallar tugallanib, mustahzodlar boshlanish oldidan suyuqqina oltin suvi bilan ishlangan oddiygina unvon bor. Varaqlar orasida ham onda-sonda oltin suvi bilan o'simlik ornamentlari ishlangan. 29b, 73a, 97a, 114a, 157a va 171a-varaqlarida 6 ta miniatura bor. Ularning deyarli hammasi shoir va mahbuba mavzuida bo'lib, g'azallar orasiga joylashgan. Miniaturalarning hammasida zarrin osmon rangida lista rang, sariq, binafsha, surmarang adir, cho'lga xos bo'lgan, kam giyohlik tabiat manzarasi, faqat ikki o'rindagina bir-ikki daraxt tasvirlangan. Ana shu fonda gilamcha to'shalgan, asosan personajlar uning ustida, xizmat qiluvchilar atrofida berilgan, bundan 157a-varaqdagi miniatura mustasno. Unda Muhammadning Buroqda afsonaviy uchishini tasvirlovchi an'anaviy sujet berilgan. Rasmlarning hammasi ham oddiygina ishlangan, tabiat manzarasi juda kambag'al, biror o'rinda ham inshoot, binolar berilmagan, bo'yoqlar ham ko'p turli, kiyimlar ham oddiygina. Qo'lyozmadagi miniaturalarni sinchiklab o'rganar ekanmiz, Hirotida 80-yillarda, Behzod 25 yoshda ekan, Mirak Naqqosh Sulton Husayn kitobxonasiga rahbarlik qilib turgan davrda, shoh xazinasi uchun ko'chirilgan «Devon» shunchalik kamtarona bezatilganiga kishi hayron qoladi. Qo'lyozmadagi miniaturalar yaxshi saqlanmagan, ayniqsa odamlar chehrasining bo'yoqlari to'kilib ketgan, faqat 29 b va 97 a-varaqlaridagi asosiy personajning yuz tasviri saqlanib qolgan, xolos. Har ikkalasida ham dumaloq yuzli, qaboqlari keng, mo'ylabli yosh odam tasvirlangan. Alisher Navoiyning badiiy bezakli «Xamsa»lari orasida eng qadimiysi Angliyaning Oksford universitetidagi Bodleyan kutubxonasida va qisman Manchester universiteti kutubxonasining Jon Riland fondida saqlanayotgan qo'lyozmadir. Bodleyan-Manchester «Xamsa»si 890/1485-yili

ko'chirilgan. Ingliz diplomati F. G. Ousley 1810-1812-yillarda Fatali shoh saroyida xizmatda ekanida juda ko'p qo'lyozma to'plagan. Uning vafotidan keyin (1844) o'g'li qo'lyozmalarning 39 tasini Bodleyan kutubxonasiga sotgan. Patnalik J.B.Eliot ana shu kutubxonaga 422 qo'lyozma taqdim etadi, ularning ham ko'pchiligi Ousleydan olingan edi. Navoiy «Xamsa»sining to'rt dostoni ana shu tortiq orasida bo'lgan. «Layli va Majnun» esa Jon Riland kolleksiyasidan Manchester universiteti kutubxonasiga olingan. «Hayrat ul-abror»da to'rt, «Farhod va Shirin»da bir, «Layli va Majnun»da ikki, «Sab'ai sayyor»da ikki va «Saddi Iskandariy»da to'rt yuksak saviyada ishlangan mo'jaz rasmlar bor. Ingliz san'atshunosi B.U. Robinsonning xabariga ko'ra, har qaysi dostonning boshlang'ich varaqlarida miniaturalar bo'lgan bo'lsa, ular qo'lyozmadan yirtib olinib, o'rniga zamonaviy qog'ozlar yopishtirilgan. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar orasida ushbu «Xamsa» rasmlari badiiy yuksakligi bilan ajralib turadi. Yevropaning mashhur san'atshunoslari A.Sakisyan, L. Bin'on, J. Vilkinson, B. Grey, I. Shchukin, B. Robinson kabilar Badiuzzamon «Xamsa»si miniaturalariga yuksak baho berib, ular Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali kabi san'atkorlar mo'yqalamiga mansub ekanligini aytadilar. Qanday bo'lmasin, qo'lyozmadagi 13 miniatura qismlarda bir-biridan farq qilsa-da, bo'yoqlar boyligi, kompozitsiyaning murakkabligi, personajlarning ko'pligi, ular qiyofasida individuallik belgilari borligi, ularni harakatda berishga urinish, kiyim-kechaklarning turlicligi, tabiat, shahar manzaralarining boyligida umumiylik bor. Alisher Navoiy asarlarining bezakli qo'lyozmalari orasida Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan «Xamsa» va O'zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan ikki terma «Devon» qo'lyozmalari alohida ahamiyat kasb etadi. Har uchala asarni ham Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan. To'g'ri, ularda miniaturalar yo'q, ammo qog'oz ranglari, xat uslubi, jadvallar, naqshin hoshiyalar (devonlarda), shamslar, aql bovar qilmaslik darajasidagi nafis ishlangan lavha, zarvaraqlar, naqshin varaqlar (frontispis) ularning Navoiy davri san'atining durdonalaridan ekanligini ko'rsatadi.

Sankt-Peterburg «Xamsa»si 898/1492-93-yillari Sulton Husayn kutubxonasi uchun ko'chirilgan. Qo'lyozmani xattotlar qiblagohi Sulton Ali ko'chirgani, Mavlono Yoriy muzahhib zarhal bergani,

ustoz Sulton Ali Marviy muqovasini ishlagani haqida ma'lumot bor. «Xamsa» dostonlarining har biriga ikkita ikki yoqlama geometrik va o'simlik naqshlari ishlangan zarvaraqlar berilgan. Ularning birinchi jufti alohida sahifa (shmutstitul) vazifasini ado etib, ornamentlar orasida oq bo'yoqda asar nomi yozilgan, ikkinchi jufti esa asar boshlanishiga ishlangan bezakdir. Qo'lyozma boshiga ham geometrik naqshlar ishlangan ajoyib frontispis berilgan, unda shoir va asar nomi yozilgan. Shunday qilib qo'lyozmada 22 naqshin-zarrin varaqlar bor. Har bir sahifadagi naqshin bezaklarda ornamentga xos bo'lgan umumiy uslub, garmoniya, kompozitsiya, rangomuzini saqlagan holda muzahhib va naqqosh o'n bir naqshin varaqlarning har birida san'atning takrorlanmas yuksak namunasini yaratdilar. Shunisi qiziqki, naqshin varaqlardan keyin oddiy matn boshlanib ketmay, bezaklar yana bir necha sahifa davom etadi. Xattot Sulton Ali baytlarni turli alfozda joylashtirib, ular orasiga muzahhib Yoriy mo'jaz ornamentlar, zarhallar ishlaydi, oddiy matnga o'tish sekin-asta bo'ladi. Bunday juz'iy ziynatlar dostonlar o'rtasida ham onda-sonda uchrab turadi. Qo'lyozmani bunday bezashdan maqsad kitobxon ko'ziga dam, didiga estetik hordiq berish bo'lsa kerak. Yuqoridagilardan tashqari, har bir dostonning oxirgi sahifalariga ham bezaklar berilgan.

Odatda, qadimgi qo'lyozmalar muqovalari juda kam saqlanib qoladi, borlari ham juda aftodaholdir. Ammo Sulton Ali Marviy ishlagan «Xamsa» muqovasi bizga yaxshi ahvolda yetib kelgan. Qora charmga zarhalda ishlangan nafis ornamentlar kishini hayratda qoldiradi. Bu muqova XV asr badiiy muqovasining ajoyib namunasidir. Hozirgacha bizga ma'lum bezakli qo'lyozmalar orasida Sankt-Peterburg »Xamsa«siga o'xshatib bezatilgan birorta ham qo'lyozma uchramadi. «Xamsa»ning Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan yana ikki nusxasi bizga ma'lum. Biri Sankt-Peterburg «Xamsa»sidan bir yil avval ko'chirilgan bo'lib, ingliz qirollarining Vindzordagi saroyi kutubxonasida saqlanadi. Afsuski, hech qaysi katalogda yoki miniatura san'atiga bag'ishlangan ishlarda bu qo'lyozma qayd etilmaydi. 1968-yili Angliya safari paytida Vindzorda bo'lib, qirolicha Yelizaveta II kutubxonasidagi qo'lyozmalar bilan tanishishga muyassar bo'ldik. Ular orasida bizni qiziqtirganlari Alisher Navoiyning «Xamsa»si va «Devon»i bo'ldi.

Vindzor «Xamsa»si 897/1491-92-yilda nihoyatda go'zal mayda nasta'liq xatida ko'chirilgan, bichimi 24x35,5 sm. Matn to'rt ustunda, oltin va lojuvard jadval bilan o'ralgan. 308 varaq bo'lib, yupqa ipak

qog'oz ba'zi o'rinlarda ochroq, ba'zida to'q qilib xinaga bo'yalgan hamma sahifalaridagi matn orasiga mayda, hoshiyasiga yirikroq qilib oltin suvi purkalgan. Qora charmga oltindan naqshlar ishlangan qadim muqova saqlangan.

«Hayrat ul-abror» juda nafis naqshli ikki sahifadan boshlanib, qolgan to'rt doston boshlanishiga lavhalar ishlangan. Faqat «Hayrat ul-abror»ga to'rt miniatura ishlangan. Afsuski, Navoiy davridagi Hirot musavvirlari tasvirlarining ko'p joylari, ayniqsa, asosiy personajlar o'chirilib, hind uslubidagi rasmlar ishlangan: 66-varaqda nasroniy dini tasavvuridagi ziyofat, 7a-varaqda ziyofat, 31a-varaqda jang maydoni, 36 b-varaqda «Muhammad Xorazmshoh va Faxr ar-Roziy hammomda» voqealari tasvirlangan. Bular orasida «Hammom» miniaturasidagi dastlabki tasvir saqlangan, xolos. Qo'lyozmaning bo'sh qoldirilgan 1a-varag'ida 1037/1627-28-yili kitob Hindistonda Shohjahon xazinasiga kelib tushganligi, narxi ming rupiya ekani haqida yozuv bor. Alisher Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan va naqshlar, mo'jaz rasmlar bilan bezatilgan «Xamsa»sining yana bir nodir qo'lyozmasi Turkiyaning To'pqopu saroyining Revan kutubxonasida saqlanadi. Qo'lyozma 900/1494-95-yili ko'chirilgan, 275 varaq. Unda «Farhod va Shirin»ning boshlanishida bitta, oxirida bitta, «Layli va Majnun» boshlanishida ikkita, «Sab'ai sayyor» boshlanishida ikkita, jami 6 ta miniatura, har qaysi dostonlarning birinchi sahifasida rangdor frontispislar bor. Ammo ularning slaydlari bizda yo'q. Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida «Xamsa»ning «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» dostonlaridan iborat 928/1521-22-yillarda Shohruxiyada ko'chirilgan nusxasi ham bor. Unda 23 miniatura bo'lib, ular haqida batafsil ma'lumot G.A.Pugachenkova va O.I.Galerkinalarning «Markaziy Osiyo miniaturalari» asarida berilgan (Пугаченкова Г.А. Хшеркина О. И. Минатюри Средней Азии. – М: 1979, с. 26-27.)

Vindzor kutubxonasida Alisher Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy yirik nasta'liqda ko'chirilgan kattagina terma devoni qo'lyozmasi ham saqlanadi. Matn ikki ustunda, bichimi 22-30 sm, 819 varaq, ko'chirilgan yili yo'q. Devonda Navoiy yaratgan hamma janrlar namunalari bor. «Xazoyin al-maoniy»ning birinchi g'azali bilan boshlanuvchi devonning 16-20 sahifalari boy ornamentli rangdor frontispis bilan bezatilgan. Qo'lyozmada Hirotida ishlangan 7 miniatura bo'lib, afsuski, bunda ham hind rassomlari ularni buzib,

«qayta» ishlaganlar. Ushbu qo'lyozma Buxoro amirlari kutubxonasida saqlangan. 1872-yili Angliyaning Hindistondagi gubernatori ser K.T.Argil orqali Buxoro amiri qo'lyozmani qirolicha Viktoriyaga taqdim etgan (Gubernatorning xati kitob ichida hozirgacha saqlanib kelmoqda). Shuning uchun bo'lsa kerak, qo'lyozmada inventar raqami bo'lmay, faqat «Buxoro qo'lyozmasi» deb ataladi. Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan Alisher Navoiy kulliyoti fanga ma'lum nusxalar orasida o'zining mukammalligi, yaxshi saqlanganligi va badiiy bezagi bilan ajralib turadi va Hirotida yaratilgan badiiy qo'lyozmalarning eng go'zal namunalaridan bo'lgani uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Parij kulliyoti bobiriylarning saroy kutubxonasiga taalluqli bo'lib, Arman Hindiston sayohati vaqtida qo'lyozmani sotib olgan, 1757-yilda uning vafotidan keyin, kitob Milliy kutubxonaga tushgan. Kulliyotning bu nusxasi avvalo M.Belin, keyinchalik E.Bloshe tomonidan tavsiflangan qo'lyozmadagi ayrim mo'jaz rasmlar Yevropa san'atshunoslari tomonidan albomlarda bir necha bor nashr etilgan. Parij kulliyoti, shu turdagi boshqa qo'lyozmalardan farqli o'laroq, ikki jildidan iborat. Shunisi qiziqki, xattot qo'lyozmaning 12 joyida juda ixcham qilib o'zbek, fors, arab tillarida kolofon bergan. Bunday holat boshqa birorta qo'lyozmada uchramaydi. Birinchi jildning 289 b-sahifasida va ikkinchisining oxirida 406 b-varag'ida keltirilgan kolofonlarga ko'ra, kitob uch yil (930/1523-24 va 933/1526-27-yillar) davomida Hirotida Sulton Alining shogirdlaridan xattot Al-Hijroniy tomonidan ko'chirilgan. Yupqa oqish ipak qog'ozga matn juda chiroyli mayda klassik nasta'liq xatida, to'rt ustunda joylashtirilgan. Parij kulliyotini yaratish ustida xattotdan tashqari musavvir, naqqosh, muzahhib, sahhoflar ham ishtirok etganlar. «Kulliyot» qo'lyozmasini Hirotida Alisher Navoiy tarbiyalab yetishtirgan xattot, musavvir, naqqosh, muzahhib, sahhof, umuman, buyuk shoir muhitidagi san'atkorlar o'z valine'matlari xotirasi oldidagi so'nggi vazifalarini ado etishlari deb tushunish mumkin. Keyinchalik XVI asrda Alisher Navoiy asarlarining badiiy bezakli qo'lyozmalari Sheroz, Tabriz va Buxoroda ko'plab tayyorlanadi. Har uchala shahardagi badiiy qo'lyozma tayyorlash kitobxonalariga asos solgan va san'atkorlar pleyadasini tayyorlovchilar Hirotida Navoiy davrida kamol topgan madaniyat arboblari bo'ldilar. Bu o'rinda Tabrizda tayyorlangan Navoiy terma devonning badiiy bezakli uch nusxasi xarakterlidir. Ularda odatda lirik asarlarga ishlanuvchi an'anaviy mazmun-tabi

quchog'ida yoki bog' shiyponida suhbat, yengil ziyofat va bazm tasvirlanadi. Kompozitsiya jihatidan bu rasmlar soddagina, bir-biriga yaqin, figuralar kamgina, markaziy qahramon atrofida joylashtirilgan, bo'yoqlar hammasi ham boy emas. Ko'pincha personajlarda individuallik yo'q, ular harakatda ham berilmaydi. Lekin tarixiy asarlar, dostonlar rasmlari («Zafarnoma», «Jami at-tavorix», Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy asarlari) o'ta tantanaviy uslubda ishlangan, rassomning asosiy diqqati Hirotida ishlangan miniaturalardagidek, personajlar, odamlarga emas, balki ularni qurshagan sharoit, manzara, buyumlarga qaratilgan. XVI asrda Movarounnahrda shayboniylar poytaxti Buxoro rassomchilik san'ati markaziga aylanadi. Endilikda Markaziy Osiyo rassomchiligi Hirotidan kelgan san'atkorlar faoliyati natijasida Behzod maktabiga xos bo'lgan insoniy g'oyalar, yuksak mahorat xususiyatlari bilan shayboniylar hukmdori didiga binoan ko'chmanchilik hayotiga xos urf-odat, cho'l manzaralari uyg'unlashadi. Demak, Buxoro rassomchiligida uch element – temuriylar davri Samarqand va Buxoro, Navoiy davri, Behzod maktabi bilan ko'chmanchilik hayoti belgilari mujassamlanadi. Ko'pincha kompozitsiya, saroylar tasviri Hirot uslubida tabiat manzaralari, odamlar chehrasi, kiyim-kechaklar yerli uslubda tasvirlanadi, oddiy hayot manzaralari, xalq vakillari obrazlari ham beriladi. Mavzu jihatdan esa axloq, odob masalalarini yoritishga ko'proq ahamiyat beriladi. Hirotida kanon tusini olgan an'anaviy mazmun chegarasidan chiqib, asar mazmuniga yangicha talqin beriladi. Bu o'rinda ayniqsa Shohruxiyada ko'chirilgan Navoiy «Xamsa»si miniaturalarini eslab o'tish o'rinli bo'ladi.

Buxoroda Ubaydulloxon va undan keyingi shayboniylar davrida saroyda badiiy bezakli qo'lyozmalar tayyorlash ishi davom etadi. Ammo viloyatlarda tayyorlangan badiiy qo'lyozmalardan farqli o'laroq, Buxoroda qo'lyozmalar Xon nazorati ostida ishlangan. Sulton Mirak Munshi, mavlono Mir Ali Kotib kabi mashhur xattotlar Sulton Ali Mashhadiy an'alarini davom ettiradilar. Asosan mumtoz adabiyot namunalari, Nizomiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy asarlarining badiiy bezakli qo'lyozmalari tayyorlanadi. Ularga ishlangan mo'jaz rasmlarda Hirot an'analari (ayniqsa, Mahmud Muzahhib ishlarida) davom ettiriladi. Bir tomondan tantanali saroy hayoti, saroy ahllarining nazokatli vakillari, go'zal tabiat manzaralari tasvirlansa, ularga antiteza sifatida oddiy mehnatkash

ommasi vakili ham beriladi (Nizomiy «Mahzan al-asror»iga Mahmud Muzahhib tomonidan ishlangan rasm «Sulton Sanjar va kampir», 1545-yil, Parij milliy kutubxonasi, Sa'diy «Guliston»iga 1547-yili noma'lum rassom tomonidan ishlangan miniaturalar, Jeneva, M. Bodmer, G.U1.5.). Buxoro san'atkorlari ko'pincha falsafiy allegorik asarlarni majoziy ma'noda emas, balki tom ma'nosida talqin etadilar (Jomiy, «Tuhfat al-ahror», «Uchib ketayotgan toshbaqa», «Go'zal qiz va chol», XVI asr o'rtasi, GPB Dorn 425). Alisher Navoiyning Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan «Lison ut-tayr» asarining 1553-yilda Buxoroda ko'chirilgan qo'lyozmasiga ishlangan rasmlar ham ana shu xarakterdadir. Ishq oldida Shayx San'onning foniy mutlaq bo'lib, ma'shuqasiga fidoyilik ko'rsatib, iflos cho'chqalarni boqib yurishini rassom oddiygina, yirik tasvirlagan, majoziy ma'no fahmlanmaydi (Пугаченкова Г.А. Галеркина О.И. Миниатюры Средней Азии. – М: 1979 г. с. 30.). XVI asr Buxoro rassomchiligiga xos bo'lgan bu xususiyat mamlakat hayotida uchinchi tabaqa hunarmandlar sezilarli rol o'ynaganidan darak beradi. Buxoroda ishlangan badiiy qo'lyozmalar orasida Angliyaning Oksford universiteti Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» va «Saddi Iskandariy» dostonlari muhim o'rin egallaydi. Har ikkala doston «Xamsa»ning alohida-alohida besh kitob sifatida tayyorlangan qo'lyozmasining to'rtinchi va beshinchi jildidir. Afsuski, dastlabki uch doston qo'lyozmasi haligacha hech qayerda uchramadi. Dostonlarning bu nusxalari Buxoro badiiy qo'lyozmasining eng yuksak namunasidir. Xati nihoyatda go'zal, ravshan, mayda nasta'liq, matn to'rt ustunda, hoshiyalarga oltin suvi purkalgan va o'simlik, geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Kitoblar yaxshi saqlangan, muqovasi charmdan qadimiy, jilo berilgan. Ko'chirilgan yili 960/1553. Har ikkala dostonning birinchi sahifasiga nihoyatda nafis, rangdor unvon ishlangan va o'rtasiga «Sab'ai sayyor» va «Saddi Iskandariy» so'zlari yozilgan. «Sab'ai sayyor»ga o'n, «Saddi Iskandariy»ga beshta juda ajoyib, g'oyat mahorat bilan ishlangan mo'jaz rasmlar berilgan. Bu rasmlar ko'pincha qo'lyozmaning butun varag'ini ishg'ol qiladi. Har ikkala doston qo'lyozmalariga ishlangan o'n besh miniatura go'zalligi, nafosati, bo'yoqlarining rangdor va ravshanligi, mutanosibligi, chiziqlarning nafisligi, personajlar qiyofasining jozibadorligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ayniqsa, ayollar obrazlari juda nozik ishlangan, hatto tirnoqlari «xinodan lolarang» etib tasvirlangan. Miniaturalarda tasvirlangan voqealar dostonlar mazmunini to'liq yoritadi.

Buxoroda XVI asrda kamolot cho'qqisiga chiqqan kitobat va mo'jaz rasmlar san'ati XVII asrda ham davom etdi (Firdavsiy «Shohnoma», 1602-1603-yillar, Jomiy «Suhbat al-abror», XVII asr boshi, Durbek «Yusuf va Zulayho», 1615, Sa'diy «Bo'ston», 1616, Nizomiy «Xamsa», 1648, Firdavsiy «Shohnoma», 1664, Nizomiy «Xamsa», 1668-1671, Majolis al-ushshoq. XVII-XVIII asrlar o'rtasi). Lekin endi ziynatlangan qo'lyozmalar o'rtasida Navoiy asarlari uchramaydi. XVII asr Buxoro rassomchilik san'ati, umuman olganda, XV-XVI asr an'analarini davom ettirsa, kamolotdan chekinish sezilib turadi. XVIII asr o'rtalaridan Movarounnahrda Xorazm va Qo'qon davlatlari hududining qat'iylashishi, feodal markazlashgan davlatlar yuzaga kelishi bu xonliklarda ishlab chiqarish, ichki va tashqi savdo aloqalari va madaniyatining rivoj topishiga sababchi bo'ldi. Xorazm, Buxoro va Qo'qon xonlari kitobxonalarida zamonaviy adiblar asarlari bilan bir qatorda mumtoz adabiyot namoyandalari asarlari ham kitobat qililib, tarqatildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mumtoz adiblar orasida, ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarining deyarli hammasi har uchala davlatda ham qayta-qayta ko'chirilib, tarqatildi. Shu o'rinda bir qiziqarli dalilni keltirmoqchimiz: O'zFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Alisher Navoiyning «Xazoyin al-maoniy»sining Qo'qonda ko'chirilgan nusxasida quyidagi kolofon berilgan: «Navoiy ab'yotidin bir matla fitrat ma'niy pisandina marg'ub tushub va tab'i mavzuniga majlub kurundi xizmatkor zoti ixtisos va muruvvati ixlosdumon xizmatiga madomat kistar Muhammad Siddiq Tunqator soye'ga xitob etib amri oliy sadur topdikim, Navoiy Devonini maktub etmakka buyurgil, farmoni oliy ta'siridin biri shulkim muddat olti oy ichra uch yuz adad Devoni mujallad va musharrar bo'ldi...». Ana shu davrda Alisher Navoiyning 1240/1824-25-yilda Qo'qonda Mullo Ro'zi tomonidan ko'chirilgan besh dostoni majmuasi ham kitobat etilgan edi. Qo'lyozma 429 varaqdan iborat, bichimi 18-30,5 sm. Dostonlar «Lison ut-tayr», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» izchilligida joylashtirilgan qo'lyozma sahifalari rangdor, zarhal gullar bilan bezatilgan, muqovasi qora charmdan. Batafsil she'riy kolofon berilgan qo'lyozmada 46 miniatura bo'lib, hech qaysi rasmda yoki kolofonda musavvir nomi ko'rsatilmagan. Fazliyning «Majmuat ash-shuaro»sida berilgan ma'lumotlarga suyangen holda miniaturlar Muhammad Kosoniy mo'yqalamiga mansub bo'lsa kerak, degan

fikrdamiz. Qo'lyozmadagi 46 miniatura orasida an'anaviy va avval uchramagan mazmundagilari ham bor, birinchi va ikkinchisida an'anaviy mazmun, Muhammad payg'ambarning afsonaviy Buroqda osmonga xayoliy uchishi, ammo bu rasmda boshqalardan farqli o'laroq Muhammad tasviri chizilmagan, «Shayx San'on Rumda nasroniy go'zali oldida» epizodi tasvirlangan. Qolgan oltitasi «Lison ut-tayr»ga avval ishlangan rasmlardan mavzu jihatdan farq qiladi. «Shayx Sayid Abul Xayr hikoyati» rasmda markazda tasbeh ushlab turib hikoya qilayotgan shayxni to'rt muridi yarim doyra shaklida qurshagan. O'ng tomonda afsonaviy shaxs qanotli bosh parvozda. Moviy osmon fonidagi asosiy ishni katta daraxt tasviri egallagan. «Sulaymon payg'ambarning Hindistonga uchishi» voqeasiga ishlangan miniaturada taxtda o'tirgan Sulaymonni oq-qora, qizg'ish, jigarrang to'rt dev uchirib ketayotgani, orqada esa uni yelpib ketayotgani berilgan. Bularidan tashqari, «Shayx Porso haqshunoslardan birining savoliga javob bermoqda», «Balx shohi va uning o'g'li», «Hayrat vodiysi» va «Shayx Abul Abbos fano vodiysida» rasmlari bor. Shunisi qiziqki, bularning hammasi boshqa qog'ozga ishlanib, keyin yopishtirilgan. «Farhod va Shirin»ga «Shirin tog' qaziyotgan Farhod huzurida», «Ot mingan Shirinni ko'targan Farhod», «Xusrav cho'milayotgan Shirinni ko'radi», «Xusrav va Buzurg Umid», «Shirin Xusrav rasmini ko'rmoqda», «O'lgan Farhod», «Shirin o'z qasrida», «Farhod va Shirin bir tobutda» miniaturalari ishlangan. Bular orasida ba'zilar an'anaviy mazmunda bo'lsa, «Shirin o'z qasrida» mavzusi birinchi bor uchramoqda. «Cho'milayotgan Shirin», «Shirin Xusrav rasmini ko'rmoqda» epizodlari Navoiy dostonida umuman yo'q. Doston 158 a-varaqda tugallanib, ikki oq sahifadan keyin, 159 b-varaqda «Shirin bilan yotgan Xusravni Shiruya o'ldirayotgani» rasmi ham beriladi, dostonda bu voqea ham yo'q. «Layli va Majnun»ga «Layli va Majnun maktabda», «Majnun va otasi Makkada» (ammo rasm Majnun dashtda hayvonlar orasida turganini tasvirlovchi bobga joylashtirilgan), «Hayvonlar orasidagi Majnun huzuriga Navfalning kelishi», «Navfal Majnun otasining huzurida», «Layli dashtda Majnun huzurida», «Majnun Layli chodiri oldida», yana «Layli dashtda Majnun huzurida» va «Layli va Majnun qabri oldida» rasmlari ishlangan.

«Sab'ai sayyor»ga ishlangan miniaturalarda an'anadan chetlashilgan: Moniy Bahrom rasmda Dilorom tasviri yo'q. Nima uchundir ov epizodiga ikki rasm ishlanib, birida Bahromning o'zi berilsa, ikkinchisida Dilorom ham chizilgan (ammo u musiqiy asbobsiz, yetti qasr rasmlari bo'yoqlarining qasrlar nomlariga

monand emasligi (sandal qasri qizil g'isht rangida), tabiat, interyer, binolarning ibtidoiyligi, kompozitsiya soddaligi, personajlarning kamligi bilan avvalgi davr miniaturalaridan ajralib turadi. «Saddi Iskandariy»ga ishlangan miniaturalar ham an'anaviy mazmundan uzoqlashganligi yoki bir epizodga ishlangan rasmni ikkinchisiga joylashtirish, mazmunga aloqasi yo'q miniaturalar ishlash bilan ham xarakterlanadi. «Qashqir hakimi va singlisi Mehrnoz», «Iskandar va Ravshanak», «Ra'd bilan jang», «Band etilgan devni yetaklagan Iskandar» kabi rasmlar hech qaysi qo'lyozmada haligacha uchramagan. Bu dostonga yuqoridagilardan tashqari yana sakkiz miniatura ishlangan. Devon «Xamsa»siga ishlangan miniaturalarni qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgan, XIX asrda ishlangan bezakli qo'lyozmalar bilan muqoyasa qilish ajablanarli xulosaga olib keldi. Ma'lumki, XVIII-XIX asrlarda Hindiston bilan Markaziy Osiyoning madaniy aloqalari, ayniqsa, intensiv tus oladi. Musavvir va xattotlar ikki mamlakat o'rtasida almashinib turadilar. Markaziy Osiyo miniatura san'atida san'at belgilari paydo bo'ladi. Natijada XVIII-XIX asrlarda Hindiston, ayniqsa, Kashmir va Buxoroda ishlangan mo'jaz rasmlarda bir-biriga yaqinlik juda kuchli bo'ladi. Masalan, 1228/1813-yilda Kashmirda kitobat etilgan Jomiyning «Yusuf va Zulayho» qo'lyozmasiga ishlangan miniaturalar bilan 1221/1806-07-yili Buxoroda ko'chirilgan Oshiq «Devon»iga ishlangan miniaturalar o'rtasidagi o'xshashlik katta. XVIII asrda Hindistonda ko'chirilgan Jomiyning «Yusuf va Zulayho» qo'lyozmasi va Hofiz Sheroziyning 1194/1780-yili Hindistonda kitobat qilingan «Devon» miniaturalari bilan «Xamsa» miniaturalari kompozitsiyasi, bo'yoqlar gammasi, binolar, odamlar qiyofasi, ayniqsa, ko'z, burun, soqol, mo'ylablar, qizlarning jingalak gajaklari, kiyim-kechaklar, qizning ikki qanotlik boshi «Lison ut-tayr» va Hofiz «Sulaymon payg'ambarning devlar ko'targan taxtda Hindistonga uchishi», me'roj tasviri o'rtasida aynan o'xshashlikni kuzatdik. Ayniqsa, so'nggi ikkala epizod xarakterlidir. Har ikkala miniaturada ham oq, qora, qizg'ish va jigarrang devlar Sulaymon taxtini ko'tarib ketmoqdalar, ular ketidan dostonida bir, «Devon»da ikkita pari payg'ambar yelpib bormoqda. Me'rojda har ikkala qo'lyozma miniaturalarida ham afsonaviy Buroq ustida Muhammad payg'ambar berilmagan, kompozitsiya, farishtalar qiyofasi, qo'llaridagi zarrin alanga aynan, dostonning 30 b-sahifasidagi afsonaviy qanotli bosh o'rnida farishtalar orasida parvoz qilmoqda.

Bu o'xshashliklar shu darajadaki, xuddi har ikkala qo'lyozmani bir musavvir ziynatlagandek, qo'lyozmalar instituti «Xamsa»sidagi «Lison ut-tayr»ga ishlangan miniaturalarning keyin matn orasiga yopishtirilgani balki bejiz emasdir?

Alisher Navoiy, hatto Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy asarlarining XV-XVIII asrlarda ishlangan mo'jaz rasmlari qo'lyozmalarining birortasida ham Qo'qon qo'lyozmasidagidek ko'p rasm ishlanmagan. Faqat 1648-yilda Buxoroda kitobat etilgan Nizomiy «Xamsa»siga 61 miniatura ishlangani ma'lum, xolos. Lekin Qo'qon miniaturalari badiiy mahorat jihatidan XV- XVI, hatto XVII asr Samarqand, Hirot, Tabriz, Sheroz, Kazvin, Mashhad, Shohruxiya, Buxoro shaharlarida ishlangan mo'jaz rasmlardan tuban turadi. Ularda bo'yoqlar boyligi, monandligi, boy tabiat manzaralarini berish, kishilar figurasini tasvirlashda mutanosiblik, rasmlardagi noziklik yo'q, soddalik, ibtidoiylik bor, obrazlar sxematik, biri ikkinchisini takrorlaydi. Ammo ana shu kamchiliklarga qaramay, bu qo'lyozmaning ahamiyati katta. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlariga ishlangan mo'jaz rasmlar va rango-rang nafis naqshlar XV- XVI asrlarda yaratilgan Sharq kitobat san'atining eng go'zal namunalaridandir. Ular Hirot, Buxoro, Shohruxiya, Tabriz kabi Xuroson va Markaziy Osiyoning madaniyat markazlarida yashab, ijod etgan eng mohir san'atkorlar tomonidan yaratilgan. Miniaturalar Alisher Navoiy dostonlari «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy», «Lison ut-tayr» va lirik she'rlar to'plami – «Devon»lar mazmuni asosida ishlangan. Ma'rifatparvar, erksevar, olijanob g'oyalar egasi bo'lgan Navoiy qahramonlari miniaturalarning ham asosiy obrazlaridir. Miniaturalarning ko'tarinki, hayotiy obrazlari Navoiy g'oyalariga monand. Navoiy ijodiy uslubining asosini tashkil etgan realizm shoir asarlariga ishlangan rasmlarga xosdir. Miniaturalar ishlangan ko'pchilik betlarda mavjud bo'lgan asar parchalari bilan rasmlar mazmuni monandligi xattot va musavvir hamkorlikda ijod etganidan dalolat beradi. Ammo keyingi davrlarda bu an'anadan chetlanishni ham ko'ramiz (O'zFA qo'lyozmalar institutidagi 23 va 2630 inventar raqami ostida saqlanayotgan dostonlar majmualari). Rasmlar aniq, kompozitsiyasining matn bilan hamohangligi miniaturalarning butun asar, qo'lyozma bilan bog'liqligini ta'minlaydi. Ma'lumki, Navoiyning «Xamsa»sidagi dostonlar Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarning an'anaviy sujetlari asosida

yaratilgan. San'atda ham kanon tusini olgan tasviriy mazmun yuzaga keladi. Binobarin Sharq poeziyasining uch buyuk vakillari dostonlarining mazmun yaqinligi mavzu va kompozitsiya jihatidan yaqin miniaturalar yaratilishiga olib keldi («Tog'da kanal qaziyotgan Farhod», «Cho'milayotgan Shirin», «Bahrom yetti qasrda», «Iskandar va jon berayotgan Dor», «Shoh va donishmand hammomda» va boshqalar). Bulardan tashqari, umuman Sharq miniaturasida an'anaga aylanib qolgan jang, ov, chavgon o'yini, qaboq o'yini, kamon otish, bazm, ziyofat, mushoira kabi rasmlar borki, ular juda keng tarqalgandir.

BEHZOD IJODI

Yillar, asrlar o'taveradi, har bir zamon kishilari buyuk iste'dod egasi Kamoliddin Behzod ma'naviy xazinasiga qayta-qayta murojaat etaveradilar. Mustaqillik davrida bu san'atkor ijodini o'rganish, targ'ib qilish ishlari tamoman yangi ma'no va mohiyatga ega bo'ldi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining 1997-2003-yil 23-dekabrda «Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 545-550-yilligini nishonlash» to'g'risida qaror qabul qilgani ana shu izchil olib borilayotgan tadbirlarning davomidir. Kamoliddin Behzod dahosi, ijodiyotiga bugun alohida e'tibor qilishimiz bejiz emas. Sharq miniatura san'atida yetakchi va betakror maktab yaratgan buyuk rassom hayoti va faoliyatini o'rganish o'zligini qayta tiklayotgan xalq uchun har qachongidan ham ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etayapti. XIV-XV asrlar o'zbek xalqi tarixining oltin sahifalaridan desak, yanglishmaymiz. Amir Temur saltanatida yuzaga kelgan Uyg'onish davri, yuksak darajadagi ijodiy va qulay tarixiy muhit tufayli Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod singari ko'plab buyuk olim, faylasuf, shoir, rassom san'atkorlar samarali ijod etishdi. Ular orasida Kamoliddin Behzod nafaqat Turonzamin xalqlari madaniyati va san'ati mehri kuchli, madaniyatparvar, ijodkor xalq bo'lib kelgan. Otashparastlik, budda dini davrlarida yaratilgan Varaxsha, Panjikent, Sopollitepa, Qoratepa, Bolaliktepadagi muhtasham saroylar devordagi ulkan suratlar, tosh va sopol haykallar ajdodlarimiz qadimgi davrlardayoq mukammal san'at obidalari yaratganliklaridan guvohlik berib turibdi. Islom dini keng tarqalgach, nafis san'at turlari ko'proq qo'lyozma kitoblar, alohida muraqqalar

(alpomlar) tarzida namoyon bo'la boshladi. Natijada qog'oz, kitob ko'paydi, xalqimizning savodxonligi yuqori darajaga ko'tarildi. Sohibqiron Amir Temur davrida madaniyat, ilm-fan, san'at rivojiga katta e'tibor berganligi tarixdan ma'lum. Shu boisdan ham bu davrda oldingi zamonlardagiga nisbatan bir necha marta ko'p qo'lyozma asarlar yaratildi. XV asrning ikkinchi yarmida shoir, san'atkor, olimlar ijodi yana ham gurkirab o'sdi. Ular yaratgan qo'lyozmalarni ziynatlash, bezash va rasmlar bilan boyitishga ehtiyoj har qachongidan ham ko'ra oshdi.

Ana shunday davr tarix sahnasida Kamoliddin Behzod shaxsi paydo bo'ldi. Uning rassom sifatida shakllanishida Alisher Navoiyning beqiyos xizmati bor. O'sha davrdagi ta'riflar bilan aytganda, «asr nodiri, musavvirlar peshvosi» bo'lmish Behzod ijodkor sifatida murakkab yo'lni bosib o'tdi. U o'zining ziddiyatlariga to'la hayoti mobaynida Sulton Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Ismoil Safaviy, Shoh Tahmosip singari hukmdorlar qo'li ostida ijod qildi. Hayotining asosiy qismi temuriylar sulolasining ikkinchi poytaxti bo'lmish Hirotida o'tdi. Ma'lum payt, safaviylar sulolasi taklifiga binoan, Tabrizda yashab, asarlar yaratdi. Rassom Samarqandda tug'ilgan, degan taxminlar bor. Hozirgacha 1455-yil Hirotida hunarmand oilasida tavallud topgan, deb kelinadi. Hirat o'sha davrda Sharqning eng go'zal shaharlaridan biri bo'lgan. Behzod ota-onasidan erta ajragan. Uni Hirotidagi mashhur musavvir, saltanat kutubxonasining mudiri Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga oladi. Mirak Naqqosh «Mashhur qirq san'atkor» anjumaniga rahbarlik qilib, Nigoriston, hozirgi tushunchalar bilan aytganda, San'at akademiyasi ishlarini yo'lga qo'ygan edi. Mashhur ingliz sharqshunosi Edvard Braun bu haqda; «O'sha zamonda juda katta shuhrat qozongan Behzod va Shoh Muzaffar singari atoqli naqqoshlar, shubhasiz, Mir Alisher Navoiyning qo'llab-quvvatlashi natijasida kamolotga erishdilar», – deb yozadi. Kamoliddin Behzod mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy bilan tanishadi, u bilan hamkorlik qiladi. Abdurahmon Jomiy huzuriga borib turadi. Uning mehnatsevarligi, iste'dodi, zahmatkashligi Alisher Navoiyga ma'lum bo'lgach, Behzodni huzuriga chaqirib, saroy ishiga jalb etadi, Sulton Husayn Mirzoga tanishtiradi. Hukmdor unga o'zining bog'ida ijodxona qurdirib, ijod uchun barcha shart-sharoitlarni muhayyo qiladi. Sulton Husayn Boyqaro uni Hirotidagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi. Behzod endi butun Xurosonda dong taratadi,

bu yerdagi barcha naqqoshlar, musavvirlarga bosh bo'ladı. Xuddi mana shu davrda Behzodning eng sara asarlari yaratildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga ishlangan turkum asarlar, Husayn Boyqaroning majlislari tasvir etilgan, Temur tarixiga bag'ishlangan muraqqa (albom), Abdurahmon Jomiyning «Solomon va Absol», Muslihiddin Sa'diyning «Bo'ston» va «Guliston»i, Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»siga ishlangan rasmlar, Sulton Husayn Hirotida qurdirgan «Bog'i Behisht» tasviri, Abdurahmon Jomiy portreti, «Sulton Husayn Mirzo saroyida ziyofat», «Malik Doro va otboqarlar», «Yusuf va Zulayho» qissasi, «Masjid ichidagi munozara» singari yuzlab go'zal ijod namunalari dunyoga keldi. Shoh Ismoil Safaviy Hirotning ko'zga ko'ringan hunarmandlari, naqqoshlari, xattotlari qatorida Behzodni ham Tabrizga – o'z saroyiga olib ketadi. U yerda musavvirga qulay shart-sharoit yaratib beradi. Hirotida milliy o'zbek miniatura maktabini yaratgan rassom tarix zayli bilan Tabriz nafis san'at maktabiga ham asos soladi. U xuddi shu davrda bir guruh shogirdlari bilan birgalikda juda ko'plab mumtoz asarlar yaratdi. Xususan, «Bir asr shahzoda tasviri», «Murod Oq quyunlining tasviri», «Tuyalar jangi», «Shoh Tahmosib tasviri», «Rasmiy istiqbol» asarlari, Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostoniga ishlangan suratlar – shular jumlasidan. Buyuk rassom Tabrizda yashab ijod etar ekan, bir dam ham o'z Vatanini unutmadi, vaqti-vaqti bilan Hirotga borib turdi. U Tabrizda ruhiy iztiroblarda yashaganligini ayrim asarlaridagi ishoratlardan sezish mumkin. Masalan, uning Shoh Ismoil Safaviy tasviri chekkasiga «Shikasta qalamli faqir Behzod», «Tuyalar jangi» surati chekkasiga «qalami shikasta, Nomurod, Faqir Behzod, umri yetmishdan oshganda ushbu ishga qo'l urdi», deb imzo chekishi fikrimizga dalil bo'la oladi. Behzod Tabrizda Sulton Muhammad, Oqa Mirak, Mir Said Ali singari turli joylardan kelgan musavvirlarga rahnamolik qildi. Xususan, u Termizda tug'ilib-o'sgan Mir Said Aliga o'z mahorati va rassomlik sir-asrorlarini ayamay o'rgatdi. Ular o'z navbatida, Behzod vafotidan so'ng XVI asr Sharqining mashhur shaharlari – Tabriz, Qobul, Dehli, Buxoroda ustoz an'alarini muvaffaqiyat bilan davom ettirishdi. Natijada o'zbek miniatura san'ati ta'sirida yangi-yangi maktablar yaratildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy qayta ko'chirgan. Behzod uni noyob miniaturlar bilan bezagan. Kitob Humoyun saroyiga olib ketilgan. U bir necha yil Akbarshoh saroyida eng noyob

go'lyozma sifatida saqlangan. So'ng uni Nodirshoh qimmatbaho o'lja tarzida Eronga olib ketadi. Sulton Husayn Boyqaroning majlisleri tasvir etilgan Muraqqa (albom) Sulton Husayn Mirzoning Hirotdagi shoh kutubxonasi uchun maxsus tayyorlangan edi. Undagi 40 dan ortiq go'zal miniatura Kamoliddin Behzod mo'yqalamiga mansub. Muraqqani XX asrning boshlarida fransiyalik san'atshunos olim Muse Foshe sotib olib, Luvr muzeyiga topshirgan. Abdurahmon Jomiyning «Salomon va Absol» asari mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan. Kamoliddin Behzod uni miniaturalari bilan bezagan. Mazkur asar ham XX asr boshlarigacha Afg'onistonda saqlangan. Hirotdagi «Bog'i Behisht» tasvir etilgan miniatura asari Kamoliddin Behzodning eng go'zal va nodir asarlaridan sanaladi. Ammo mazkur asarning ishlangan yili va hozir saqlanayotgan joyi noma'lum. Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»siga ishlangan 33 suratning hammasi Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan. Ushbu asar Berlindagi Milliy kutubxonada saqlanayapti.

1567-yili «Temur tarixi muraqqasi» kumush va tilla suvi yuritib ishlangan. Unda Kamoliddin Behzodning bir necha miniaturalari bor. Ularning hammasi Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. «Temurning taxtga o'tirishi», «Temur saltanatidagi qabul marosimi», «Temur lashkarlarining qal'aga hujumi», «Samarqandda masjid qurilishi» kabi miniaturalar haqiqiy yuksak asarlari sifatida AQSh dagi Boston shahrida saqlanadi. Shoir Sa'diyning «Bo'ston» asarini 1487-yili Sulton Ali Mashhadiy Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning Hirotdagi mashhur kutubxonasi uchun ko'chirgan va uni iste'dodli san'atkor ustod Muzahhib bezagan. Bu asar hozir Qohira muzeyida saqlanadi. Fransiyalik san'atshunos olim Rens Gruze e'lon qilgan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur to'plamdagi Kamoliddin Behzod ishlagan miniaturalarning har biri alohida tasviriy san'at asari sifatida kishini hayratga soladi. Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning Hirotdagi bog'ida bazm tasvirlangan mashhur miniatura shu «Bo'ston» asarida mavjud. Bu rasmlar elliginchi yillarda misrlik olim doktor Muhammad Mustaf o sharhlari bilan arab tilida nashr qilingan. Husayn Boyqaro tasvirining asl nusxasi esa shved san'atshunos olimi F. P. Martinning shaxsiy kolleksiyasida saqlanayotir. Dunyoning ko'p mamlakatlarida ana shu portretdan ko'chirilgan nusxalar mavjud. Mazkur tasvirda Sulton Husayn Boyqaro salobatli qiyiq ko'zli yapasqi yuzli kishi sifatida shohona

liboslar bilan hayotiy ifoda etilgan. Rasmni kuzatar ekanmiz Husayn Boyqaro va Kamoliddin Behzodga zamondosh Zahiriddin Muhammad Boburning ko'zlari yodga tushadi. «Sulton Husayn qiyiq ko'zlik, she'r andom bo'yluq kishi edi. Belidin quyi ingichka edi. Bo'vujudkim ulug' yosh yashab, oq soqolli bo'lib edi, xushrang, qizil abrishimin kiyar edi. Qora qo'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq... Mafosil (bo'g'imlar) zahmati jihatidan namoz qila olmas edi, ro'za tutmas edi. Xulqi bir nima go'zalroq voqe bo'lib edi, ko'zi ham xulqidek edi... qirq yil yovuqkim Xurosonda podshoh edi». Kamoliddin Behzod Husayn Boyqaro tasviri ushbu ta'rifga juda mos tushadi. Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining bir nusxasiga ishlagan miniaturalarning muayyan qismini, fransiyalik olim Mi Jon, turkiyalik olim Aramnokbeklar fikrlaricha, Kamoliddin Behzod qolgan qismlarni Qosim Ali Chehrakusho bilan Oqo Mirak ishlagan. Bu asar hozir Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Muallifi noma'lum bo'lgan bir qo'lyozmani Hirotda xattot Muhammad ibn Attor oqqa ko'chirgan. Unga Kamoliddin Behzod ishlagan nafis miniaturalar mutaxassislarni lol qoldirib keladi. Ular orasida «Darveshlar raqsi», «Shirinning Xusrav tomonidan kutib olinishi» singari mashhur go'zal miniaturalar kishini o'ziga rom etadi. Bu noyob to'plam ham Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Amir Xusrav Dehlaviyning «Layli va Majnun» dostoni qo'lyozmasi noma'lum xattot tomonidan ko'chirilgan. Bu dostonga «Layli va Majnunning madrasada o'qish payti», «Go'zal bog' ko'rinishi» singari miniaturalar o'zining tabiiyligi, hayotiyiligi bilan o'ziga rom qiladi. Bu qo'lyozma nusxa Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasida saqlanadi. «Tuyalar jangi» asarini Kamoliddin Behzod 1525-yili Tabrizda yaratgan. Oq va qora tuya ustida turli yopinchiq anjomlar bor. Tuya egalari ikki tomondan o'z tuyalarining «jahl»larini chiqarib, ularni jangga «tezlayotir». Bir chekkada turgan mo'ysafid tuyalar jangini kuzatmoqda. Tuyalar olishuvi manzarasi jonli aks etgan. Bu holat, o'z navbatida, rasmda tasvirlangan kishilarga ham «yuqqan»ligi yaqqol seziladi. Bu miniaturalarning yuqori tomonidagi burchagida quyidagicha yozuvlar bitilgan: «Mazkur tasvir yaratilish muraqqasidan bir parcha bo'lib, qur'on oyatining, «Ular tuyalarning qanday yaratilganligiga qaramaydilar mi?» degan mazmunga ishora qiladiki, qalami shikasta faqir va nomurod Behzod umri yetmish yoshga yetgandan so'ng o'ta boy tajriba orttirish tajribasida ushbu ishga kirishdi». Bu asar

Behzodning boshqa asarlari bilan birga, ilk daf'a 1931-yili Londonda tashkil etilgan Sharq san'ati ko'rgazmasida namoyish qilingan edi. «Eron san'ati tarixi» (Tehron) kitobida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, asl nusxa hozir Erondagi Guliston saroyida saqlanayotir. Kamoliddin Behzod chizgan shoir Abdurahmon Jomiy siymosi jahon tasviriy san'atining ulkan yutuqlaridan deb e'tirof etilgan. «Shoh Tahmosib asarida shahzodaning bolalik chog'lari tabiat qo'ynida tasvir etilgan. Bu asarni buyuk rassom ijodining eng sara namunalaridan deyish mumkin. Uning bir chekkasida «Behzod» dastxati bitilgan bo'lib, u mashhur Luvr (Fransiya)da saqlanmoqda. Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan yana bir nusxasi Kamoliddin Behzod miniaturalari bilan bezatilgan. Mazkur asar afg'onistonlik Muhammad Naimxonning kutubxonasida saqlanadi. Bularan tashqari hozir jahonning turli qit'alaridagi muzey va ayrim kishilarning shaxsiy kolleksiyalarida saqlanayotgan Kamoliddin Behzod qalamiga mansub «Oriflar zikri», «Bir kampir va yigit», «Bahrom Go'r ovda», «Sulton Husayn saroyida ziyofat» asarlari va Muhammad Shayboniyxon shoir Abdullaxon Hotifiy, shoir Abdurahmon Jomiyilar portret-tasvirlari realistik uslubdagi shoh asarlar tariqasida allaqachon umumjahon madaniy mulkiga aylanib ulgurgan.

SOVG'A BUYUMLARI: TO'R, CHILIM VA NOS, TOMOSHA QOVOQLARNI BADIY BEZASH

1-mashq. To'r, chilim va nos, tomosha qovoqlar palaksimon o'simlik turiga kirib, ular bir yil mobaynida pishib yetiladi. Urug'lari bizning iqlim sharoitimizda may oyida ekilsa, hosili dekabr, yanvar oylarida uzib olinadi. Kadilar obdan pishib, qurib yetilishi hamda yomg'ir, qor ko'rgan holda uning yuza qismida turli shakl va tasvirlar paydo bo'lishi uchun ham qish oylarida uzib olinadi. Otabobolarimiz kadilardan oshxona buyumlari sifatida foydalanib, suv, don mahsulotlarini saqlaganlar, ulardan cho'mich va qoshiqlar, taqsimcha va laganlar o'rnida foydalanishgan. Shuningdek, bedana uchun to'r qovoqlar, musiqa asboblari va boshqa ehtiyoj uchun buyumlar yasashgan. Ularni gul va naqshlar bilan bezaganlar. Kadilarni badiiy bezashda tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash uchun o'quvchilar turli hajmdagi kadilardan andozalar oladilar. Kadi andozasining aniq o'lchamiga

asosan, kompozitsiya asoslarining qonun-qoidalariga rioya qilgan holda turli eskizlar ishlaydilar. Kadilarni badiiy bezashda talabalar naqsh yoki miniatura kompozitsiyalaridan foydalanishlari tavsiya etiladi. Uning uchun naqsh kompozitsiyasini qalamda va rangda ishlanadi. Dars jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom ashyolar, ish qurollari, qadimiy va zamonaviy ashyolar bilan ishlash texnologiyasi haqida tushunchalar beriladi. Kompozitsiya eskizlarini ishlash uchun turli qog'ozlar, planshetlar tayyorlanadi, bo'yoqlar bilan tanishtiriladi. Miniatura va ramziy naqsh belgilarini chizish geometriyasi, miniatura va naqsh uning turlari haqida tushuncha beriladi. Ularni o'ziga xos tomonlari va farqi, miniatura va naqsh belgilarini tabiatdan qayta ishlab olish, miniatura kompozitsiyalarini hosil qilish, kompozitsiyada kompanovka, simmetriya va assimetriya, ritm, stilizatsiya, shakllarni teng qismlarga bo'lish, dinamik va boshqalar haqida o'quvchilarga to'liq tushunchalar beriladi. Har xil chiziqlarni ko'z bilan chamalab teng bo'laklarga bo'lishni va ularni chizishni o'rganish yo'llari tushuntiriladi.

2- mashg'ulot. Obdan pishib yetilgan kadilar uzib olinib, yillar davomida quritiladi va qopqoqlari lobzikda arralanadi yoki drelida teshilib, ularning ichidan urug'lari tushirilib tozalaniladi. Ustidagi po'stloq qismi iliq suvda ivitilib o'tkir pichoq yordamida o'pirib tashlanadi. Tozalanib tayyor holga keltirilgan kadilar 45-60 daqiqa davomida zig'ir yog'da qaynatiladi. Bu yog' boshqa yog'larga nisbatan tez qurishi bilan ajralib turadi.

3-mashg'ulot. Bu jarayonlar tugagach, kadining qurishini tezlatish uchun issiqligi boshqariladigan pechka isitgich javonga terib qo'yiladi. Javon issiqligi xona issiqligidan boshlab 10°C qo'shib isitilib boriladi.

Yaxshi qurigan kadining tabiiy rangi saqlanib ustiga kompozitsiya ishlansa, ba'zan kompozitsiya koloritiga qarab kadining yuzasi moy bo'yoqda bo'yaladi. Moy bo'yoq qurigandan so'ng laklash bosqichiga o'tiladi. Kadilarni laklashda rangsiz moyli lakdan foydalaniladi. Ularni har xil changlardan asrash va sifatli quritish uchun yuqorida aytilgan issiqlik pechlardan foydalaniladi. Quritish jarayoni 60° issiqlikda olib borilib, asta-sekinlik bilan sovitiladi. Laklangan kadilar yuzasida kamchiliklar sezilganda qum qog'ozda jilvirlanib, qaytadan laklanadi. Bu jarayon 3 marotaba takrorlanadi.

4-mashg'ulot. Kompozitsiya eskizni ishlash. Kadining aniq o'lchamini olib, qog'ozga mavzu asosida kompozitsiya loyihalari

bajariladi. Kompozitsiya ishlash jarayonida tabiatdan, hayvonot bog'idan, turli adabiyot va jurnallardan ashyolar to'planadi. Kompozitsiya eskizni o'quvchining yakuniy ijodiy taklifi bo'lib, unda buyumning barcha tavsiflari aniq ifodasini topadi. Kompozitsiyani grafik qismi mavzu yozilgan taxta, sovg'a buyumning turli tomondan ortogonal ko'rinishi, uning perspektiv ko'rinishi, sovg'a buyum tasviri, qismlar qirqimlari, qismlarni o'zaro jamlash sxemasi va tushuntirish xatidan iborat bo'ladi. Kompozitsiya nomi yozilgan bosh taxtacha planshet grafik usulda oq-qora variantda, rangda yoki applikatsiya qog'oz, penoplast, metall va boshqa usulida bajarilishi mumkin. Ushbu taxtacha loyiha nomidan tashqari buyum rasmi, ramzi, muallif va kompozitsiya rahbarining familiyalari ham yozilishi mumkin. Majmualiy buyumlar kompozitsiya tarkibida ularning tarixi tepadan ko'rinishi asosiy chizma hisoblanadi. Sovg'a buyumning ortogonal ko'rinishlari – bosh va yon tarzlari uning o'lchamlari, rangi va fakturasi haqida aniq tasavvur beradi. Qirqim bitta yoki bir nechta tekislik yordamida qirqilgan buyumning shartli ko'rinishidir. Eng xarakterli qirqimlar buyumning funksional mazmuni va ichki tuzilishini ko'rsatib beradi. Qirqimlar chiziqlar yordamida grafik tarzda ifodalanadi, unda buyum va qismlarining asosiy o'lchamlari ko'rsatiladi. Kompozitsiyaning asosiy tarkibiy qismi – ishlanayotgan buyum, burchakli ko'rinishlar beriladi. Tasvir ko'rinishlari planshetda bajariladi.

Buyum kompozitsiyani loyihasi ko'rigi yoki himoyasiga maketlar, shartli yoki haqiqiy materialdan ishlangan eksperimental namunasi ham qo'yiladi. Kompozitsiya loyihasi bo'yicha yozilgan tushuntirish xatida buyumning funksional vazifasi, o'ziga xosligi, foydalanilgan materiallar tayyorlash hamda pardoqlash ishlari bayon qilinadi. Tushuntirish xati bir bet bo'lib, planshetga joylashtiriladi.

5-mashg'ulot. O'qituvchi tasdig'idan o'tgan miniatura kompozitsiyasini yuzasiga to'g'ridan-to'g'ri qalamda chiziladi yoki axta yordamida tushirishdan oldin uning yuzasidagi lakning yaltiroq qismi qirib tashlanadi va pishgan g'isht upasi yuzaga surib chiqiladi. Kadining laklangan yuzasi bilan ranglarni bir-biriga yaxshi qo'shilishida upa bog'lovchi vazifasini o'taydi.

6-mashg'ulot. Kompozitsiya yuzasiga to'liq tushirilgandan so'ng ranglash jarayoni boshlanadi. Yuzasini ranglash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: katta yuzalar – fon, kiyimlar, yuz va qo'l qismlari bo'yab chiqiladi. Turlash, siyoh qalam ishlari, kiyimlardagi chiziq

va burmalar bajariladi. Odam yuz qismidagi bo'laklar ingichka mo'yqalam yordamida ishlanadi. Liboslardagi naqshlar, gullar bilan bezaladi va kompozitsiyadagi mayda qismlarga aniqliklar kiritiladi. Kadi yuzasidagi kompozitsiyani tugallanishining so'nggi bosqichida ustaning ijod qilgan shahrining nomi, yili va shaxsiy imzosi qo'yilgandan so'ng ranglarni qor, yomg'ir, issiq va sovuqdan yaxshi saqlash maqsadida laklanadi. Laklash va pardozlash ishlari quyidagi bosqichda amalga oshiriladi. Yassi yuzali mo'yqalam orqali rangsiz moyli lakda laklanib, pechda quritiladi. Laklash jarayonida foydalaniladigan laklar quyidagi talablarga javob berishi kerak: tashqi muhitga chidamlilik, elastik rangsiz qobiq hosil qilish, tez qurish va boshqalar. Quritish jarayonida yuzaga kelgan pufakchalarni yo'qotish maqsadida qum qog'oz bilan jilvirlanib, yana bir marotaba laklanadi va quritilgandan so'ng yana bir bor mayda qum qog'ozda jilvirlanib, o'simlik yog'i bilan qo'l kafti yordamida ishqalanadi. Kadining yuzasi ko'k tosh kukuni bilan duxoba mato yordamida ishqalanib, pardozlash ishlari yakunlanadi.

7-mashg'ulot. Hajmi va shakliga qarab tayyor holga kelgan sovg'a buyumini sifatli saqlash uchun kartondan quti karopkasi yasaladi. Quti karopkasi marmar yoki gul qog'ozi va xattotlik yozuvlari bilan bezaladi. Sovg'a buyumlari saqlanadigan quti dizayni nihoyatda qulay va jozibali bo'lishi shart.

QABARIQ YUZALI QUTICHALARNI BADIY BEZASH

Ko'p qirrali qutichaga naqsh va miniatura ishlash. Ko'p qirrali qutichaga moslab kompozitsiya tuzish uchun avval kompozitsiya oldi izlanishi olib boriladi. Ushbu tayyorgarlik bosqichida yaratilayotgan buyum turiga oid bo'lgan ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi, unga qo'yiladigan talablar aniqlanadi. Bu ish kompozitsiya topshirig'ida qo'yiladigan mavzu va badiiy – konstruktorlik vazifalarini aniqlashdan boshlanadi. San'atga oid jurnallar, kitoblar chop etilgan maqolalar va ko'rgazmalarning katologlari, kundalik tajriba, standartlar, me'yoriy ko'rsatmalar hamda patent materiallar ma'lumotlar manbalari bo'lib xizmat qiladi. To'plangan barcha ashyolar, ma'lumotlar tahlil etishga qulay bo'lish maqsadida tartibga solinadi. Buyumning ishlangan namunalarining badiiy va konstruktiv yechimlari hozirgi zamon iste'molchilari, ishlab chiqarishning yangi usullari, materiallari haqida iste'molchilarning zamonaviy talablari

haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Kompozitsiya oldi izlanish bosqichida qabariq yuzali qutichalarni badiiy bezashga, lakli qutichalarga qo'yiladigan barcha talablar aniqlanadi. Shu maqsadda buyumga qo'yiladigan funksional talablar, shular qatori ulardan foydalanish sharoitlari tahlil etiladi. Tahlil insonning muhit hamda buyum kompozitsiyasi bilan o'zaro bog'liqligining antropometrik va psixologik omillarini o'z ichiga oladi.

Qulay buyum yaratish antropometriya odamning harakatdagi va turg'un holatdagi tana mutanosibligi haqida bilimga ega bo'lishini taqozo etadi. Gigiyenik talablarni tahlil qilishda buyumdan hamda uning ayrim qismlaridan foydalanish qulayligi, uning turg'unligi, xavfsizligi va tozalash qulayligi hisobga olinadi. Texnologik talablar va ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olish jarayonida buyumning mustahkamligi, chidamliligini ta'minlovchi konstruktiv yechimlarni topishga harakat qilish lozim. Ushbu bosqichda buyum tayyorlanadigan ashyolar tanlanadi. Buyumlarga qo'yiladigan iqtisodiy talablar unga ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga qaratilgandir. Bunda buyumni tayyorlash sinab ko'rish usullari, qabul qilish qoidalari, g'iloflash, transportda jo'natish, saqlash hamda foydalanish sharoitlari hisobga olinadi. Buyum estetik sifatlarini tahlil etishda uning badiiy sifati haqidagi zamonaviy tushunchani, uning funksional va konstruktiv jihatdan progressivligini, shaklning chiroyliligini, materialdan to'g'ri foydalanilganligini, rangi, fakturasi, tayyorlanishining yuqori darajadaligini nazarda tutish lozim.

KO'P QIRRALI STOLNI BADIY BEZASH

Ko'p qirrali stol yoki milliy xontaxtani naqshlash miniatura kompozitsiyasi bilan bezash. Ko'p qirrali stol yoki o'zbek milliy xontaxtasi va uning turlari, uning hayotda tutgan o'rni va tarixi, tuzilishi haqida o'quvchilarga ma'lumotlar beriladi. Kompozitsiya eskizini mustaqil chizish, uni yasash, naqsh yoki miniatura kompozitsiyasini tuzish, xom ashyolar tanlash, yog'ochlarning choklarini forsi kesib, bo'laklarini bir-biriga haydash hamda yelim yordamida biriktirib mustahkamlash, yig'ilgan ko'p qirrali stol, xontaxtaning yuzasini jilvirlash, gruntovka qilish, kompozitsiya tushurish va uni bo'yash hamda laklash haqida o'quvchi to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Ko'p qirrali stolni badiiy bezashdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyum sifatli

va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (sirkul) va boshqa bir qator asboblari kerak bo'ladi. Buyum o'lchami aniq o'lcham olingandan so'ng, buyum uchun qanday miniatura yoki naqsh kompozitsiyasi tuzilsa, buyum yanada ko'rkamroq, go'zal chiqishini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozitsiya tuzuvchining dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog'liq. Demak, bir to'xtamga kelgach, oq qog'ozga kompozitsiya chiziladi. Kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni buyumning qanday materialdan tayyorlanishini e'tiborga olish kerak. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa, yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa, mayda murakkabroq naqsh turidan foydalanish mumkin. O'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan o'zidan stillizatsiyalashtirilgan tarzda olingan. Miniatura kompozitsiyasini yaratishda ham aynan shu qoidalarga amal qilinadi. Odatda o'simliklar bir tomonga qarab o'sadi, bu tabiat qonunidir. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyulsada, lekin haqiqatan esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishga qarab o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham o'z aksini topadi. O'quvchi chizadigan kompozitsiyalarni shunchaki qog'oz betini to'ldirish emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda chizishi lozim. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich kompozitsiya nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda kompozitsiya qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo'lsa, u holda chizishda ham, rang berishda ham har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi. Bir jihatdan qaraganimizda naqsh juda chiroyli, go'zal va jozibador ko'rinsada, lekin bir ozdan so'ng naqsh kompozitsiyasi tuzishda qo'yilgan xato va kamchiliklar, nuqsonlar yaqqol sezilib qoladi.

Birinchidan, tanob yoki novda tagida gul, g'uncha yoki bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas. Ikkinchidan, tanob bilan novdani farqlab tasvirlash.

Uchinchidan, taqsimda ortiqcha naqsh belgilarini chizishga yo'l qo'ymaslik.

To'rtinchidan, naqsh belgilari nisbatini saqlay bilish.

Beshinchidan, tanobdan hech qachon gul, novda, g'uncha va boshqalarni o'sib chiqqan holda tasvirlamaslik.

Oltinchidan, tuzilgan naqsh kompozitsiyasini naqqoshlikka moslab tuzish.

Yettinchidan, naqsh zichligiga e'tibor berish.

Sakkizinchidan, naqsh orasidagi zamin bo'shliqlari nisbatini saqlash va hokazolarni e'tibordan chetdan qoldirmaslik lozim. Buyumdan olingan o'lchamga moslab naqsh kompozitsiyalaridan bir nechta chizib mashq qilinadi. Chizilgan naqsh va miniatura kompozitsiyalaridan eng munosibi tanlab olinadi, chetiga zanjirlardan birini hoshiya sifatida qo'llash ham mumkin. Agar zanjir qilinmasa, chetidan ramka qoldirish lozim. Ramkasiz naqshni bezalmagan uyga qiyos qilish mumkin. Tuzilgan naqsh kompozitsiyasini kalka (xitoy qog'oziga) ko'chirib axta tayyorlanadi.

Axta tayyor naqsh kompozitsiyasini shaffof qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna sanchib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlanadigan andozadir. Ilk davrlarda ustalar yuzasiga to'g'ridan-to'g'ri chizib ketganlar. Keyinchalik esa axta orqali tasvirni tushirish qulayligini sezishgan va undan foydalanib kelganlar. Axta tayyorlash uchun buyumning naqsh kompozitsiya bajariladigan yuzasiga mo'ljallab yupqa xitoy qog'oz olinadi. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o'qi bo'ylab xitoy qog'ozni 2-4 ga buklanadi. Buklangan xitoy qog'ozining bir qismiga naqsh kompozitsiyasi chiziladi. Naqsh chizilgan shaffof qog'ozni yumshoq yostiq ustiga qo'yib, naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik maydaligiga qarab igna tanlanadi va igna teshigi oralig'i naqshning mayda yoki yirikligiga qarab teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa tayyor bo'lgandan so'ng shaffof qog'oz yozib yuboriladi va bir butun kompozitsiyasini ko'rish mumkin. Tayyor bo'lgan axtani naqsh yuzasiga qo'shib ustidan xoka urib yoki bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh kompozitsiyasi buyum yuzasiga tushiriladi va qora qalamda chizib chiqiladi. So'ng naqsh kompozitsiyasining zamini bahoriy ranglardan avvaldan tayyorlangan koller, ya'ni turli ranglarda ishlanadi. Bo'yash jarayonida ranglarning to'yinganligiga alohida e'tibor bermoq lozim. Naqsh kompozitsiyasiga go'zallik, noziklik va joziba beruvchi gul,

barg, g'uncha belgilarini kompozitsiyaga mos holda turlash, tanob, novda bandlarini ranglash, gul, barg va g'uncha belgilariga mos pardozlarini tanlash va siyohqalam tortish, yakunlovchi pardoz ishlari o'quvchidan chuqur bilim va mahorat talab qiladi.

ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

Abrband –atlas va shoyining tanda ipiga maxsus usulda gul (naqsh) chizib, bo'yab beruvchi usta.

Abris –chegara chiziq.

Abstrakt san'at –(lot. abstractus – «mavhum» so'zidan olingan) abstraksionizm rangtasvir, miniatura, haykaltaroshlik va grafikada aniq, mavjud narsalar tasviridan voz kechuvchi modernistik oqim. Abstrakt san'at 1910-1913-yillarda kubizm, ekspressionizm va futurizmning bo'linib borishi jarayonida vujudga kelgan. Bu yo'nalishda V.V.Kandinskiy, R.Delone, F.Pikabiya, F.Kupka, M.F.Larionov va boshqalar ijod qilishgan.

Avangardizm –(Fr.avant-gardisme-avant-garde – «ilg'or ottrad» so'zidan olingan) XX asr rassomlarining qiziqishlarini birlashtiruvchi badiiy harakatning shartli nomlanishidir. Avangard rassomlar an'anaviy bo'lgan yo'nalishlar va uslublarni tanqid qilgan holda, san'atni mazmun va shakl jihatidan tubdan yangilashga intiladilar.

Avtolitografiya – rassom o'z asarini toshbosma usulida ishlashi.

Avtogravyura – (yunoncha «autos» – «o'zim» va «gravyura» so'zidan olingan) rassom o'zi bajargan gravyura.

Avtoportret – rassomning o'zi tarafdin bajargan portreti (1 yoki bir necha oynalar yordamida ishlanadi).

Akademizm – (fransuzcha «academisme» so'zidan olingan) XVI-XIX asr Badiiy akademiyalarida vujudga kelgan va mumtoz san'atning tashqi shakllariga qat'iy ergashishga asoslangan yo'nalish. Akademizm badiiy ta'limotni tizimga solib, mumtoz an'analarni mustahkamlashga yordam beradi.

Akvarel– (fr.aquarelle, ital. Acquerello, lot. aqua – «suv») so'zidan olingan) suv bo'yoq (odatda o'simlik yelimidan tayyorlanadi).

Allegoriya – (yunon.allegoria – «sha'ma, istehzo» so'zidan olingan) mavhum, o'ylab chiqarilgan g'oya, fikrning san'atda aniq obraz orqali ko'rsatilishi. Masalan, kabutar ushlagan figura tinchlik allegoriyasi, qo'lida tarozi ushlagan va ko'zlari bog'langan ayol figurasi – Odil sud allegoriyasi va hokazo.

Alfresko – devoriy rasm ishlash usullaridan bir turi (bu usul devoriy rasmni ohak zamin qurimasidan, namligida ishlashni talab qiladi).

Angob –sopol ustiga surtiladigan pardoz bo‘yog‘i, ko‘pincha qizil kesakdan tayyorlanadi.

Anorgul –anor ko‘rinishidagi naqsh turi. Ko‘pincha kulolchilik, kashtado‘zlik, naqqoshlikda ishlatiladi.

Animalistik janr –(lot. anima – «hayvon, jonivor» so‘zidan olingan) hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san‘at turi.

Anilin – nilbo‘yoq (bo‘yoq moddalarini tayyorlash uchun ishlatiladigan rangsiz, yog‘li va zaharli suyuq modda).

Arabcha naqsh –arabiy naqsh. Yevropada jimjimador naqshni shunday deyishgan.

Axta – qog‘ozga chizilgan naqshning chiziq yo‘llari igna yordamida teshib, kashtachilik, o‘ymakorlik, naqqoshlik, ganchkorlik va shu kabi xalq amaliy san‘ati turlarida naqshni yuzaga ko‘chirishda ishlatiladi.

Axromatik rang –yunoncha «rangsiz» degan ma‘noni bildirib, ular bir-biridan qabul qiladigan yoki tarqatadigan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora rangdan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi.

Asosiy rang –tabiatda uchraydigan sariq, qizil, ko‘k ranglar. Shu ranglarning bir-biriga qo‘shilishi natijasida boshqa ranglar hosil bo‘ladi.

Badiiylik – borliqni, inson va uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o‘zaro o‘xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.

Badiiy uslub –san‘atda qo‘llaniladigan usul.

Bandi Rumi –bir bandlik o‘simlik ko‘rinishlaridan olingan naqsh turi.

Banoras –ingichka qora chiziqlar o‘tgan kumush rangdagi qalin mato. Tandasi ip qo‘shilgan ipakdan, arqog‘i ipdan.

Batik –gul solish uslubi va shu uslubda tayyorlangan ko‘p rangli mato. Matodagi gul yupqa qavatli mum bilan qoplanib, bo‘yoqqa botiriladi. Natijada matoning mum bilan qoplanmagan joylari bo‘yaladi. Batik uslubi qadimdan Indoneziya, Hindiston, Afrika xalqlari orasida ma‘lumdir.

Bag‘dodi –badiiy yog‘och o‘ymakorligi usullaridan biri. 1. Eshik, sandiqlarni bezashda ishlatiladi. 2. Geometrik (girihi) shakllardan tuzilgan naqsh turi. 3. Eshik turi.

Beqasab (beqasam) –tandasi ipakdan, arqog'i ipdan to'qilgan yo'l-yo'l mato. Asosan ustki kiyim (to'n) tikishda qo'llaniladi.

Bulbul ko'zi –Urgutning tasma, jiyaklaridagi naqsh ko'rinishi.

Vinetka –naqshin hoshiya, bezak, naqsh.

Girdob –aylana naqsh ko'rinishi: turli xil naqsh belgilaridan tuzilishi mumkin.

Girih –geometrik shakllardan tuzilgan murakkab naqsh turi.

Grotesk –(fransuzcha «grotesque», italyancha «grottesco» – «g'aroyib, g'alati») 1. o'simlik, jonivor va insonlarning afsonaviy tasvirlari ko'rinishidagi naqsh; 2. adabiyot, san'at va teatrdagi insonlar va narsalarning fantastik tarzda qing'ir-qiyshiq qilib kulgili tarzda yaratilgan tasvirlari; 3. bosmaxona harflarining bir turi.

Guash –(fransuzcha «gouach», «guazzo» – «suv, bo'yoq») tarkibida suv yelim bog'lovchisi bo'lgan, ezilgan pigment, gumiarabik, bug'doy kraxmali, dekstrin va boshqalar, belila aralashmasidan iborat bo'lgan, suv bilan ishlanadigan bo'yoqlar. Amaliy bezak san'ati va rangtasvirda keng qo'llaniladi.

Guli quyosh –uslublashtirilgan kungaboqar guli ko'rinishidagi naqsh turi.

Gushna –qo'ziqorin qaynatmasi bo'yoqchilikda qo'llaniladi.

Gulqalam 1) naqqoshlik – naqshlarni chizishda ishlatiladigan yumshoq mo'yqalam turi. Gulqalam olmaxon, suvsar, bo'rsiq singari hayvonlarning yungidan tayyorlangan bo'lib, qo'llanishga qarab uch turga bo'linadi; 2) pichoqchilikda qo'llaniladigan bigizsimon asbob.

Diptix –(yunoncha «diptychos» – «ikkitalik, ikkiga taxlangan»); 1) rangtasvir yoki bo'rtma tasvirli, ikki tabaqali bukilma; 2) umumiy bir g'oya bilan bog'langan ikkita kartina.

Dizayn –kundalik hayot, maishiy turmushda ishlatiladigan jihozlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovoq, mebel va shunga o'xshash narsalarni qulay holda chiroyli shakl beradigan rangni yaratish san'ati.

Dorpech – turli xil matolarga kashta tikib tayyorlangan, taxmon ustiga ko'ndalang qilib osiladigan bezak buyumi.

Doskun –kunchi asbobi.

Dovot –siyohdon.

Dud –yog'ochdan yasalgan, matoga gul bosishda ishlatiladigan qo'shqolip.

Jangnoma –urush va harbiy mavzularni ifodalovchi tasviriy san'at asarlari.

Jiydagul –jiydaguli ko‘rinishdagi naqsh.

Jiyak, zeh –kiyim-kechaklarni bezashda ishlatiladigan naqshinkor tasma.

Zamin –kashtachilik, naqqoshlik, o‘ymakorlik va kandakorlikdagi naqsh bezagining foni, ya‘ni gulidan tashqari tag qismi.

Zebigardon –bo‘yinga taqiladigan ayollar taqinchog‘i.

Zebitaxmon –xonadagi taxmonni berkitib turuvchi kashtali bezak.

Ikona –(yunon. «Eikon» – «tasvir, qiyofa») nasroniy dinida (proslav va katolitsizm) Iso payg‘ambar, Bibi Maryam, avliyolar, Muqaddas yozuv sahnalarining tasvirlanishi.

Illustratsiya –(lotincha «illustration» – «yoritmani, aniq tasvir») biror-bir tekisni to‘ldirib boruvchi, yorituvchi, mazmunini tushunishda yordam beruvchi tasvir (qalamtasvir, gravyura, fotosurat, reproduksiya va hokazo;) badiiy va ilmiy asarlarning tasviriy, xayolot, talqini.

Iliq rang –olovni, quyoshni, chiroq yorug‘ini eslatuvchi qizil, sariq, zarg‘aldoq, malla kabi ranglar.

Imperssionizm –Imperssionizm – «taassurot, xayolot» so‘zidan olingan. XIX asrning 70- yillarida Fransiya tasviriy san‘atida paydo bo‘lgan. Bu oqimga mansub Mone, Sisley, Pissarro, Renuar kabi rassomlar o‘zlarining tabiatdan, hayotdan olingan shaxsiy taassurotlarini ifoda etuvchi asarlar yaratib, shu yo‘nalishni hosil qilishgan.

Inkrustatsiya –(lotincha «incrusto» – «qatlam bilan, marmar bilan qoplayman») buyum va binolardagi tasvir, naqshlarni metall, yog‘och, sopol, sadaf, marmar va hokazolar bo‘lakchalari bilan qoplash usuli.

Islimiy –o‘simliksimon belgilardan tuzilgan naqsh turi.

Karton –qog‘oz turi, rangtasvir asarning qoralamasi, qalam yoki ko‘mir qalamda ishlangan nusxasi.

Kirpech –kiyim-kechak turgan tokchalarni yopish uchun kashta bilan chiroyli bezatilgan parda.

Kitoba –bezak kompozitsiyasi ichida qo‘llaniladigan chiroyli yozuv.

Lavh –kitobni ochib qo‘yish uchun ishlangan maxsus taglik. Yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, o‘ymakorlik bilan bezatiladi.

Lavkas –tasvir ishlash uchun tayyorlangan taglik.

La‘li –o‘yib ishlangan mis patnis.

Lessirovka –sayqallash, pardozlash uchun tayyorlangan taglik.

Mavj – to‘lqinsimon bezak turi.

Madali belbog‘ –kuyovlar bog‘laydigan shoyi belbog‘. Matodan uzun bo‘lak kesib olinib, chetlariga popuk tikiladi. XX asr boshlaridagi xorazmlik mashhur, mahoratli to‘quvchi usta nomi bilan ataladi.

Madohil –xalq amaliy san‘atida keng tarqalgan lolasimon naqsh turi.

Manera –uslub

Mahobatli rangtasvir –biror binoning peshtoq devorlariga yoki rangtasvir ichki devorga ishlangan rangtasvir asari.

Mastixin –(italyancha «mestichino») po‘latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina; rangtasvir ishlashda qo‘llaniladi.

Mahsi –tagi poshnasiz, tekis, yumshoq charmdan tikilgan qo‘njli oyoq kiyimi.

Me‘moriy bezak –binolarning darvoza, eshik, derazalari tepasiga rangtasvir va haykaltaroshlik vositalariga uyg‘un bezak. Yevropada bino egasining nasli-nasabi, kasb-korini ko‘rsatuvchi gerb, tamg‘a kabi tasvir yoki naqsh, kartush deyilgan.

Miniatura –kichik hajmdagi rasm. Lotin tilida qizil rangning nomlaridan biri, odatda qo‘lyozmaga ishlangan rasmlar shunday nomlangan. Bezak va taqinchoqlarga tushirilgan tasvir, ushoq tasvir deb ham yuritiladi.

Miyona tovoq –o‘rta hajmdagi sopol idish.

Modern –«Modern» uslubi (fransuzcha «moderne»–zamonaviy») XIX asr boshlarida Yevropada va Amerika san‘atidagi uslub. Har bir mamlakatda «Modern» uslubi o‘zgacha nomlanadi: Fransiya Belgiyada «ar nuvo» (Art Nouveau), Germaniyada «jugendstil» (Jugendstil); Italiyada «liberti» (Liberty) va hokazo.

Modernizm –(fransuzcha «modernisme» – «zamonaviy» so‘zidan olingan) XX asr san‘atidagi badiiy oqimlarning umumiy nomlanishi.

Monoxromiya –(yunoncha «monos» – «bir» va «chroma» – «rang», «bir xil ranglilik») birorta rangning bir yoki bir necha tuslarini qo‘llashga asoslangan san‘at asaridagi koloristik yechim ko‘rinishi.

Muqovachi –muqovasoz, sahhob.

Muqova – kitob, albom va shu kabi narsalarni bir to‘plam qilib biriktirib turuvchi ustki qism; muqovasozlik kasbi ilgaridan

rivojlangan bo'lib, bu davrda muqovalar turli xil materiallardan (yog'och, teri, karton) tayyorlangan va yuzasi juda chiroyli, nafis naqshlar bilan bezatilgan.

Muhr – tamg'a; har xil shakl va turli xil materiallardan ishlanadi. Muhr qadimdan boshlab qo'llanilib kelingan.

Mo'yqalam – qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli.

Naqsh – badiiy bezak; amaliy.

Naqsh qalam – yog'och, tosh, metall o'ymakorligida ishlatiladigan uskuna.

Naturalizm – tasviriy san'at yo'nalishlaridan biri. Unda tasvirlanayotgan narsalarning birinchi galda tashqi ko'rinishi, sirtqi suratini tasvirlash maqsad qilib qo'yiladi.

Oftobi – o'rtasidan har tarafga shu'lalar yoyilgan, quyoshsimon aylana naqsh turi.

Ofort – (Frans. «Eau-forte» – «Kuchli aroq», ya'ni azot kislotasi so'zidan olingan) metalda ishlangan gravyura turi, ofort ishlashda bosma qoliplar metalni kislotaga bilan yedirish usulida tayyorlanadi.

Palitra – rasm ishlayotgan paytda rassom bo'yoqlarni qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakach.

Palak – («falak» so'zidan olingan) xonani bezab turuvchi, chiroyli qilib kashta tikilgan bezak buyum. Falakni, ya'ni osmonni ifodalovchi palakda oy shakli tasvirlanadi va chetlari chiroyli naqshlar bilan tikib chiqiladi.

Panno – (Frans. «Ranneau», lot. «Pannus» – «mato bo'lagi» so'zidan olingan) 1) rangtasvir yoki haykaltaroshlik.

Pargor – sirkul: chizish asbobi.

Pastel – (ital. «Pastello, pasta» – «xamir» so'zidan olingan) pigmentlar kukuni, kamedlar, sut va ayrim payt bo'r, gips va hokazolardan tayyorlangan quruq, yumshoq rangli qalamlar bilan rangtasvir ishlash. Odatda pastel qalamlar bilan g'adir-budur qog'oz, karton. Mato, zamj va pergamentda ishlanadi.

Perspektiva – (lot. «Perspicio» – «aniq ko'rayapman» so'zidan olingan) rangtasvirda borliqni ishonarli tasvirlashga yordam beradigan qonun-qoidalar tizimi. Bu tizimni XV asr Italiya rassomlaridan Paole Uchello, Pero Francheskolar ixtiro qilishgan. Mazkur qonun-qoidalarga binoan, tasvirlanayotgan manzara yoki narsaning ko'rinishi. Uzoq-yaqinligiga qarab uning o'lchami, shakli, rangi va boshqa sifatlarini ishonarli ifodalash mumkin.

Peyzaj – manzara.

Pigment –turli bo‘yoqlar kukuni.

Plener –(fransuzcha «plein air» – «ochiq havo») kartinada quyosh yorug‘ligi va atrofidagi muhitning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan ranglar tuslanishini anglatuvchi atama. Bu turdagi rangtasvir ochiq havoda ishlanadi.

Polotno –bo‘z matoga ishlangan rangtasvir asari.

Rakurs –(Frans. «Raccourci» – «qisqarish» demakdir) tasvirlanuvchi narsalarning perspektiv qisqarishi.

Rapport –(frans. «Rapporter» – «qaytadan olib kelmoq» so‘zidan kelib chiqqan) mato, kashta, gilam, kulollik buyumlari, mozaika va shu kabi narsalardagi naqsh gulining takrorlanib kelinishi. Rapport, ayniqsa, to‘qimachilikda ahamiyatga egadir.

Repraduksiya –tasviriy san‘at asarida chop etilgan nusxa.

Restavrator –ta‘mirlovchi, ta‘mirchi.

Retush –maxsus qalam.

Rokoko –chig‘anoq so‘zidan olingan, chig‘anoqsimon, chig‘anoqqa o‘xshash jimjimador, o‘ynoqi degan manoni beradi.

Romantizm –XIX asrning 20-30-yillarida Yevropa san‘atida paydo bo‘lgan badiiy yo‘nalish. Zamonaviy hayotdan olingan sujetlarda shaxslarni, ularning his-tuyg‘ularini oshkora va ko‘tarinki ruhda ifoda etadi.

Suvsar qalam –naqqoshlikda qo‘llaniladigan suvsar mo‘ynasining tolasidan tayyorlangan ingichkamo‘yqalam.

Sayqallash –pardozlash.

Sepiya –jigarrang bo‘yoq. Shu bo‘yoqda ishlangan badiiy tasvir.

Simvol –ramziy belgi, timsol.

Sous –yumshoq qalam. Shu qalam yordamida ishlangan asar ham «sous» deyiladi.

Stilizatsiya –uslublashtirish, muqallid, narsalar shakl va tuzilishini soddalashtirish yoki murakkablashtirish, badiiylashtirish.

So‘zana –devorga osiladigan, kashta bilan chiroyli qilib bezatilgan bezak buyumi; gulko‘rpa ilk bor yosh kelin-kuyovlar to‘shagining yopinchi‘i sifatida, hozirgi kunda esa xonaning devoriy bezagi sifatida ishlatiladi.

Surrealizm –(fr.Surrealisme – «realizmdan yuqori» so‘zidan olingan) XX asr san‘ati va madaniyatidagi avangard yo‘nalish.

Tagi qalam –naqqoshlikda ishlatiladigan maxsus mo‘yqalam.

Tarh –chizma, loyiha, eskiz.

Turunj –amaliy san‘at bezagida keng qo‘llaniladigan naqsh turi.

Tush –qora bo‘yoq. Ilgari tush ignabargli daraxtlar qurumi, o‘simlik yog‘i va qatrondan, hozirgi kunda esa gaz va neft mahsulotlarini yondirish natijasida hosil bo‘ladigan qurumdan tayyorlanadi.

Forzats –kitob muqovasining astari.

Frontispis –titul varag‘ining chap tomonidagi bezakli sahifa, kitob bezagi.

Xat –geometrik ko‘rinishdagi chiziqli naqsh.

Xattot –husnixat, chiroyli yozadigan va naqsh ishlaydigan kishi.

Chorsar –to‘rtburchak geometrik shakllardan tuzilgan naqsh turi.

Estetika –go‘zallik, nafosat haqidagi ilm, fan.

Yakka zanjira –bir yo‘llik oddiy zanjira naqsh.

Hal –buyumlarga jilo berib bezatishda ishlatiladigan, oltin, kumush, aluminiy, jez, rux va shu kabi metallardan tayyorlangan bo‘yoq, kukun.

Halqacha –hoshiya naqsh turi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Акилова К.Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана XX век. –Ташкент: 2005.
2. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Тошкент: 1991.
3. Булатов С.С., Шабаратов П.П. Муаллимлар институтлари бадий-графика факултетининг ўқитувчилари учун миниатюра санъати фанидан дастур. –Тошкент: 1995.
4. Нодир Б. Тасвирий ва амалий санъат атамалари луғати. – Тошкент: «Санъат», 2000.
5. Камаров А. Технология материалов стенописи. – Москва: 1989.
6. Мадалиев А., Норматов Н. Шарқ миниатюра мактаблари. –Тошкент: 1979.
7. Сулаймон Х., Сулаймонова Ф. Алишер Навоий асарларига ишланган расмлар. –Тошкент: «Фан», 1982.
8. Сулаймон Х., Сулаймонова Ф. Низомий «Хамса»сига ишланган расмлар. –Тошкент: «Фан», 1985.
9. Сулаймон Х., Сулаймонова Ф. Амир Хусрав Деҳлавий асарларига ишланган расмлар. –Тошкент: «Фан», 1983.
10. Х.Сулаймон, Ф.Сулаймонова. Алишер Навоий асарлари бадий қўлёзмалари албоми. –Тошкент.: 1981.
11. Сулаймон Х. Бобурнома расмлари. 1970.
12. Шабаратов П. П. «Миниатюра» маърузалар матни. –Тошкент: 2000.
13. Шоёқубов Ш.К. Замонавий Ўзбекистон миниатюраси. –Тошкент: "Ўзбекистон", 2006.
14. Эгамов. Композиция асослари. –Тошкент: 2004.
15. Ўзбекистон Бадий Академияси «SAN'AT» журнали, 1999-2007.
16. Қўзиёв Т., Эгамов А., Қанотов Т., Нурқобилов А. Рангтасвир. – Тошкент: 2003.
17. Қўзиёв Т. Беҳзод ва тамаддун. –Тошкент: 2000.

MUNDARIJA

Kirish	3
Lakli miniatura san'ati	4
Oddiy naqsh namunalarini qalamda va rangda ishlash	8
Oddiy naqsh namunalarini bo'yash	12
Aylana va boshqa ko'p burchak yuzalariga naqsh yoki miniatura kompozitsiyasi ishlash	13
Sharq miniatura maktablari	15
Eron miniatura maktabi	18
Qutichaga tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash	23
Liboslar tarixi va ularni badiiylashtirish. Kompozitsiyalar ishlash	26
Turk va Ozarbayjon miniatura maktablari haqida	30
Ozarbayjon miniatura maktabi	36
Qutichaga tabiat, me'morchilik obidalari va ko'p qomatli insonlar aks etgan murakkab kompozitsiyalar ishlash	42
Murakkab shakldagi qutichaga «ov» mavzusida kompozitsiya ishlash	45
Sharq miniatura san'ati	47
Sopol yoki chinni buyumlari uchun kompozitsiya ishlash	53
Qutichaga «Buyuk ipak yo'li» mavzusida kompozitsiya ishlash	55
Hirof miniatura maktabi	60
Behzod ijodi	78
Sovg'a buyumlari: To'r, Chilim va nos, tomosha qovoqlarni badiiy bezash	83
Qabariq yuzali qutichalarni badiiy bezash	86
Ko'p qirrali stolni badiiy bezash	87
Atamalarning izohli lug'ati	90
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	98

67/4,
O'quv-uslubiy nashr

Patxiddin Shabaratrov

KOMPOZITSIYA

Muharrir
D.MINGBOYEVA

Badiiy muharrir
B.BOZOROV

Tex.muharrir
YE.DEMCHENKO

Musahhih
N.YUSUPOVA

Kompyuterda sahifalovchi
A. SHAMAHMUDOV

Original maket «El-Press» MChJda tayyorlandi

Bosishga 22.08.2007 y.da ruxsat etildi.

Garnitura Lex Time Cyr+Uzb. Bichimi 60x90 1\16.

Bosma tobog'i 6,25+вкл. 2,0. Shartli bosma tobog'i 5,81+вкл. 1,86.

Adadi 600 nusxa. Buyurtma № 197.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosildi.

700113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar

Nashr bo'limi 278-36-89, marketing bo'limi 128-78-43

Faks 173-00-14, e-mail: yangiasravlodi@mail.ru